Умуман олганда, матншуносликнинг фан ёки соҳага оид бўлиши ҳақида аниқ хулосага келишнинг ўзи мунозоралидир. Равшанки, матншунослик XIX аср ўрталаригача тўлиқ соҳа ёки фан сифатида шаклланмаган, у XX аср бошларига қадар адабий, тарихий асарлар нашрида зарурӣ бўлиб, вазифаси ҳам асосан амалиёт талаблари билан чекланган. Матншунослик кейинги даврларда назарий ишланмаси, методикаси ва вазифаларининг аниқ белгиланишига эришди. Бу каби илмий-тадқиқ натижалари унинг инсон билим тизимида фан сифатида тавсифланишига олиб келди. Лекин матншуносликни филологиянинг тарихий-адабий дисциплинаси ёки маҳсус соҳаси деб таърифлаш кўпроқ унинг имкониятларини аниқ ва тўла намоён этади. Матншуносликка фан деб ёндашилганда эса, бошқа соҳалар билан боғлиқ аралашуви юзага келади ва матншуносликнинг ўзига хос хусусиятлари яққол кўринмайди. Д. С. Лихачев таъкидлаганидек, матншунослик филологиянинг соҳаси бўлиб қолади, ҳатто тарихий манбалар матнини ўрганганд ҳолда ҳам тарих фанининг бир тармоғи сифатида талқин этилишига йўл қўйиб бўлмайди.<sup>11</sup> Яна бир жиҳати, мустақил бўлган ҳолда матншунослик адабиёт тарихи, адабиёт назарияси билан узвий боғланади ва улар аслида матншунослик базасини ташкил этади.

<sup>11</sup> Қаранг: Лихачев Д.С. Текстология. Краткий очерк. –М. – Л.: Наука, 1964. – Б. 7.

Дарҳақиқат, матншунослик соҳасининг фанлар тизимида тутган ўрнини аниқ чегаралаш бироз мушкил. Аммо мутахассис олимларнинг мазкур масалага ёндашувлари умумлаштирилса, яхлит хулосага келишга асос етарли экани кўринади:

Демак, мутахассис олимларнинг юқорида келтирилган фикрларига суюниб айтиш мумкинки, матншунослик маҳсус фан даражасига етмаган, аммо шу йўналишда шаклланаётган соҳа. Бу соҳанинг назарий-амалий мақсади - муайян асар биографиясини илмий асосда изчил ўрганиб, матн тарихини тўла тиклаш, жараёндаги умумий ва хос қонуниятларни аниқлаш ва уларни кенг тадбиқ учун жорий қилиш тизимини ишлаб чиқишидан иборат.

### **Раҳбарий адабиётлар**

1. Ўзбекистон Республикаси биринчи Президентининг 2016 йил13 майдаги ПФ-4797-сон Фармони.

2. Каримов И.А. “Она юртимиз баҳту иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатдир”. – Тошкент, “Ўзбекистон”, 2015.

3. Каримов И.А. “Бетакроримсан, ягонасан она Ватаним – Ўзбекистоним” Мустақилликнинг 24 йиллигига бағишиланган маъруза. Халқ сўзи, 2015 йил 1 сентябрь.

4. Каримов И.А. “Ягонамсан муқаддассан, Ватаним, севги ва садоқатим сенга баҳшида, гўзал Ўзбекистоним” Мустақилликнинг 23 йиллигига бағишиланган маъруза. Халқ сўзи, 2014 йил 1 сентябрь.

5. Каримов И.А. Асарлар тўплами. 1-21 жиллар. – Тошкент, “Ўзбекистон”, 1996-2013.

6. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент, “Маънавият”, 2008. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ // Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурамиз. 7-том. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998. –Б.132-155.

7. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008, – 1766.

8. Каримов И.А. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. – Тошкент: Ўзбекистон, 2010. – 406.

9. Каримов И.“Ёшлишимиз – халқимизнинг ишончи ва таянчи”, Т.: Маънавият, 2006. –946.

### **Асосий адабиётлар**

1. Лихачев Д.С. Текстология. –М.-Л.: АНС. 1962.

2. Ш.Сирожиддинов, С.Умарова. Ўзбек матншунослиги қирралари. –Т.: “Akademnashr”. 2015. 122 б.

3. Зуфаров Т. Хат таълими. –Т.: Meriyus, 2010..

### **Кўшимча адабиётлар**

6. Алишер Навоий. Ҳайрат-ул-абор. Илмий танқидий матн. (Тузувчи: Порсо Шамсиев), –Т.: Фан, 1970.

7.Зоҳидов Р. Саботул ожизин – илмий-адабий манба. –Т.:Muharrir, 2012.

8.Исмоилов М. Хужжатшунослик ва Марказий Осиё дипломатикаси. Ўқув қўлланма. – Т.: Akademnashr, 2010.

9.Исҳоқов Ф. Гулханийнинг “Зарбулмасал” асари. Т.: “Фан”, 1976.

10. Йўлдошев Иброҳим. Ўзбек китобатчилик терминологияси. – Т.: Фан, 2004.

11. Католог фонда института рукописей. 1 том. – Т.: Фан, 1989.

12. Каюмов А., Хасанов Б. Жемчужины мудрости и тайны «семи морей». –Т.: Издательство народного наследия им. Абдуллы Кадыри, 2002.

13. Комилов Н. Бу қадимиј санъат... Т.: Faafur Fulom номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1987.

14. Муниров Қ. Бебаҳо хазина. –Т.: Имом ал-Бухорий халқаро жамғармаси, 2002.

15. Муниров Қ. Хоразмда тарихнавислик. –Т.: Faafur Fulom номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2002.

16. Муродов А. Ўрта Осиё хаттотлик санъатитарихидан. – Т.: Фан, 1971.

17. Навоий асарлари луғати (тузувчилар: П. Шамсиев, С.Иброҳимов). –Т.: Faafur Fulom номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1972.

18. Навоий дастхати. (Наводирун-ниҳоя). Нашрга тайёрловчи, сўзбоши муаллифи С. Фаниева. – Т.: Фан, 1991.

19. Правила подготовки к изданию памятников литературы Востока.–М.: ИВЛ, 1959.

20. Раҳмонқулова М. ЎзМУ кутубхонасидаги Шарқ қўлёзмалари каталоги. – Т.: IPTD O'zbekiston, – 2007.

21. Рустамий А. Адиблар одобидан адаблар. –Т.: Маънавият, 2003.

22. Сирожиддинов Ш. XV–XVI асрлар тарихий ва тазкира-эсдалик асарларида Алишер Навоий ҳаёти ва фаолияти талқини. – Самарқанд: Зарафшон, 1997.

23. Султонов И. Навоийнинг “Мезонул–авзони” ва унинг критик тексти: филол.фан.ном.дисс . – Т.: Асосий кутубхона. РД/1, 1947

### Электрон манбалар

24. [www.ziyo-net.uz](http://www.ziyo-net.uz)

25. [www.literature.uz](http://www.literature.uz)

26. [www.kutubxona.uz](http://www.kutubxona.uz)

27. <http://textshare.tsx.org>

28. <http://www.mgimo.ru/filesserver/>

### Мустақил таълим учун саволлар

1. Ўзбек матншунослигининг рус матншунослигидан фарки.
2. Матншуносликнинг фаолият доираси.
3. Матншуносликнинг фанлар тизимидағи ўрни.
4. Амалий матншунослик.

### Глоссарийлар

**Археография** – ёзма манбаларни қидириб топиш, илк тавсифга олиш, илмий муомалага киритишни назарда тутади. Кутубхона, турли фондлардаги қўлёзмаларнинг туркумлаштирилган тавсифи, археографик қиёсий таҳлили манба матнини тузишда муҳим ҳисобланади. Бундай ишлар натижалари матн устида ишлашнинг равон боришини таъминлайди.

**Герменевтика** – қадимги ёзма матнлар мазмунини изоҳлаш билан шуғулланади, матншунослик учун герменевтика асарнинг қадимда тутган ўрни, асар умумий мазмуни каби маълумотларни беради.

**Манба** – арабча “оқиб чиқмоқ”, “бошланмоқ”, “отилиб чиқмоқ”, “келиб чиқмоқ” маъноларини англатувчи *نَابَاْءَة* (نَبِيْع) феълидан “оқиб чиқиши жойи”, “бошланиш нуқтаси” “булоқ” маъносидаги *مَانْبَة* (منْبَع) сўзи ясалган. Ҳар қандай ҳаракат, воқеа-ҳодисанинг бошланғич нуқтаси, аввали, бошига нисбатан қўлланган бу сўз маълум соҳа кишиларининг ихтиёрига биноан ижод маҳсули тушунчасида қарорлашди ва “манба” дейилганида муайян *асар* (китоб) тушунила бошлади. Мутолаа қилинган китоб ўз ўкувчиларида турли хил ўхшаш ва фарқли фикрларни уйғотади. Фикрларнинг ўхшашлиги қараашларни, фарқлилиги ёндашувларни юзага келтиради. Бу жараён бамисоли китобдан китоблар отилиб чиқаётган, асардан асарлар тармоқланиб, тошиб оқаётган оқимга ўхшайди.

**Матн** – арабча изоҳли лугатларда бу сўз “нарсанинг устки, юза қисми” деб таърифланган. Масалан, ернинг устки қаттиқ қисми, йўлнинг ўртаси (*مَنْتَنُ الْأَرْضِ*), китоб саҳифасидаги ёзувларнинг ҳошия ва шарҳлардан холи асосий қисми<sup>12</sup> (*مَنْتَنُ الْكِتَابِ*) матн сўзи билан ифодаланган. Шунинdek, бу сўзининг “мустаҳкам; пишиқ” каби сифат маъносида келган тури ҳам мавжуд. Тилимизга ўзлашган *матонат*, *метин* сўzlари ҳам матн билан ўзакдошdir. “Адабиётшунослик терминлари луғати”да текст сўзи “авторнинг асл сўзи, асарнинг қўлёзмаси ёки нашр этилган нусхаси”<sup>13</sup>, “Словарь-справочник лингвистических терминов» китобида “ёзув ёки нашрда акс эттирилган нутқий асар (баён қилиш)”<sup>14</sup>, “Хозирги ўзбек тили фаол сўзларининг изоҳли луғати”да “матн – мазмунан ва мантиқан ўзаро алоқадор бўлган гаплар ёки алоҳида олинган гап”<sup>15</sup>, “Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати”да “матн – ёнмаён ҳарфлар, ёзув орқали акс эттирилган нутқ, умуман, нутқ парчаси; текст”<sup>16</sup>

<sup>12</sup>Қадимий (қўлёзма ва баъзан тошбосма) китобларда асл матн ҳошия билан ажратилган. Матн шарҳлари ҳошияда гир айланасига битилган. Бу ўринда шу ҳолат назарда тутиляпти.

<sup>13</sup>Хомидий Ҳ., Абдуллаева Ш., Иброҳимова С. “Ўқитувчи”, Т. 1970, 222-бет.

<sup>14</sup>Розенталь Д.Э., Теленкова М.А. М.: “Просвещение”, 1976, 483-стр.

<sup>15</sup>Хожиев А., Нурмонов А. ва бошقا. Т.: “Шарқ”, 2001, 130-бет.

<sup>16</sup>Хожиев А. Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2002, 61-бет.

тарзида турлича ифодаланган. Матн билан тенг маънода қўлланадиган *текст* сўзи лотинча *textus* сўзидан олинган бўлиб, “тўқима мато; тўқиши; ўриш; чирмаш; қўшиш” каби маъноларни англатади. Бу сўзниг нисбатан кенгроқ ва қамровли изоҳини 2010 йил “Akademnashr” нашриётида чоп этилган “Адабиётшунослик луғати”да кўриш мумкин.

**Матн тарихи** – муайян матннинг пайдо бўлишидан то охириги ҳолатигача давом этган жараён матн тарихини ташкил қиласди. Аксар матнлар маълум вакт мобайнида субъектив (муаллиф, котиб, нашрга тайёрловчи, муҳаррир) ва объектив (ижтимоий) омиллар таъсирида ўзгаришга учрайди. Матншуноснинг вазифаси мана шу ўзгаришларни аниқлаш, уларни тарихий, илмий далиллар билан асослаш ва шу йўл билан асл матнни тиклашdir.

**Одоб** – “адаб” сўзининг кўплик шакли (آداب). Мумтоз адабиётда “адаб”нинг кўплиги сифатида қўлланади. Ундан ташқари “одоб” сўзи инсон фаолиятининг айrim соҳаларига оид қоидалар ва уларга риоя қилиш маъносида ҳам ишлатилади.

**Текст** – ёзувда қайд этиб қўйилган нутқ. Термин бу маъносида оғзаки нутқقا қарши қўйилади; нутқий асар, жумладан, адабий асарнинг ёзма (харфлар) ёки оғзаки (товушлар) белгилар воситасида қайд этилган конкрет-ҳиссий (кўриш ё эшитиш) қабул қилинадиган томони. Бу маънодаги *текст* матншуносликнинг обьекти саналади; нутқий коммуникациянинг нисбий бутунлик, яхлитлик касб этган ва нисбий автономлик, алоҳидалик хусусиятига эга энг кичик бирлиги, яъни адабий-бадиий асар. Бу маънодаги *текст*нинг мазмуни уни ташкил қилаётган нутқ бирликлари, уларнинг ўзаро алоқалари билангина чекланиб қолмайди. Бутун сифатида у муаллиф томонидан муайян нутқий ситуацияда туғилган, унинг бутун сифатидаги мазмун-моҳияти ўзидан ташқаридаги реаллик билан боғлиқ ҳолда воқе бўлади”<sup>17</sup>.

**Таъсиrlар занжири** – Маълум адабий асар бўйича тадқиқот олиб бораётган манбашунос ўзи ўрганаётган обьектнинг яхлит бутунлик сифатида юзага келишига сабаб бўлган *таъсиrlар занжирини* тиклайди, тадқиқ этилаётган асарнинг бу силсиладаги ўрнини белгилайди, халқалар орасидаги муносабатларнинг умумий қонуниятларини аниқлайди. Манбашунослик тадқиқи мана шу узлуксиз жараён ичida кечади.

**Экзегетика** – диний матнларни филологик жиҳатдан таҳлил этишда матншунослик ишлари билан бевосита боғланади.

## Назорат саволлари

1. Таъсиrlар занжири ибораси нимани англатади?
2. Мумтоз адабий матнларни эски ўзбек ёзувидан жорий алифбога табдили муаммолари нималардан иборат?

<sup>17</sup> Д.Куронов ва бошка. Т.: “Akademnashr”, 2010, 329-бет.

3. Европада матншунослик илми қандай номланади?
4. Диёrimизда матбаачилик тарихи қачондан бошланган?

Инсоният тарихида ихтиро қилинган ҳар бир кашфиёт, аввало, ижтимоий хаёт таъсирида юзага келади ва кўп асрлик анъаналар доирасида шаклланиб боради. Маълум бўлишича, дастлаб пиктографик ёзув кашф қилинган. Бу ёзувда чизилган расмлар мувофиқлигига қараб, инсоннинг ўзи бир-бири билан боғлик шакллар асосида мантиқий фикр юритиб, гап тузган. Пиктографик ёзув тараққиёти асосида логографик ёки идеографик ёзув пайдо бўлди. Бунда тилдаги ҳар бир сўз ўз рамзий тимсолига эга бўлади. Пиктограмма тўғридан-тўғри предметни расм орқали кўрсатса, логограмма сўзнинг маъносини тушунча орқали ифодалайди. Иероглифик ёзув логографик ёзувнинг ривожланган, мукаммал кўринишидир.

Милоддан аввалги VI–IV асрлардаёқ Туронзаминнинг турли ўлка маҳаллий тиллари товуш системасига мустақил ҳолда мослашган. Хоразмий-суғдий, паҳлавий, бахтарий каби ёзувлар шаклланганлиги ёзма маданиятимиз илдизлари нақадар узоқ даврларга бориб тақалишидан далолат беради. Мана шу ёзувлар ичида суғд ёзуви ёдгорликлари кенг миқёсда ва узоқ вакт истеъмолда бўлганлиги билан алоҳида ажралиб туради. Қоғозга битилган ва бизгача етиб келган суғдча матнларнинг энг қадимииси IV аср бошларига мансуб бўлиб, фанда “Эски мактублар” деб ном олгандир. Бу мактублар 1906 йили инглиз олими А. Стейн бошлиқ экспедициятомонидан Мўғулистаннинг Дунхуан деган жойидан топилган. Суғд ёзма ёдгорликларининг энг сўнггиси Талас дарёси водийсидаги қоятошлар сиртига битилган ташрифномалардир. Бу ёзув оромий ёзуви асосида пайдо бўлганлиги боис, оромий ёзувига ўхшайди. II асрнинг охири – III асрнинг бошларида Хоразм ёзуви хўжалик хисобот хужжатлари, тангалардаги ёзувлар, қабрларга ўрнатилган ҳайкаллар ва бошқа жойларда учрайди.

V–VIII асрлар давомида туркий халқлар Ўрхун-Энасой ёзувидан кенг фойдаланган. Ўрхун-Энасой ёзуви билан бирга уйғур алифбосидан ҳам фойдаланилган ва бу ёзув туркий халқлар орасида XVI асргача анча кенг ишлатилган. Ёзув турларининг кенг кўлланиши билан бирга китобатчилик санъати ҳам ривож топди. Ўрта Осиёда милоддан аввалги асрлардаёқ китобчилик ишлари билан шуғулланганлар.

Қадим Шарқий турк маданий муҳитида қўлёзмалар билан ёнма-ён ксилография усули жорий этилган. К. Содиқовнинг ёзишича, “турк буддавийлари орасида анча кенг тарқалган китоб тури потхидир. Бундай усул билан китоб тайёрлаш учун, даставвал, китобга мўлжалланаётган вараклар ўртасига бир ўлчамда доирачалар чизиб чиқилган. Матнни ёзаётган пайтда эса сатр доирага келиб туташганда тўхтатилиб, доирачанинг иккинчи ёғидан давом эттирилаверган. Шундай қилиб, доирача ичи бўш қолган. Қўлёзма тўлиқ қўлдан чиққач, ҳалиги доирачалар ўртасидан тешиб чиқилган. Варакларни дасталаб туриб, уларнинг тешигидан ипга тизилган. Сўнгра қоғоз бичимиға teng икки пайраха олиб, тахлоғлик қоғознинг икки ёғидан қопланган ва тизимчаси маҳкамлаб қўйилган. Ўз навбатида, пайрахалар муқова вазифасини ўтаган ҳамда

китобни яхши сақлаш имконини берган. Китобни ўқиши зарур бўлган тақдирда тизимчаси бўшатилиб, фойдаланиб бўлгач, яна жойлаб кўйилаверган”<sup>18</sup>. Литография усулида китоб тайёрлашни баъзи олимлар ясси чоп этиш деб ёзишади. Жумладан, Ш. Зиёдовнинг ёзишича, ҳарф терилмайдиган, полиграфия терминологияси бўйича ясси чоп этиш усули литография бўлиб, яъни ясси чоп этиш – матн олдиндан қофоз варафига битилган ва тош шаклга тескариси туширилган аксдан нусха кўчириш усули ҳисобланади.<sup>19</sup>

XIX асрнинг иккинчи ярмида Туркистон халқлари ҳаётида рўй берган янгиликлардан бири типо-литографик корхоналарнинг очилиши бўлди. Тошкентда бирин-кетин матбаалар иш юрита бошлашди. Марказий Осиёда илк типография расман Тошкентда 1868 йили ҳарбий штабда ташкил этилган. Тошкентдаги бу босмахона хизмат доираси учунгина ташкил этилган бўлиб, типо-литографияда асосан Туркистон губернаторлигининг расмий хатлари, буйруқлари, телеграмма ва бошқа хужжатларини чоп этиш мўлжалланган эди.

М. Ҳакимов қайд этганидек, Туркистонда китоб босишининг икки хил усули қўлланди. Биринчиси типографик(михбосма) усул бўлиб, унда мих шаклидаги металл ҳарфларни қўлда териш орқали китоб босилган. Бунда араб ёзувининг насх ёзувидан кенг фойдаланилган. Иккинчиси эса литография(тошбосма) усул, унда дастлабки, асосий ишни хаттот бажарган. Хаттот босиладиган китобнинг матнини маҳсус қофозга кўчирган. Бу қофоздаги матн тош қолип сиртига ўтказилган ва унга кимёвий ишлов берилган. Сўнгра ана шу тош қолиллардан нусхалар олинган. Хаттот тошбосмага матн кўчирганда асосан настълиқ хатидан фойдаланган. Лито-типографикга нисбатан литографик усул кенг қўлланган. Бунга фақат Алишер Навоий асарларининг 1879–1917 йиллар давомида Туркистон шаҳарларида кўп матбааларда босилган 70га яқин нашри фақат тошбосма усулида амалга оширилганлиги мисол бўла олади.<sup>20</sup> Ўрта Осиёда тошбосма усулидаги дастлабки матбаа Хивада Муҳаммад Раҳимхон II саройида юзага келади. “Шарқда биринчи матбаа 1832 йили Эронда пайдо бўлган эди. Шунинг учун Эрондан Иброҳим Султон номли матбаачи Хива саройига таклиф этилади. Иброҳим Султон маҳаллий ёшлардан Отажон Абдаловга матбаачилик сирларини ўргатади, 1874 йилдан бошлаб баъзи хужжатлар тошбосма усулида чоп этила бошлайди”<sup>21</sup>.

XIX асрнинг охири – XX асрнинг бошларида Хива хонлиги маданий ва ижтимоий ҳаётида муҳим роль ўйнаган Муҳаммад Раҳимхон II кутубхоналар ташкил этган ҳамда қўлёзма манбаларни асраш ва кўпайтиришга катта аҳамият қаратган. Қ. Муниров қайд этганидек, бошқа Хива хукмдорларидан фарқли ўлароқ Муҳаммад Раҳимхон II ўз замонининг шоири бўлган. У тарихий, адабий асарларни севган ва уларни кўплаб кўчиртирган ҳамда саройга тўплаган.

<sup>18</sup> Содиков Қ. Туркий матннавислик тарихидан. Қадимги ёзма ёдгорликлар. – Т. : Ёзувчи, 2000. – Б.126.

<sup>19</sup> Қаранг: Зиёдов Ш. Марказий Осиёда илк тошбосма китоблар нашри тарихидан//Шарқшунослик, 2009, № 14. – Б.136.

<sup>20</sup> Қаранг: Ҳакимов М. Алишер Навоий асарларини кўчирган хаттотлар. –Т.: Фан, 1991. – Б.39.

<sup>21</sup> Эркинов А., Полвонов Н., Аминов Ҳ. Муҳаммад Раҳимхон II – Феруз кутубхонаси фехрести. – Т. : “Янги аср авлоди”, 2010. – Б.9–10.

Муҳаммад Раҳимхоннинг иккита кутубхонаси бўлиб, бири қиши қароргоҳ – Арк ичкарисида, яна бири ёзги қароргоҳ – шаҳар ташқарисида Тозабоғ саройида жойлашган эди. Бу кутубхоналарда ихчам каталоглар тузилган, китобларнинг муқоваларига уларнинг номлари битилган ёрликлар ёпиширилган. Хива хони Ферузнинг асосий мақсади нодир асарлар нусхаларини кўпайтириш орқали кўлёзмаларни асраш эди. Манбашунос Ҳ. Аминовнинг ёзишича, Хива хони Феруз кутубхонаси феҳрист-каталогида қўлёзма ва литографик асарлардан жами 914 жилд китоб баёни келтирилган. Улар 893 асарни ташкил этиб, буларнинг 604 жилди қўлёзма бўлиб, 310 жилди тошбосма нусхалардир.<sup>22</sup>

Адабиётшунос Р. Маҳмудова берган маълумотларига қараганда, Тошкентда биринчи хусусий литографик матбаа С. И. Лахтин матбааси бўлиб, у 1877 йили очилган. Бу босмахона рус тилидаги китоблар билан бирга маҳаллий тиллардаги китобларни ҳам нашр қилган. Тошкентдаги йирик матбаалардан яна бири – О. А. Порцев матбааси 1888йили ташкил топган. Унинг чиқарган китоблари анча сифатли бўлиб, қофози ва муқоваларига алоҳида эътибор берилган. В. М. Ильин матбааси эса 1893 йили ташкил топган, унда ўзбек адабиёти тарихига оид кўпгина китоблар босилиб чиқарилган.<sup>23</sup>

Самарқанд, Бухоро, Кўқон, Андижон, Марғилон каби шаҳарларда кейинчалик ривож топган матбаалар ўзаро бир-биридан кескин фарқланмайди. Лекин шунга қарамай уларнинг айрим томонлари, жумладан, нашр этиш техникаси ва сифати, асосан чоп этган асарлари мавзу кўлами билан турлича бўлган.

XIX асрнинг охири – XX асрнинг бошидаги тошбосма нусха тайёрлаш жараёнида олиб борилган амалий ишлар ўзбек матншунослиги ривожланиш тарихида ҳақли равишда муҳим ўрин эгаллайди.

Алишер Навоий “Хамса” асари насрый баёни 1908 йили Тошкентда нашр этилган эди. “Насри “Хамса”и беназир” деб номланган бу китобнинг котиби Раҳматуллоҳ Абдушукур ўғлидир. Мулло Мир Маҳдум ибн Шоҳюнус китобга ноширлик қилган. Эътиборлиси, М. Ҳакимов тўғри таъкидлаганидек, агар ўша вақтдаги ноширларнинг Навоий асарларидан жуда яхши хабардор бўлганлигини назарда тутсак, “Хамса” достонлари насрый вариантини ноширнинг ўзи – Мирмаҳдум ибн Шоҳюнус тайёрлаган.<sup>24</sup>

Ўзбек матншунослигининг ўтган аср аввалидаги ривожи шу билан яна аҳамиятлики, бу даврда амалга оширилган ишлар кейинги матншунослик ишлари учун таянч манба бўлди. Жумладан, П. Шамсиев Алишер Навоий “Хамса” асари илмий-танқидий матнини тузишда олти асос қўлёзмадан ташқари асарнинг 1880 йилдаги Хива литографик нусхасига ҳам мурожаат этганлигини ёзади.<sup>25</sup>

<sup>22</sup> Қаранг: Эркинов А., Полвонов Н., Аминов Ҳ. Муҳаммад Раҳимхон II – Феруз кутубхонаси феҳрести. – Т. :“Янги аср авлоди”, 2010. – Б.38.

<sup>23</sup> Қаранг: Маҳмудова Р. Ўзбекистондаги тошбосма матбааларда Навоий асарларининг нашр этилиши тарихидан//Адабий мерос, 1968, № 1. – Б.99.

<sup>24</sup> Қаранг: Ҳакимов М. Алишер Навоий асарларини қўчирган хаттотлар. – Т.: Фан, 1991. – Б. 40.

<sup>25</sup> Шамсиев П. Ўзбек матншунослигига оид тадқиқотлар. . – Т. : Фан, 1986. – Б.34.

Адабиётшунос ва хаттот Ашурали Зоҳирий томонидан Навоий асарларининг баъзилари нашрга тайёрланган. У Навоийнинг “Муҳокамат ул-луғатайн”, “Вақфия” асарлари устида изланишлар олиб борган ва бу асарларни тошбосма нашрга тайёрлайди. “Муҳокамат ул-луғатайн” асари Кўқонда Вайнер матбаасида 1336/1917 йили чоп этилади. Бу литографик нашр асарнинг тўлиқ матнини бермайди. Асар матнида хатоликлар ва эркин тузатишларга йўл қўйилган. Аммо кейинги “Муҳокамат ул-луғатайн” асари солиштирма матнини яратишида матншунослар А. Усмонов ва П. Шамсиев бу нашрдан керакли ўринларда фойдаланишган.<sup>26</sup> Матншунослар Париж(1841) нашрини асос қилиб олиб, Истанбул(1895) ва Кўқон(1917) литографик нашрлари билан солиштириб, уларда учраган хато, тушиб қолган ўринларни тўла равишда кўрсатишга ҳаракат қилишган. Сўз ва жумлалардаги фарқлар илмий аппаратда кўрсатилган.

Тошбосма нашрлар ўзбек матншунослиги ривожланишининг муҳим босқичи ҳисобланади. Тошбосма нашрлар одатда бир нечта қўлёзма нусхалар асосида тайёрланган. Уларнинг титул варагида нашр биографияси билан боғлиқ маълумотлар берилган, дебочадаги маҳсус сўзбошилар мазкур асар бўйича дастлабки матншунослик тадқиқини ўз ичига олган. Мана шу жараёнда ўзбек матншунослиги ривожланди ва ўзининг тадқиқот усусларини ишлаб чиқди. Шароит талабидан котиб, ношир, муҳаррирлар, ўз вазифалари билан бирга матн тузиш ишларига тааллуқли бўлган услубий қўлланмаларни амалиётда жорий этишди. Нисбатан нашрнинг тўла ва мукаммал рўёбга чиқишини таъминлашга бўлган интилиш ўзбек матншунослигига муҳим ривожланиш босқичи бўлди.

Тарихчи Э. Охунжоновнинг қайд этишича, XIX аср иккинчи ярми – XX асрнинг дастлабки йигирма йилида шахсий кутубхоналарнинг катта қисмини осори атиқага айланиб бораётган ўрта асрлар қўлёзма китоблари ташкил этарди.<sup>27</sup> Шахсий кутубхоналар нодир асарларнинг бизгача етиб келишида катта хизмат кўрсатди. Жумладан, Туркистон жадидчилик ҳаракати етакчиларидан бири Маҳмудхўжа Беҳбудий фан, санъат, маданият билан бирга, кутубхоначилик, ноширлик ривожига ҳамда оддий халқ ўртасида илмий билимларни тарқатиш ишига улкан ҳисса қўшди. У 1913 йили ўз хусусий нашриёти – “Нашриёти Беҳбудия”ни ташкил этади. Айни вақтда Беҳбудий китоб дўконлари тармогини ташкил этиш бўйича катта иш олиб борди. У Тошкент, Самарқанд, Бухоро, Андижон, Кўқон ва Намангандаги дўконлари очади.<sup>28</sup> Маърифатпарвар Беҳбудий нашрга тайёрланаётган асар матнига нисбатан жуда масъулиятли бўлган. Ҳатто у “Нашриёти Беҳбудия” учун баъзи асарларнинг матнини текширган, керакли жойларини таҳrir этган.

Адабиётшунос олим А. Ҳайитметов ўзбек матншунослиги ривожланиши хусусида сўз юритаркан, шуларни ёзади: “Бизда матншуносликнинг тараққиёти матншунос олимлар номи билангина боғлиқ эмас. Биринчи манбалар устида

<sup>26</sup> Қаранг: Әлишер Navaiy. Muhabamatul luojatain. –Т.:Goslitizdat, 1940.

<sup>27</sup> Қаранг: Охунжонов Э. Ватан кутубхоначилиги тарихи. 2-кисм. Дарслик. – Т. : Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2008. – Б.23.

<sup>28</sup> Қаранг: Охунжонов Э. Ватан кутубхоначилиги тарихи. 2-кисм. Дарслик. – Т. : Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2008. – Б.23.

илмий-тадқиқот олиб борувчи қўпгина адабиётшунослар ҳам, асосий касбиға кўра матншунос бўлмаса ҳам, текстологик текшириш ишлари олиб боришга мажбур бўлган ва бу соҳада муҳим вазифаларни амалга ошириб, текстология ривожига ўз ҳиссаларини қўшганлар”<sup>29</sup>.

Адабиётшунос Вадуд Маҳмуд, Фитрат, Мунавварқори Абдурашидхонов, Абдураҳмон Саъдий, Садриддин Айний, Ҳоди Зариф кабилар мумтоз адабиёт вакиллари ижодини илмий муомалага олиб чиқиш ва ҳалқни маданий мерос билан таништиришда қатор вазифаларни бажаришди. Масалан, адабиётшунос, шоир, публицист Вадуд Маҳмудни тўла маънода матншунос дея олмаймиз. Лекин у илмий мақолалари, жумладан, “Навоийгача турк адабиёти”, “Алишер Навоий”, “Фузулий Бағдодий” каби ишларида қўлёзма ва тошбосма нусхалардан “мисқоллаб йиққан фактлари билан Алишер Навоий ва Фузулий ҳаёти ва ижодини муҳтасар ёритиб беради”<sup>30</sup>.

Абдурауф Фитрат ўзбек адабий танқидчилик, манбашунослик ва матншунослик соҳаси тарихида ўзига хос мавкеига эга бўлган шахсdir. Унинг илмий-танқидий мақолалари, нашр эттирган китоблари матншунослик ишлари билан дахлдор ҳисобланади. Ҳусусан, Фитрат ёзма ёдгорликларнинг нашрга тайёрланишига принципиал ёндашади. У бугунги кунгача ўз аҳамиятни ўқотмай келаётган “Адабиёт қоидалари”(1926), “Энг эски турк адабиёти намуналари”(1927),<sup>31</sup> “Ўзбек адабиёти намуналари”(1928)<sup>32</sup> китоблари материалларини айнан қўлёзма манбалар асосида тайёрлаган. Фитрат Навоийнинг асарлари манбаларни ўрганишга алоҳида эътибор билан қаратган. Қўлёзма манбаларни нашрга тайёрлаш, ҳусусан, мумтоз шоирлар ижодидан намуналар жамлаб, чоп эттириш матншуносликка оид изланишлар олиб борилганлигини кўрсатади.

Ўтган асрнинг 50 – 60-йилларида қўлёзма манбаларни ўрганиш ва нашрга тайёрлаш давр сиёсий талаби ҳам эди. 1957 йили Тошкентда ўтказилган шарқшуносларнинг Бутуниттифоқ биринчи конференцияси ўтказилади. Шу конференцияда иштирок этган давлат раҳбари Н. А. Муҳиддиновнинг нутқида шундай сўзларни ўқиймиз: “Афсуски, биз ўрта аср Шарқининг кўзга кўринган фан ва маданият арбоблари асарларини жуда секин нашр этмоқдамиз. Республика хукуматининг Алишер Навоий асарларининг тўла тўпламини нашр этиш тўғрисидаги қарори суст бажарилмоқда”<sup>33</sup>. Бу даврда нафақат Навоий асарлари, балки кўплаб мумтоз адабиёт вакиллари асарларини нашр эттиришга эътибор кўчаяди. Шунинг учун ҳам баъзи асарлар мукаммал ўрганилди,

29 Ҳайитметов А. Матншунослик муаммолари// Шарқ юлдузи, 1982, № 3. – Б.168.

<sup>30</sup> Баходир Карим. Жадид мунакқиди Вадуд Маҳмуд. – Т. : Университет, 2000. – Б. 65.

<sup>31</sup> Энг эски турк адабиёти намуналари. Тузувчи Фитрат. ЎзР ФА Шарқшунослик институти, тошбосма, инв. № 16507.

<sup>32</sup> Ўзбек адабиёти намуналари. I жилд. Тузувчи Фитрат. ЎзР ФА Шарқшунослик институти, тошбосма, инв. № 15146, 12639.

<sup>33</sup> Муҳиддинов Н. А. Совет шарқшунослигининг янги мувоффакиятлари сари. Тошкент шахрида шарқшуносларнинг Бутуниттифоқ биринчи конференциясида сўзлаган нутқи. – Т. : “Қизил Ўзбекистон”, “Правда Востока” ва “Ўзбекистони сурх” бирлашган нашриёти, 1957. – Б. 35.

баъзилари эса тўла тадқиқ этилмаса-да, илмий-оммабоп шаклда халқимизга етказилди.

1959 йили “Ўзбек адабиёти”(хрестоматия ўрнида) 4 жилдли китоб нашри ўзбек мумтоз адабиёти тарихидаги ўқилмаган саҳифаларни ўқиш, ҳаёти ва ижоди ўрганилмай қолган ижодкорларни кашф этиб, уларнинг асарлари нусхаларини аниқлашга ёрдам берадиган муҳим манба бўлди. Бу китобда асосан йиғилган янги материаллар эълон этилади, шоирлар ижодини ёритишида асосий жиҳатлар белгиланди.

“Хамса” Навоийнинг энг кўп тарқалган асари бўлиб, унинг яхлит бир китоб бўлиб нашр этилиши ҳамда мукаммал матнининг яратилиши навоийшунос, матншунос Порсо Шамсиев олиб борган илмий изланишлар натижаси билан боғланади. П. Шамсиев 1956 йили “Сабъаи сайёр”,<sup>34</sup> 1963 йили “Фарҳод ва Ширин”<sup>35</sup> достонлари илмий-танқидий матнини тайёрлайди. Ҳар иккала достон матнларини тузишда таянч нусха учун Навоий ҳаётлигига машхур бўлган хаттот Абдулжамил томонидан кўчирилган қўлёзма олинган. Илмий-танқидий матн тузиш учун Султон Али Машҳадий қаламига мансуб эътиборли нусха, XVI асрга оид яна бир қўлёзма асос нусха сифатида жалб этилган. Булардан ташқари, назорат нусхалар сифатида асарнинг тошбосма нашрлари ҳам олинган. Матншунос муаллиф таҳририга яқин матнга эга бўлиш мақсадида жуда кўплаб нусхаларни ўзаро солиширган. 1959-1960 йили “Хамса” асарининг бир китобдаги академик нашри амалга оширилди.<sup>36</sup>

Навоий асарлари илмий-танқидий матнларини яратиш борасидаги дастлабки ишлар 60-йилларга келиб қатор танқидий матнларнинг савияси яхшиланишига олиб келди. Хусусан, 1965 йили “Лисон ут-тайр” асари илмий-танқидий матни Шарофиддин Эшонхўжаев томонидан тайёрланди.<sup>37</sup> Матншунос Навоий асарлари илмий-танқидий матнлари яратиш тажрибаларининг деярли барчасини эътиборда тутади ва ўзининг тадқиқотида улардан унумли фойдаланишга ҳаракат қиласди.

Навоий асарларининг баъзи илмий-танқидий матнлари тузилган бўлишига қарамай, алоҳида китоб шаклида нашр этилмасдан қолган. Жумладан, “Тарихи мулуки Ажам” асари илмий-танқидий матни Латиф Халилов томонидан тузилган, аммо эски ўзбек ёзувидаги нашр этилмаган. Л. Халиловнинг ёзишича, “Тарихи мулуки Ажам” илмий-танқидий матнини тузишда 16 қўлёзма ва тошбосма нусхалар мавжудлиги аниқланган, улардан бештаси асос нусха сифатида танлаб олинган. Асос нусхалардан Ленинграддаги Салтиков-Шчедрин номидаги давлат кутубхонасида 558-инвентар раками билан сакланаётган куллиёт таркибидаги XVI аср охирларида кўчирилган нусха матннинг тўлиқлиги ва нисбатан қадимий бўлганили туфайли таянч нусха сифатида қабул қилинган.<sup>38</sup>

<sup>34</sup> Алишер Навоий. Хамса. Сабъаи сайёр. –Т.: ЎзССР ФА нашриёти, 1956.

<sup>35</sup> Алишер Навоий. Хамса. Фарҳод ва Ширин.–Т.: ЎзССР ФА нашриёти, 1963.

<sup>36</sup> Алишер Навоий. Хамса. Нашрга тайёрловчи П. Шамсиев. –Т.: Ўз ССР ФА нашриёти, 1959 – 1960.

<sup>37</sup> Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. Танқидий матн. – Т.: Фан, 1965.

<sup>38</sup> Қаранг: Халилов Л. Алишер Навоийнинг “Тарихи мулуки Ажам” асарининг қўлёзма нусхалари. Навоийга армуғон. Тўплам. –Т.: Фан, 1968. – Б.174–183.

Л. Халилов деярли барча асос нусхаларни матнини түрли томондан ўрганиб чиқишига ҳаракат этган. Хусусан, матншунос баъзи котибларнинг ўзбошимчалик билан асардаги арабча, форсча сўзларни кенг истеъмолда бўлган сўзлар билан алмаштиришга ҳаракат қилганлигини қайд этади. Матншунос бундай ҳолатга танқидий ёндашади ва “бундай қилиш зоҳирان прогрессив ҳаракат кўринса ҳам, аслида асл қўлёзма матнини бузиш ҳисобланади” деб билади. Алишер Навоий 20 жилдлик тўла асарлар тўплами учун “Тарихи мулуки Ажам” ва “Тарихи анбиё ва хукамо” асарларининг Л. Халилов томонидан тайёрлаган матнлари қабул қилинди. Буларнинг барчаси ўзбек матншунослик илмий мактаби тажрибаларининг ривожи ва токомиллашиб борганлигини кўрсатади.

Ўзбек матншунослиги ривожида бу даврнинг ўзига хос яна бир аҳамияти, илмий-танқидий матн яратишнинг назарий-илмий методларига оид фикр-мулоҳазалар, кўрсатмалар, қоидалар акс этган илмий-тадқиқотларнинг яратилиши ҳисобланади. Жумладан, С. Муталлибов 1944 йили “Ҳайрат ул-аброр”нинг танқидий матни мавзууда номзодлик, 1952 йили П. Шамсиев “Алишер Навоийнинг “Сабъай сайёр” достонининг илмий-танқидий матни ва уни тузиш принциплари” номли номзодлик, 1970 йили “Алишер Навоийнинг “Хамса”сининг илмий-танқидий тексти ва уни тайёрлаш принциплари” номли докторлик, Ҳ. Сулаймонов 1961 йили “Алишер Навоий лирикасининг текстологик ўрганилиши” номли докторлик, С. Фаниева 1956 йили “Мажолис уннафоис”нинг III ва IV мажлислари илмий-танқидий матни ва адабий таҳлили” мавзууда номзодлик, Л. Халилов 1975 йили “Алишер Навоийнинг “Тарихи мулуки Ажам” асарининг текстологик тадқиқи” мавзууда номзодлик диссертациясини ёқлаган.

Матншуносликнинг ушбу ривожланиш босқичида илмий-танқидий матн тайёрлашнинг назарий жиҳатлари ҳам ишлаб чиқилди. Агар ўтган асрнинг 40-йиллари Алишер Навоий асарларининг йиғма-матни таянч нусха асосида тўғридан-тўғри кўчирилиб, қиёс учун танланган асос нусхалар фарқи илмий-танқидий матн тузишда бошқачароқ принципни танлади. Яъни, кейинги давр матншунослари илмий-танқидий матнни тузишда таянч нусха матнини қиёсий ўрганди, танқидий мулоҳаза билан матн тузди. Навоий асарлари нашри ўзбек матншунослиги илмий-назарий тараққиётининг энг юқори босқичини бошлаб берди. Ўзбек матншунослик мактаби яратган анъанавий принциплар кейинги тадқиқотларнинг токомиллашувига замин яратади.

Умуман, ўзбек матншунослиги ривожланишининг муҳим босқичларини шундай санаш мумкин:

туркий тиллар генезиси билан боғлиқ қадим манбаларнинг ҳар томонлама ўрганилиш даври” (Матншунослигимизнинг ривожланиш тарихи “матншунослик” деган термин муомалага киришидан анча олдин туркий халқларнинг Ўрхун-Энасой ёзуви билан бирга уйғур алифбосида ифодаланган матнларнинг юзага келиш даврларидан бошланган);

Туронзамин ерларининг Ислом олами томонидан фатҳ қилиниши, ёзув турларининг

кенг кўлланиши билан бирга китобатчилик санъатининг ривожланиши (VII–VIII асрлар);

тошбосма нашрларнинг вужудга келиш даври (XIX аср);

жадидчилик ҳаракати даври (XIX асрнинг охири – XX асрнинг боши, Фитрат фаолияти);

Алишер Навоий асарлари матнини ўрганиш даври (XX асрнинг 40-йилларидан бошлаб)

- мустақиллик йилларида матншуносликнинг долзарб муаммоларига эътиборнинг кучайиши (вақтли матбуот мақолалари).

### **Раҳбарий адабиётлар**

1. Ўзбекистон Республикаси биринчи Президентининг 2016 йил13 майдаги ПФ-4797-сон Фармони.
5. Каримов И.А. “Она юртимиз бахту иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатдир”. – Тошкент, “Ўзбекистон”, 2015.
6. Каримов И.А. “Бетакроримсан, ягонасан она Ватаним – Ўзбекистоним” Мустақилликнинг 24 йиллигига бағишланган маъруза. Халқ сўзи, 2015 йил 1 сентябрь.
7. Каримов И.А. “Ягонамсан муқаддассан, Ватаним, севги ва садоқатим сенга бахшида, гўзал Ўзбекистоним” Мустақилликнинг 23 йиллигига бағишланган маъруза. Халқ сўзи, 2014 йил 1 сентябрь.
8. Каримов И.А. Асарлар тўплами. 1-21 жиллар. – Тошкент, “Ўзбекистон”, 1996-2013.
9. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент, “Маънавият”, 2008.Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ // Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурамиз. 7-том. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998. –Б.132-155.
10. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008, – 1766.
11. Каримов И.А. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. – Тошкент: Ўзбекистон, 2010. – 406.
12. Каримов И.“Ёшлиримиз – халқимизнинг ишончи ва таянчи”,Т.: Маънавият, 2006. –946.

### **Асосий адабиётлар**

1. Лихачев Д.С. Текстология. –М.-Л.: АНС. 1962.
2. Ш.Сирохиддинов, С.Умарова. Ўзбек матншунослиги қирралари. –Т.: “Akademnashr”. 2015. 122 б.
3. Зуфаров Т. Хат таълими. –Т.: Meriyus, 2010..

### **Кўшимча адабиётлар**

29. Алишер Навоий. Ҳайрат-ул-абор. Илмий танқидий матн. (Тузувчи: Порсо Шамсиев), –Т.: Фан, 1970.

30. Зоҳидов Р. Саботул ожизин – илмий-адабий манба. – Т.: Muharrir, 2012.
31. Исломов М. Ҳужжатшунослик ва Марказий Осиё дипломатикаси. Ўқув қўлланма. – Т.: Akademnashr, 2010.
32. Исҳоқов Ф. Гулханийнинг “Зарбулмасал” асари. Т.: “Фан”, 1976.
33. Йўлдошев Иброҳим. Ўзбек китобатчилик терминологияси. – Т.: Фан, 2004.
34. Каталог фонда института рукописей. 1 том. – Т.: Фан, 1989.
35. Каюмов А., Хасанов Б. Жемчужины мудрости и тайны «семи морей». – Т.: Издательство народного наследия им. Абдуллы Кадыри, 2002.
36. Комилов Н. Бу қадимий санъат... Т.: Faafur Gulom nomidagi adabiёт va san'yat nashriёti, 1987.
37. Муниров Қ. Бебаҳо хазина. – Т.: Imom al-Buxorij xalqaro jamgarmasi, 2002.
38. Муниров Қ. Хоразмда тарихнавислик. – Т.: Faafur Gulom nomidagi Adabiёт va san'yat nashriёti, 2002.
39. Муродов А. Ўрта Осиё хаттотлик санъатитарихидан. – Т.: Фан, 1971.
40. Навоий асарлари луғати (тузувчилар: П. Шамсиев, С.Иброҳимов). – Т.: Faafur Gulom nomidagi adabiёт va san'yat nashriёti, 1972.
41. Навоий дастхати. (Наводирун-ниҳоя). Нашрга тайёрловчи, сўзбоши муаллифи С. Фаниева. – Т.: Фан, 1991.
42. Правила подготовки к изданию памятников литературы Востока.–М.: ИВЛ, 1959.
43. Раҳмонқулова М. ЎзМУ кутубхонасидаги Шарқ қўлёзмалари каталоги. – Т.: IPTD O'zbekiston, – 2007.
44. Рустамий А. Адиблар одобидан адаблар. – Т.: Маънавият, 2003.
45. Сирожиддинов Ш. XV–XVI асрлар тарихий ва тазкира-эсдалик асарларида Алишер Навоий ҳаёти ва фаолияти талқини. – Самарқанд: Зарафшон, 1997.
46. Султонов И. Навоийнинг “Мезонул-авзони” ва унинг критик тексти: филол.фан.ном.дисс . – Т.: Асосий кутубхона. РД/1, 1947

### Электрон манбалар

47. [www.ziyo-net.uz](http://www.ziyo-net.uz)
48. [www.literature.uz](http://www.literature.uz)
49. [www.kutubxona.uz](http://www.kutubxona.uz)
50. <http://textshare.tsx.org>
51. <http://www.mgimo.ru/fileserver/>

## **Мустақил таълим мавзулари**

1. Туркистонда матбаачилик тарихи тарихи.
2. Хива хонлигидаги кутубхоналар.
3. Жадидларнинг матншунослик фаолияти.
4. Матншунослик муаммолари.

## **Глоссарийлар**

**Пиктографик ёзув** – ўз рамзий тимсолига эга ҳар бир сўзниң предметни тўғридан-тўғри расм орқали кўрсатиши.

**Идеографик ёзув** – сўзниң маъносининг тушунча орқали ифодаланиши. **Иероглифик ёзув** – логографик ёзувнинг ривожланган, мукаммал кўриниши.

**Литография** (тошбосма) – ясси чоп этиш, яъни матн олдиндан қоғоз варагига битилган ва тош шаклга тескариси туширилган аксдан нусха кўчириш усули. Тошбосма усулда дастлабки, асосий ишни хаттот бажарган. Хаттот босиладиган китобнинг матнини маҳсус қоғозга кўчирган. Бу қоғоздаги матн тош қолип сиртига ўтказилган ва унга кимёвий ишлов берилган. Сўнгра ана шу тош қолиплардан нусхалар олинган. Хаттот тошбосмага матн кўчирганда асосан настаълиқ хатидан фойдаланган.

**Михбосма** (типографик) – мих шаклидаги металл ҳарфларни қўлда териш орқали китоб босилиши. Бунда араб ёзувининг насх ёзувидан кенг фойдаланилган.

**Эпитафия** – қабртошга ёзилган битик (адабиётда тўпламдан жой олган мўъжаз шеър).

**2-Mavzu:** Nashr turlari (ilmiy-tanqidiy matn, yig'ma-qiyosiy matn, faksimile nashr, ilmiy-ommaviy nashr).

O'zbek matnshunosligining ildizi teran. Turkiy tilda matn tuzish an'analarini yuzaga kelibdiki, uning bilan izma-iz matn bilimi (matnshunoslik) ham eviga kela boshlagan; matn tuzishning yo'l-yo'riqlari, printsiplari va nazariy asoslari ishlab chiqilib, fan sifatida yuzaga kelgan edi.

O'zbek matnshunosligi o'zining tarixiy taraqqiyoti davomida bir qancha yuksaluv bosqichini kechirdi. Ilkin bosqichi VI–VIII yuzyilliklarga to'g'ri keladi. Uning izlarini, matnga ilmiy munosabat, tayanch hamda asosli matn tuzish borasida to'plangan bilim va tajribalarning amaldagi tadbiqini xoqonlar, davlat arboblari, sarkardalar xotirasiga bitilgan ko'hna monumental matnlarda — ko'k turk bitiglarida kuzatamiz. Ko'k turk bitiglari o'tganlarning xotirasiga tiklangan yodgorliklar bo'luviga qaramay, ularda matn tuzishning aniq printsiplari ishlab chiqilgan edi. Qiziq bir hodisa: adib va tarixchi Yo'llug' tigin 732 yili, otasining topshirig'iga ko'ra, amakisi Kul tigin xotirasiga atab bitig yozgan. Oradan ko'p o'tmay, 735 yili o'z otasi Bilga xoqon xotirasiga atab o'rnatilgan bitigni yozishda ham xuddi o'sha yo'lni tutgan: hatto bиринчи bitigdag'i matnning katta bir bo'lagini olib, uni tahrir qilib, ikkinchi bitigga ham kiritgan. Yo'llug' tiginning matnshunoslikdagi yutuqlaridan biri shunda ediki, u tarixiy matn tuzish printsiplarini ishlab chiqdi. Ulug' adib boshlab bergen an'ana keyingi davrlarda ham davom etdi.

Matnshunoslik tarixida temuriylar davri katta bir yuksalish bosqichi sanaladi. Bu davrda o'zbek matnshunosligida klassik asarlarni o'rganish va ularning tayanch nusxalarini yaratish borasida katta yutuqlarga erishildi. Matnshunoslik tarixida ilmiy-tanqidiy matn tuzish tamoyillari ana shu kezlari ishlab chiqildi. Bunga Boysung'ur mirzo qo'l ostida Firdavsiy "Shohnoma"sining tanqidiy matni yaratilganligi o'rnatilgan bo'la oladi. Matn so'zboshisini ham Boysung'urning o'zi yozgan edi. Yoki Xo'ja Arslonxon qo'l ostida, uning ko'rsatmasi bilan Adib Ahmad Yugnakiy qalamiga tegishli "Hibat ul-haqoyiq" asarining yig'ma matni yaratildi. Ushbu tayanch matnni 1444 yili Samar qandda Zaynulobidin baxshi uyg'ur xatida tuzib chiqqan. Asarning qolgan nusxalari esa ushbu tayanch matn asosida yaratilgan.

O'tmish matnshunosligining diqqatga sazovor muhim belgisi — an'anaviylik va uzuksizlik, shu sohada to'plangan bilim va ko'nikmalar amalda qo'llab kelingani bilan o'lchanadi.

Hozirgi zamон matnshunosligi o'tgan asrning 30-yillardagi suronli davrlardan keyin yangidan, aytish mumkinki, yo'q yerda bo'y ko'rsatdi. Shunday esa-da, oz fursatda fanning ilg'or yutuqlarini egallab, katta mavqega ko'tarilib ulgurdi.

Matnshunosligimizda o'tgan davr ichida katta ishlar amalga oshdi. Quvonarlisi,

hozirgi o'zbek matnshunosligi, ayrim yo'nalishlarda, amaliy sohalarda, arab yozuvli manbalarni o'rganishda yetakchi o'rinda turadi. Biroq matnshunosligimiz bu yutuqlarda to'xtab qolmasligi, har qachon ham dunyodagi ilg'or o'rirlarni egallamog'i kerak. Eski va boy yozma merosga ega bo'lgan xalqning matn bilimi ham shunga yarasha bo'lmog'i lozim. Tinimsiz izlanishlar, hozirgi zamon matnshunosligining ilg'or yutuqlariga tayanilgan bilim va tajribalargina soha kelajagiga yo'l ochadi. Buning uchun, bizningcha, quyidagi jihatlarga e'tibor qaratilgani ma'qul.

O'zbek matnshunosligi deganda faqat arab yozuvidagi qo'lyozma manbalarni o'rganish tushunilmasligi kerak. Uning qamrovi nihoyatda keng: bunga ko'k turk yozuvidagi bitiglardan tortib uyg'ur, moniy va islomdan burungi davrlarda boshqa yozuvlarda yaratilgan matnlarni o'rganish ishlari ham kiradi. Shunday ekan, otabobolarimiz islomdan burungi davrlarda yaratgan bitiglarni o'rganish, ularning ilmiy nashrlarini yaratish ham muhim ishlardan sanaladi. Afsuski, bu yo'nalishda bitiglar ustida ish olib borayotgan, asl bitiglarni o'qib, ular bo'yicha ilmiy-tadqiqot yaratayotgan olimlarimiz barmoq bilan sanarli.

Eski zamonalarda O'rta Osiyo o'lkalarida qadimgi xorazmiy, sug'd, forsiy, arab tillarida yaratilgan manbalarni o'rganish, ularning ilmiy nashrlarini, tarjimalarini yaratish ham o'zbek matnshunosligining vazifasiga kiradi. Bu yo'nalishda matnshunoslikda ko'zga tashlanadigan ishlar yaratildi.

O'zbek matnshunosligining oqsayotgan jihatlari ham oz emas. Bu kamchiliklar, ayniqsa, ilmiy matnlar yaratish jarayonida yaqqol ko'zga tashlanadi. Shularning biri, ilmiy transkriptsiya masalasıdir. Mutaxassislarga ayon, ilmiy yoki ilmiy-tanqidiy matn tuzishda eng to'g'ri va ishonchli yo'l — matn asli qanday yozuvda bo'lsa, uni o'sha yozuvida berishdir. Masalan, arab yozuvli asarning ilmiy matni ham arab yozuvida bo'lgani yaxshi. Lekin har qachon ham, ayniqsa, qadimgi ko'k turk, uyg'ur, moniy yozuvlaridagi bitiglarning ilmiy nashrida buning imkonи topilavermaydi. Tugunning yechimi uchun ilmiy transkriptsiyaga murojaat qilinadi.

Yevropa matnshunosligida ilmiy transkriptsiya allaqachon yaxshi egallangan. Ayonki, fanda ilmiy transkriptsiyada tayyorlangan matnning mavqeい, qadri har qachon yuqori turadi. Transkription nashrlar ilmiy qarashlarning yaqinlashuviga, intellekt rivojiga yo'l ochadi. Biz esa, har qanday yozma merosning ilmiy nashri transkriptsiyada bo'luvi kerakligini tushunib yetmagandekmiz. Nashrlarimizda, hatto sof ilmiy ishlarda, doktorlik va nomzodlik ishlarida ham ilmiy transkriptsiyaga ko'pda amal qilinmayapti. Sovuqqonligimiz yaratgan ishlarimizning dunyo darajasiga ko'tariluviga yo'l bermayapti, ba'zida. Bu hol bir kun kelib boshqa tadqiqotlarning yo'lini to'sib qo'yishi ham mumkin. Jo'ngina bir misol. Til tarixida "olov" ma'nosidagi o't bilan "o'tmak" (fe'l) ma'nosidagi o't, yoki "yuqori o'rinn" ma'nosidagi to'r bilan "tuzoq"

ma'nosidagi *to 'r* so'zlari bir-biri bilan omonim emas, butunlay o'zga so'zlardir. Ularning talaffuzi ham farq qilgan: biri ingichka talaffuz etilsa, ikkinchisi yo'g'on o'zaklidir. Hozirgi yozuvga o'girayotgan matnshunos, tabiiyki, ularni *o 't* hamda *to 'r* shaklida beradi. Mabodo siz matndagi so'zlarning sanog'ini bilish uchun kompyuterga kirlitsangiz, kompyuter so'zlarning yozilishiga qarab, ularni qorishtirib yuboradi, so'zlarni xato hisoblab chiqadi. Bu esa tarixiylikka zid (Buni o'zimizcha *to 'qib* emas, hozirgacha yaratilgan ayrim ishlar misolida aytmoadamiz). Shu yo'ldan boriladigan bo'lsa, qanchadan-qancha so'zlarni boy beramiz. Transkriptsiyaga amal qilmaslik oqibatida kelib chiqayotgan shu va shunga o'xhash salbiy holatlar bir dunyo.

Ilmiy transkriptsiyaning foydasi katta: u matn tilini yaxshi aks ettiradi; matn talqinini yengillashtiradi. Matnni ishonchli manbaga aylantirib, u asosida yaratilajak boshqa tadqiqotlarga keng yo'l ochadi. Qolaversa, uning chet ellardagi ana shu soha mutaxassislari uchun ham tushunarli bo'luvini ta'minlaydi.

Asarning ilmiy matnnini tayyorlash nihoyatda murakkab jarayon. Ilmiy matn yaratishda, ayniqsa, ilmiy-tanqidiy matn tuzishda ba'zan salbiy holatlarga yo'l qo'yish hech gap emas. Tabiiyki, har qanday olim matnga o'zi bilganicha yondashadi. Shunga ko'ra ham yaratilgan har qanday ilmiy-tanqidiy matn nisbiyidir. Matnshunos asarning ikki qo'lyozmasini solishtirib, o'zining talqiniga ishonib, to'g'risi shunday bo'lsa kerak, degan o'y-xayolda uchinchi bir yasama matnni yaratib qo'ymasligi kerak.

Ilmiy matn tuzishda eng to'g'ri va ishonchli yo'l asarning turli qo'lyozmalariga asoslanib, uning yig'ma-qiyosiy matnnini yaratishdir. Matnshunos barcha ilmiy qoidalarga asoslanib, ana shunday ilmiy matnni yarata olsa, sohada qalqish bo'ladi. Ushbu matn asosida boshqa tadqiqotchilar o'z ishlarini yarata oladilar.

O'tmish matnchiligining muhim belgilaridan biri shundaki, matn bitguchilar, o'qimishlilar matn mazmuniga, uning tuzilishi, uslubiga jiddiy e'tibor qaratib kelganlar. Matn tuzish jarayonida o'zlaridan avval to'plangan bilim va tajribalarga, klassik an'analarga izchil amal qilingan. Qay zamonda ko'chirilishidan qat'i nazar, matnni aslidek saqlash kotiblarning burchi sanalgan. O'tmish Sharq matn tuzish amaliyotida yozuvga, matnga hurmat doimo yuqori edi. Yozma merosni o'rganishda buning singari qoidalar e'tibordan chetda qolmasligi kerak.

Bizga qadar saqlanib qolgan yozma yodgorliklar, bitiglar turlicha munosabatni taqozo etadi. Ayrim matnlar bir yoki ikki nusxada yetib kelgan, ayrimlarining esa qo'lyozma nusxalari ko'p. Ba'zi matnlardan bir varaq yoki kichik bir uzindi saqlangan, xolos. Ayniqsa, buddizm, moniylik davrlaridan qolgan matnlarda bunday holat ko'p uchraydi. Bunga bir misol. Berlin akademiyasining qo'lyozmalar fondida Turfondan topib keltirilgan ko'p sonli yozma yodgorliklar saqlanmoqda. Ular ichida U 0044 soni

ostidagi matn uzindisi bor. U moniylik davrida yaratilgan yirik bir asarning qoldig‘idir. Moniylik davridan saqlangan nasriy asarlar u qadar ko‘p emas. Lekin ushbu uzindi-matnning o‘ziyoq moniylik davri adabiyoti janrlari doirasini kengaytiradi, bizni o‘sha asarlar ustida ham bosh qotirishga undaydi.

Ba’zi hollarda qaysidir tarixiy asarda, tazkirada yoki biror ilmiy manbada keltirilgan qisqa ma’lumot ham yirik ilmiy masalani ochishga yordam beradi.

Bir misol. Alisher Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat” asarida Adib Ahmad hayoti va ijodi to‘g‘risida o‘ta muhim ma’lumotni keltirgan. U mashoyix va adib ijodiga yuksak baho bera turib, uning mavoizidan baytlar keltirgan. Qizig‘i shundaki, “Nasoyim ul-muhabbat”ning fanga ma’lum bo‘lgan qo‘lyozmalarida Navoiy keltirgan baytlarning soni har xil: Sankt-Peterburgda saqlanayotgan qo‘lyozmasida uch bayt, qolgan nusxalarida esa ikki baytdan iborat. Misolini Sankt-Peterburg nusxasidan keltiramiz:

**Ulug‘lar ne bersa, yemasmen dema,**

**Ilik sun, ag‘iz ur, yemasang yema.**

Yana bu ham aningdurkim:

**Tilingni tiya tut, tishing sinmasun,**

**Bu turg‘an xaloyiq senga kulmasun.**

Bu ham aningdurkim:

**So‘ngakka iligdur, eranga bilig,**

**Biligsiz eran-ul iligsiz so‘ngak.**

Mutaxassis e’tiborini tortadigan yeri — uchinchi baytning ikkinchi misrasi qo‘lyozmada *Biligsiz eran-ul so‘ngaksiz ilig* shaklida berilgan va *so‘ngaksiz ilig* birikmasining ostiga *iligsiz so‘ngak*, deb yozib qo‘yilgan. Asarning ilmiy-tanqidiy matnini tuzganda buni baytning ma’nosidan kelib chiqib, *Biligsiz eran-ul iligsiz so‘ngak* shaklida tiklansa to‘g‘ri bo‘ladi.

Yana bir jihat, asarning M. Mirzaahmedova tayyorlagan Toshkent nashrida hamda K. Eraslon tuzgan Istanbul nashrlarida yuqoridaq baytlarning birinchi va uchinchisi keltirilgan, ikkinchisi yo‘q. Chunki ular asoslangan tayanch nusxada shunday.

Yanada muhimi, Navoiy keltirgan baytlarning ikkinchi va uchinchisi Adib Ahmadning “Hibat ul-haqoyiq” asarida bir oz o‘zgargan ko‘rinishda uchraydi. Lekin birinchi bayt asarning bizga ma’lum bo‘lgan tayanch va eng to‘liq nusxasida ham yo‘q. Demak, Navoiy ushbu baytni Adib Ahmadning bizga ma’lum bo‘lmagan pand-nasihat ruhidagi

boshqa bir asaridan olgan. Manbadagi bu misol adabiyotshunoslarimizga yana bir vazifani yuklaydi: Adib Ahmad Yughnakiyning ijodi to‘g‘risida fikr yuritganda o‘sha bizga yetib kelmagan asari ham ko‘zda tutilmog‘i kerak bo‘ladi.

Endi e’tiboringizni “Abushqa” lug‘atida keltirilgan muhim bir ma’lumotga qaratamiz. Lug‘at muallifi klassik ijodkorlarning asarlarida qo‘llanilgan so‘zlar qatorida *sig‘naq* so‘zini tilga oladi. Lug‘atchi so‘z ma’nosini izohlar ekan, u muayyan yozuvning oti ekanligi, Zahiriddin Bobur o‘z g‘azallaridan birida uni tilga olganligini ta’kidlaydi va g‘azalning o‘sha baytini misol keltiradi. Lug‘atda berilishi shunday:

Sig‘naq — bir nav xatdur, Chig‘atoyda xatt-i boburiy va g‘ayri kibi-ke, Bobur mirzo ash’orinda kelur. Bayt:

Xublar xatti nasibing bo‘lmasa, Bobur, ne tong,  
Boburiy xati emasdur, xat-i sig‘naqiy mudur.

Ilk manbada tilga olingan *sig‘naq* istilohi, chamasi, o‘rtalasrlar Sirdaryo bo‘yidagi turk madaniy markazlaridan biri bo‘lgan shahar otiga bog‘lanadi. Ana shu o‘lkada qo‘llanilgan yozuv shunday atalgan bo‘luvi mumkin.

Sig‘naq xatining namunalari hozircha ma’lum emas. U qadimgi turkiy yozuvlardan biri bo‘luvi kerak. Aniqlangunga qadar bu masala ochiq qola tursin. Biroq, nima bo‘lganda ham, bu o‘rinda o‘zbek yozuvi madaniyati tarixidagi unutilgan ikki xat — boburiy va sig‘naq yozuvi to‘g‘risida ma’lumot keltirilmoqda. Biz uchun shunisi muhim. Lug‘atdagi ana shu ma’lumotning o‘zi ham yozuv madaniyati haqidagi bilimlarimiz chegarasini kengaytiradi.

Matnni nashrga tayyorlash jarayonida uning talqini, interpretatsiyasi ham o‘ta jiddiy sanalib, mutaxassisdan katta bilim va teran mushohadani talab etadi. Qadimgi turkiy matnlarni talqin qilish chog‘ida tilning tarixiy taraqqiyoti davomida so‘zlar, birikmalarda kechgan ma’no o‘zgarishlarini, uslubiy o‘lchovlarda yuz bergan farqlarni yodda tutmog‘imiz kerak. Burungi me’yorlar hozirgi o‘lchovlarga to‘g‘ri kelavermaydi. Matnning murakkab uslubi, so‘z ma’nolari ba’zan asarni tadqiq etayotgan mutaxassislarini ham chalg‘itadi. Hozirgi zamon nashrlarida ayrim so‘zlar, so‘z birikmalari, iboralarning xato talqin qilinayotganligining sababi ham shunda. Bunga bir misol keltiramiz.

Qadimgi Budda muhitida yaratilgan “Oltin tusli yorug” asarida og‘a-ini tiginlar qissasi berilgan. O‘sha qissada kichik tiginning bars qarshisiga kelib, o‘zini qurban qilish oldidagi holati tasvir etiladi. O‘sha yerda *bek qatig‘ sav so‘zladi*, degan jumla bor. Buni S.Ye. Malov rus tiliga: “ochen silno(gromko) vosklitsaya, skazal (gromkimi) golosami”, deya tarjima qilgan. Sutraning o‘zbekcha nashrida esa ushbu birikmani “juda qattiq so‘z so‘zladi”, deb beradilar.

Shu o'rinda matnda berilgan birikmaning ma'nosini ko'rib chiqsak. Qadimgi turkiy tilda *sav* — "so'z" degani. Birikmadagi *bek* so'zi "mustahkam, qattiq" ma'nosini beradi, *qatig* 'so'zi ham ayni tushunchada, ularning ikkovi birgalikda, juft so'z ko'rinishida — "o'ta qattiq" ma'nosini anglatadi. Biroq u matnda *sav* so'zining sifati vazifasida qo'llanilgan. Shuning uchun ko'chma ma'noga ega: so'zga nisbatan "yashirin, ko'ngilning tub-tubidagi", degan tushunchani beradi. O'z o'rnida u istilohga aylanmoqda: *bek qatig* 'sav — ko'ngil tubiga yashiringan so'zlar, ya'ni "tilak", "duo"ni bildiradi.

Ana shularga tayanib, talqinda yuqoridagi birikmani "ko'ngil tubidagi so'zlarini so'zladi [ya'ni niyatlarini aytdi; duo qildi, duosini so'zladi]" deya talqin etilgani ma'qul. Matnda shundan keyin kichik tiginning tilagi (duosi) ham o'rin olgan.

Asarning ilmiy matnini tuzish jarayonida asar yaratilgan davr tili, o'sha davr ijtimoiy-siyosiy tarixi to'laligicha inobatga olinmog'i kerak bo'ladi. Aks holda, matnshunos jo'n bir yerda chalg'ishi hech gap emas: o'sha so'zni xato o'qiydi yoki talqinda adashadi. Bunga bir o'rnak keltiramiz.

Shohrux mirzoning yurtga egaligi chog'ida uyg'ur xatida yozdirgan yorliqlaridan biri saqlanib qolgan. Hujjat 1422 yili bitilgan. Uni frantsuz sharqshunosi J. Deni fanga ma'lum qilgan edi; o'qilishi va mazmunini ham birinchi bo'lib shu olim keltirgan. Fanga olib kirilgani va birinchi bor o'qilushi o'z zamoni uchun katta kashfiyot. Lekin kamchiligi bor: o'qilishi va mazmunda ayrim xatolar ketgan. Masalan, olim hujjat boshlamasidagi bir so'zni *to 'yunlarg* 'ako'rinishida o'qib, frantsuzchada Aux moines(bouddigues)(buddaviy rohiblarga), deya talqin etadi. Uning matni va talqini boshqa olimlarni ham chalg'itib qo'ydi. Chunonchi, tarixchi A. Grigorev rasmiy yozmaning boshlamasi to'g'risida fikr bildirib: "Shohrux bitigi "budda rohiblariga" qaratilgan. Biroq matn mazmunidan hujjatda berilayotgan imtiyozlar budda rohibiga emas, musulmon ruhoniyisiga berilganligi ayon bo'ladi. Shuning uchun o'sha kezları "to'yun" istilohi buddaviy ruhoniylardan tashqari, boshqa dinga e'tiqod etuvchi kishilarga nisbatan ham qo'llanilgan bo'luvi mumkin", deb yozgan edi. Asl matnga e'tibor qilinsa, boshqa bir manzara: bu so'zning budda rohiblariga butkul bog'liqligi yo'q: u *to 'yunlarg* 'a emas, *devonlarg* 'a, deb o'qiladi. Bu so'z matn boshlamasining adresati bo'lib, to'lig'i *Shohrux bahodur so 'zum devonlarg* 'a degan murojaatni anglatadi. Matnni ana shunday o'qilganda unga munosabat ham o'zgaradi.

O'zbek matnshunosligrining kelajagi to'g'risida bosh qotirish ham hozirgi olimlar zimmasida. Sohaning kelajagini ta'minlamoq uchun yosh kadrlar tayyorlashga e'tibor bermagimiz, bu sohani yoshartirish yo'lini izlashimiz kerak. Masalaning yechimi oliy o'quv yurtlarida shu sohani chuqur o'qitishdan boshlanadi. Shuning uchun oliy o'quv yurtlarining filologiya va tarix fakultetlarida matnshunoslarni tayyorlashga alohida

e'tibor qaratilmog'i kerak. Bu ish, imkon bo'lsa, bakalavrlik bosqichida boshlangani durust. Magistratura bosqichida esa talaba bu sohani ancha egallab oladi.

Bu borada Toshkent davlat sharqshunoslik institutida katta ishlar qilinmoqda. Mumtoz filologiya yo'nalishida bakalavrlik bosqichidan boshlab talabalarga ko'k turk, uyg'ur, arab yozuvidagi manbalar, ular ustida ishlash, uning yo'l-yo'riqlari o'rgatilmoqda.

Shuning bilan birga, institutda arab va forsiy manbalarni o'rganish ustida ham jiddiy ishlar amalga oshirilmoqda. Muhimi, yoshlarning o'zi bu sohani qiziqib o'rganayotir. Institutda ekanligi chog'ida Sharq qo'lyozmalarini, eski bitiglarni o'qib, uning ichiga kirib, ko'zi pishgan yoshlardan kelgusida yaxshi ishlarni kutsa bo'ladi.

### **3- Mavzu:** Manba va matnlarni klassifikatsiya qilish.

Ammo eng murakkab savol tug'iladi: bo'linish mezonlari, matnlarni tasniflash uchun qaysi til belgilari tanlanadi? Misol uchun, biz, masalan, ulanish (semantik va grammatik), kommunikativ to'liqlik va boshqalar kabi matnlarning xususiyatlari haqida ko'p narsalarni bilamiz, ammo bu xususiyatlar barcha matnlardan ajralib turadi va ularni matnlardan ajratib turadi, shuning uchun tasniflash mezonlari sifatida ularni ishlatish mumkin emas.

Keyin olimlar boshqa yo'lni bosib o'tdilar — ular matnlarning muayyan janrlarini, masalan, hikoya, anekdot, siyosiy nutq, reklama va hokazolarni intensiv o'rgana boshladilar, bu nutq janrlarining o'ziga xos til belgilarini tavsiflash va shu asosda ularni guruhlarga birlashtirish, matn turlarini, ularning umumiy kategorik xususiyatlarini ta'kidlash. Biroq, bu yo'l muvaffaqiyatga olib kelmadidi. Tadqiqotchilar tomonidan aniqlangan janr belgilari ko'pincha bir-biriga qo'shilmaydi va matnli toifalarni ajratishga ruxsat bermaydi.

Matn tilshunosligining asosiy vazifasi matnning mohiyatini tavsiflovchi toifalarni (masalan, uni qurish tamoyillari) ishlab chiqish, ajratish va matnlarning barcha turlarini yakuniy, yaqin turdag'i asosiy turlarga kamaytirishga imkon beradi.

Matnlarni tasniflash uchun ko'plab o'xshash urinishlar mavjud. Ulardan birini ko'rib chiqing. Shunday qilib, E. Verlich, deduktiv usuldan foydalanib, matnning tarkibiy asoslariga, ya'ni matnga ketma-ket "zanjirlar" (til vositalari, jumlalar) orqali tarqatilishi mumkin bo'lgan dastlabki tuzilmalarga qarab matn turlarini ajratib turadi. E. Verlich quyidagi (matn turlari) ni ta'kidlaydi: 1) tavsiflovchi — tavsiflovchi) - kosmosdagi hodisalar va o'zgarishlar haqidagi matnlar; 2) tushuntirish — tushuntirish) - hodisalar va vaqt o'zgarishi haqidagi matnlar; 3) tushuntirish — spikerning kontseptual g'oyalari haqidagi matnlar; 4) argumentativ — spikerning bayonotining kontseptual mazmuni haqidagi matnlar; 5) ko'rsatma — masalan, qonun matnlari. Verlich tipologiyasi quyidagi sxema shaklida ifodalanishi mumkin: Verlich sxemasi, birinchi navbatda, taklif qilingan tasniflarning aksariyati uchun odatiy bo'lib, ular matn turlarining ro'yxatini (ro'yxatini) beradi. Biroq, matn turlari turli tasniflash xususiyatlariga asoslangan holda ajratilganligini ko'rish oson. Ideal, ko'plab olimlarning fikriga ko'ra, matnning barcha turlari bitta mezon asosida ajratilgan va natijada murakkab, ierarxik tarzda tashkil etilgan va ko'p qirrali tuzilish sifatida matn haqida fikr yuritadigan tasnifdir.

Bunday tasnifni ishlab chiqish, ehtimol, keljak masalasidir, bu matnning juda murakkab tuzilishi va umumiy qabul qilingan op-kontsentratsiyasining yo'qligi bilan bog'liq.

Bir xil universal qamrab oluvchi tasnifni yaratishdan oldin, turli tomonlarni, turli tarkibiy qismlarni, matnning turli xususiyatlarini aks ettiruvchi bir nechta tasniflarni ko'rib chiqish (yoki qurish) tavsiya etiladi. Umid qilamanki, bu matnni lingvistik hodisa sifatida har tomonlama tavsiflashga imkon beradi.

Quyidagi tasniflarni ko'rib chiqamiz:

1. Qurilishning tabiatiga ko'ra(1, 2 yoki 3-dan).
2. Birovning nutqini etkazishning tabiatiga ko'ra (to'g'ridan-to'g'ri, bilvosita, noaniq-to'g'ridan-to'g'ri).
3. Bir, ikki yoki undan ortiq ishtirokchining nutqida (monolog, muloqot, polilog) ishtirok etish.
4. Funktsional-semantik maqsadga muvofiq (funktsional-semantik nutq turlari: ta'rif, tushuntirish, fikrlash va boshqalar).
5. Jumlalar orasidagi aloqa turiga qarab (zanjirli bog'langan matnlar, parallel, qo'shimchalar bilan).
6. Tilning funktsiyalari va extralinguistik asosda matnlarning funktsional uslublari — funktsional-uslubiy tipologiyasi farqlanadi.

#### **4-Mavzu:** Temuriylar davri matnshunosligi.

Ҳиротда, айниқса Шоҳрух хукмронлиги даври (1397)дан бошлаб фан ва маданиятга бўлган эътибор кучайди. Бу ердаги маданий ҳаёт Ҳиротнинг довруғини бутун Шарқ мамлакатларига ёйди. Шоҳрух, хотини Гавҳаршодбегим ва унинг ўғли Бойсунқур Мирзо илм-фан ва маданият ҳомийиси сифатида чор атрофга машҳур бўлди. темурийлар хонадонининг илму адаб ҳамда санъат аҳлига бўлган саховатини эшитган олим ва шоирлар, машшоқ ва меъморлар бутун ўлкадан марказга тортилиб кела бошладилар. Ҳирот том маънода маданият марказига айланди.

Улуснинг маънавияти учун зарур бўлган асарларга эътибор кучайди, янгилари яратилди, борлари таржима қилинди, нусхалари кўпайтирилди. Маънавият хазинасига эътиборнинг бунчалик ортишида Темурнинг набираси, Шоҳрухнинг ўғиллари—Самарқанд ҳукмдори Улуғбек ва Шероз ҳукмдори Иброҳим Султонлардан кейинги учинчи ўғли Бойсунқур Мирзо (1397 - 1434)нинг хизматлари катта бўлди. Ҳирот матншунослик мактабининг юксалишини унинг фидокорона меҳнатисиз тасаввур қилиб бўлмайди.

Сарой муҳитида қониқарли тарбия топган Бойсунқур Мирзо 17 ёшданоқ Мозандарон, Астробод ва Журжон вилоятларининг ҳокимлигига тайинланди (1414). Шоҳрух катта ўғли Улуғбек билан қандай фахрланса, Бойсунқур Мирзо билан ҳам шундай фахрланарди. 1416 да Бойсунқур Мирзо Ҳиротга қайтиб, отасининг саройида вазирлик лавозимига тайинланди. У давлат идора ишларида фаол қатнаша бошлади. 1420 йил декабр - 1421 йил май ойлари Пекинга Шоҳрух, Улуғбеклар томонидан юборилган элчилар қаторида Бойсунқур Мирзонинг ҳам элчилари бўлиб, улардан Фиёсиддин Наққош номли кишининг кундаликлари ўз даврида Хитой ҳақидаги энг муфассал ва машҳур асар сифатида тан олингани ёш шаҳзоданинг ўз атрофидаги қандай одамларга ишонч билдирганини намойиш этувчи бир далилдир. Мирзо Улуғбек илми нужум ва ҳандасада ўз даврида ягона бўлгани каби, Бойсунқур Мирзо шеърият ва хатда ўз даврининг энг машҳур кишиси эди. Форсий тилдаги адабиётга бўлган меҳри туфайли Бойсунқур Мирзо Амир Хусравнинг шеърларини тўплашда, Фирдавсий, Саъдий, Низомий каби ўнлаб даҳо санъаткорларнинг асарларини халқ орасида кенг ёйишда алоҳида жонбозлик кўрсатган. Тарихчи олим Бартольд Бойсунқур Мирзони Шоҳрухнинг ўғиллари ичida энг юксак форсий маълумотлиси деб атайди.

Ёш Бойсунқур Мирзо саройда вазирлик вазифасини адо этиш билан биргаликда илмга ташналиги туфайли китобларга алоҳида эътибор берди. Саройнинг Ҳумоюн кутубхонасидаги китоблар сонини кескин кўпайтириб, унинг қошида *маҳсус китобат гурухи* ташкил этди. Замона тарихчиларининг хабар беришларича, бу меҳнат жамоаси 40 нафар атрофида бўлиб, у ерда машҳур хаттотлар, наққош ва мусавирлар, саҳҳоф ва музахҳиблар илмий ва ижодий иш

олиб бордилар. Ўғилларининг бу ишини Шоҳрух ҳам, Гавҳаршодбегим ҳам жуда маъқуллаб турдилар. Шоҳрухнинг ўзи ҳам Мавлоно Маъруф каби хаттотларни Шероздан Ҳиротга кўчириб келиб, бу кутубхонада китоблар кўчириш вазифасига тайинлади. Султон Бойсунқур Мирзо кутубхонасининг хаттотлари кўлёзма китобларда хурмат билан тилга олинади.

Улардан бири бўлган Аҳмад Румий кўп фозил кишилар билан сұхбатлашишга мойил бўлган. Уларнинг илму маърифат ҳақидаги бу сұхбатлари доимо китобларга бориб тақаларди. Бойсунқур Мирзо кутубхонасининг хаттот ва мирзоларидан бошқа бири Ҳожи Мақсад ҳар бир қаламда (хат турида) шуҳрат қозонган эди. Султон Бойсунқур Мирзо китобат гурухига мансуб бўлган бошқа бир хаттот Шамс Бойсунқорийга шоирлар ўз девонларини ёқутона хат билан кўчиришни буюрар эдилар. Султоннинг бу хаттотга хурмати баланд эди.<sup>11</sup>

Бойсунқур Мирзо бу соҳада сидқидилдан меҳнат қилди. 1420 йил Эрон Озарбайжонига, 1431 йил Астрободга ҳоким қилиб юборилган бўлса-да, бу йўналишдаги фаолиятини тўхтатмади. 1425 - 26 йиллар унинг саъй-харакати ва сўз бошиси билан «Шоҳнома»нинг 40 га яқин қўлёзма нусхалари муқояса қилинган мукаммал нусхаси (ҳозирги мезон билан айтганда—илмий танқидий матни) юзага келди. Жозибали суратлар билан безатилган бу нусхалардан бири ҳозир Техрон музейида сақланади. Бу нусха бир неча асрлардан бери «Шоҳнома»нинг янги нусхаларини яратиш ва таржималар қилиш учун энг ишончли манба сифатида тан олиб келинганини кейинги асрларда кўчирилган нусхалар кўрсатиб турибди. «Шоҳнома»нинг таржималари устида иш олиб борган тадқиқотчилар тарихда машҳур бўлган туркий таржималардан 1781 йилда амалга оширилган Хомуший таржимасини мана шу нусхадан қилинган деб ҳисоблайдилар.

Бундан ташқари ўша даврларгача тарқоқ ҳолда бўлган Амир Хусрав Дехлавийнинг улкан поэтик меросини «жамлашда» Бойсунқурнинг жонбозлик кўрсатганини, натижада 120 мингдан зиёдроқ байт ҳажмида шеърлари тўпланганини Давлатшоҳ Самарқандий мамнуният билан тилга олади<sup>12</sup>. Эрон адабиётшунос олимни Маликушшуаро Баҳор ҳам «Сабкшуноси» асарида Бойсунқур Мирзо тузган матншунослар гуруҳи хизматларига юқори баҳо берган:

«Саъдийдан кейин «Гулистон» каби асрлар ҳам омма учун таржима қилиниб, форс тилининг ҳаммабоп дарсликларидан бирига айланди. Бойсунқурнинг VIII—IX аср (ҳижрий) темурийлар даврида Ҳирот ва Хурросоннинг ҳусниҳат усталари гуруҳи «Гулистон»ни кўчириш билан кўп машғул бўлганлар. Бойсунқур Мирзо замонида хаттотлар «Гулистон» ни бир қанча нусхада Саъдий замонидаги маҳур хаттот Ёқут Мустасмий номи билан кўчирғанлар ва шундай нусхалардан бизгача етиб келганлари мавжуд». Бу жумлалардан кўриниб турибдик, мазкур гуруҳ китоб кўчириш учун нусха танлашда иложи борича муаллиф замонасидаги нусхаларни танлашга ҳаракат қилишган. Бойсунқур

Мирзонинг буйруғи билан яна «Фараж баъда шиддат»нинг таржимаси, «Нусхат ул-арвоҳ» китоблари кўчирилгани ҳақида ҳам маълумотлар бор.

Бу даврда юзага келган Бойсунқур Мирзо ёки унинг гуруҳи қаламига мансуб китоблар жуда кўп мамлакатларга ёйилди ва уларнинг кўпчилигини ҳозирги пайтда кўпгина Шарқ мамлакатлари қўлёзма фондларида (Истамбул, Техрон ва ҳ.к.) учратиш мумкин.

Бу даврдаги илмий, адабий-маданий меросга бўлган муносабат *араб ёзувининг ривожига* ҳам катта таъсир кўрсатди. Тарихда настаълик хатининг равнақ топиши ва шуҳрат қозониши айни шу Ҳирот матншунослик мактабининг фаолияти билан боғлиқ.

Маълумки, хатнинг бу турига насх хати асос қилиб олинган. Аввалига насх хати ҳарфларини кичрайтириш ва калталатиш йўли билан ўзгара борди. Дастрлаб, (XIV аср) бу хатни ингичка хат тури номи билан атаб келишган. XV асрда бу хат ислоҳ қилиниб, ўзининг қатъий шаклига эга бўлди. Бу хатда танилган дастлабки хаттот темурийлар даври хусниҳат санъатининг фахри ҳисобланган *Mir Ali Tabriziy* эди. У настаълик хатининг ихтирочиси (возеъ), «Қиблат ул-куттоб» (котиблар пешвоси) деган лақаб билан шуҳрат қозонди.

Девон, рисола ва мактублар таълик хати билан кўчирилаётган бир вақтда Мир Али настаълик хатини ихтиро қиласида ҳамда таълик хатига насх хатини кириштиради. Шунинг учун ҳам унинг хатига «насхи таълик» номи берилади. Бу хат хаттотлар орасида жуда тез ёйилиб, Табризийнинг шогирдлари доираси борган сайин кенгая боради. Шогирдлари орасида унинг ўз ўғли Мир Абдулло ҳам бор эди. Унинг шогирдларидан икки киши - бири Мавлоно Жаъфар Шоҳруҳ Мирзо замонида хушхатлиқда ном чиқарган. Иккинчиси, Мирабулҳай китобат санъатида, иншо ва таҳрирда тенги йўқ котиб бўлиб, Султон Абу Саъид замонида иншонавислик шу кишига топширилган эди. Шогирдларидан (куёви) Амир Муҳаммад Бадриддинга ҳам Мир Али Табризийнинг хурмати баланд бўлган.

Кейинчалик Султон Ҳусайн Бойқаро хузурида фаолият кўрсатган Мир Али Ҳиравий ва Мулло Жаъфар Табризийлар ҳам бу хат билан шуҳрат қозониши. Улар ҳам бу хатга ислоҳотлар киритиши. Бойқаро саройида Султон Муҳаммад ва Султон Али Машҳадийлар бу хатни қиёмига етказдилар.

Китобат санъатида темурий шаҳзодаларнинг ўzlари ҳам яхшигина фаолият кўрсатишган. Хаттотлик санъатига меҳри баланд Бойсунқур Мирзо талайгина китобларни қаламдан чиқариш билан бирга Машҳадда қурилган, онаси Гавҳаршодбегим номи билан аталмиш масжид деворларига сулс ёзувида китобалар битган (бу ёзувлар ҳозир ҳам қисман сақланиб қолган). Унинг улуғ тарихчи Шарафиддин Али Яздийнинг таълимени олган акаси Мирзо Иброҳим

(1431 йилда вафот этган) ҳам олти хил хатда тенги йўқ хаттот эди. Машхур хаттот Ёкут услубига тақлид қилиб, хат санъатида ундан ўтиб кетган эди. У ёзган хат қолдикларининг баъзилари ўзи ҳокимлик қилган Шероздаги қадимий биноларда ҳозир ҳам қисман сақланиб қолган. Кейинчалик Шоҳ Фариб Мирзо ва ва Султон Ҳусайн Бойқаронинг ўғли Бадиuzzамон ҳам хаттотлик билан шуғулланишгани маълум.

Шоҳруҳ даврида унинг саройида асос солинган ҳамда XV аср давомида довруғ таратган Ҳирот матншунослик мактаби ва у ерда фидокорона меҳнат қилган кишиларнинг хизматлари туфайли

- адабий-маданий меросга эътибор кучайди, борлари йиғилиб, нусхалари кўпайтирилди, таржима қилинди, янгилари яратилди,
- миниатюра санъати юксак даражада равнақ топди
- хат турлари такомиллашиб, настаълик хати юзага келди ва кенг расм бўлди
- анчагина қўлёзма нусхалар силсиласи узилмай кейинги авлодларга етиб келди.

## **5-Mavzu: Alisher Navoiy. Navoiy va kitobat san'ati. Xattotlik.**

“Хаттотлик қадим Шарқ санъатининг беҳад камол топган турларидан бири ҳисобланади. Ўрта Осиё хаттотлик санъатининг эса бой тарихи бор. XIV–XV асрларда ўлкамиз китобатчилигининг равнақи бекиёс бўлди. Бу даврларда дунёда китоб чоп этадиган босмахоналар йўқ эди. Шунинг учун ҳам, айниқса, Шарқда хаттотлик санъатига қизиқиш ҳамда хаттотларга эҳтиёж ниҳоятда катта бўлган.

Адабиёт ва илм ахли яратган бебаҳо асарлар котиблар меҳнатининг шарофати билан бизгача етиб келди. Бу қўлёзма асарлар ўзбек адабиётшунослиги ва тилшунослиги учун тадқиқот манбаи бўлиб хизмат қиласи.

Маълумки, бундай қўлёзма асарлар Мовароуннаҳр ва Хурросонда, илм-фан ривож топган деярли ҳамма шаҳарларда машҳур хаттотлар томонидан қўп нусхада китобат қилинган”. З. Ҳамидовнинг “Навоий хаттотлари” номли мақоласида шундай дейилган. Унда қайд этилишича, қадим Шарқ қўлёзмалари орасида Мир Алишер Навоий асарлари салмоқли ўрин эгаллайди. Навоий ижодини ўрганиш, асарларини оқка кўчириш унинг ўз замонасидаёқ бошланган. Унинг асарлари ўзи яшаб турган юртдагина эмас, балки бир қанча хорижий мамлакатларда ҳам дастхат сифатида кенг тарқалган эди. Жумладан, шоир “Хамса” устида ишлаганда унинг ёзиб тугатилган қисмини машҳур хаттот Абдужамил котиб пешма-пеш оққа кўчирганди. Шоир ўзининг йирик тазкираси “Мажолис ун-нафоис” асарида хаттотлик санъатига юқори баҳо бериб, уни пухта эгаллаган Султон Али Машҳадий, Мавлоно Сойими, Мавлоно Сайфий, Мавлоно Шер Али, Шайхзода Пуроний, Мавлоно Войсий, Мавлоно Котибий ва Абдужамил котиб Ҳиротий каби машҳур котибларни фаҳр билан тилга олади. Шуниси диққатга сазоворки, бизгача етиб келган Алишер Навоий асарлари қўлёзмаларининг жуда кўпчилиги қадими илм-фан масканлари Бухоро ва Шаҳрисабзда китобат қилинган. Қавомиддин Муниров ва Абдулла Носиров каби шарқшуносар тартиб берган “Алишер Навоий қўлёзма асарлари каталоги”(Тошкент, 1970)даги рўйхат ана шундан далолат беради.

XIV–XIX асрлар Бухорода санъатнинг барча турлари кенг ривож топган давр бўлди. Бу ерда хаттотлик санъатининг мактаби вужудга келди. Пирмуҳаммад Сўфи Бухорий (XB аср). Мираз Бухорий (XB аср), Султон Мухаммад Бухорий (XB аср), Абдураҳмон Баркий Мунший (XB аср), Мирали Ҳиравий (XVI аср), Сайд Абдулло Бухорий (XVI аср), хаттотлик назарияси тўғрисида китоб ёзган олим ва хаттот Дарвиш Мухаммад ибн Дўстмуҳаммад Бухорий (XVI аср), Мавлоно Иноятилло котиб (XVII аср), Мирза Абдураҳмон (XVIII аср), Фозил Девона (XIX аср), маърифатпарвар адаб ва олим Аҳмад Доңиш ва бошқалар Мовароуннаҳрнинг машҳур хушхат хаттотлари сифатида Бухорода қалам сурдилар.

Тошкент Давлат шарқшунослик институти қошидаги Абу Райҳон Беруний номидаги шарқ қўлёзмалари марказида Алишер Навоий асарларининг 500 дан ортиқ қўлёзма нусхалари сакланаётир. Шундан 120 нусха бухоролик машҳур хаттотлар дастхатига мансуб. Жумладан, “Хазойин ул-маоний” асарининг

кирққа яқин нусхаси, “Хамса”нинг йигирма етти нусхаси Бухорода кўчирилган. Булардан ташқари, “Хамса”даги “Ҳайрат ул-аброр” достони 1838–1839 йилларда Сайид Нафас томонидан кўчирилган. “Лайли ва Мажнун” достони 1829–1830 иили Мұхаммад Ражаб ибн Абдували томонидан, “Сабъаи сайёр” достони Мұхаммад Латиф ибн Мұхаммад Шариф томонидан XIX асрда Бухорода алоҳида китобат қилинганды.

Алишер Навоий умрининг сўнгги йилларида ёзган “Лисон ут-тайр” асарининг ўндан ортиқ нусхаси Бухорода китоб ҳолига келтирилган. У “Мажолис ун-нафоис”, “Мезон улавзон”, “Тарихи анбиё ва ҳукамо”, “Хамсат ул-мутахайирин”, “Вакфия”, “Тарихи мулуки Ажам”, “Арбаин”, “Рисолай муаммо” каби асарлари кўплаб нусхада кўчирилган. Ҳусусан, Шахрисабзда “Хазойин ул-маоний”, “Хамса”, “Лисон ут-тайр”, “Тарихи мулуки Ажам” каби асарлари хушхат дастхат билан оққа кўчирилган. Ҳозир Навоийнинг Шахрисабзда кўчирилган ўттизга яқин ноёб нусхалари сақланмоқда. Масалан, 1874–1875 йилларда мулло Мұхаммад Шералибек Шахрисабзий томонидан шоирнинг “Хазойин ул-маоний” асари настаълик хатида қора тушда кўчирилган. “Хамса” эса 1833–1834 йилларда Абдулқаюм котиб ва Мұхаммад Юнусхўжа ибн Бобохўжа Шахрисабзий томонидан оққа кўчирилган. Бу нусха Алишер Навоий “Хамса”сининг XIX асрда кўчирилган нусхаларидан анча тўлиқ ва мукаммаллиги билан ажralиб туради. “Лисон ут-тайр” 1823–1824 йилларда Ёрмуҳаммад қори Шахрисабзий томонидан настаълик хатида қора сиёҳда кўчирилган.

Хулоса ўрнида шуни алоҳида таъкидлаш керакки, Шарқнинг буюк шоири Алишер Навоий асарларининг жаҳоний шуҳратида бухоролик ва шахрисабзлик адабиёт мухлислари – машҳур хаттотларнинг муносиб ҳиссаси бор. Бу кўлёзмалар ўкувчига ранг-баранг маълумотлар бериш билан бирга Навоий асарларини мукаммал ўрганишда ижобий рол ўйнаб келмоқда. Аслида Алишер Навоий хаттотлари маҳорати алоҳида тадқиқот мавзуудир.

## **6-Mavzu:** Navoiy asarlariga bag'ishlangan lug'atlar.

Жаҳон адабиётининг буюк классик адиби Алишер Навоий асарлари тили XVI асрдаёқ ўрганила бошланган. Толи Имонийнинг «Бадаи ал-луғат», муаллифи ҳозирча аниқланмаган «Абушка», «Луғати Навоий», Мирза Меҳдихоннинг «Санглох», «Луғати Амир Навоий», «Хамса бо ҳалли луғат», «Дар баёни луғати Навоий», «Ҳалли луғати Хамсайи Навоий» ва бошқалар шулар жумласидандир. XIX асрнинг иккинчи ярмидан бошлаб улар туркшунос олимларнинг илмий текширишлари натижасида маълум бўла бошлади: А.Вамбери («Абушқа», Будапешт, 1862), В.В. Вильяминов-Зернов («Абушқа», Санкт-Петербург, 1868), Фазлуллахон («Чигатойча-форсча луғат», Калькутта, 1825), Шайх Сулаймон Бухорий («Чигатойча-туркийусмоний луғат» Истамбул, 1882), Игнац Кунаш («Чигатойча-немисча лугат», Будапешт, 1942), Дж. Клосон («Санглох», Лондон, 1960), Карл Менгес («Мирза Меҳдихон», Майнц, 1956), А.К. Боровков («Бада‘и ал-луғат», М. - Л., 1961) каби олимлар мазкур ёдгорликларни чоп этишган.

Шунингдек, Алишер Навоий асарларининг кенг китобхонларга мўлжаллаб чоп этилган 15 жилдлик нашрига лугат ҳам юзага келган. Бу С. Иброхимов ва П.Шамсиевлар яратишган «Алишер Навоий асарлари тилининг лугати»дир. Ушбу лугатга 1953 йили чоп этилган «Узбек классик адабиёти асарлари учун қискача луғат»даги ҳамма сўзлар тўла киритилган бўлиб, бўларнинг кўпчилиги Алишер Навоий асарларида учрамайди. Булардан ташкари «Алишер Навоий асарларида синонимлар масаласига дойр» (М.Рахматуллаева), «Алишер Навоий тилининг диалектал асослари» (Х.Дониёров), «Алишер Навоий лирикасида қўшма сўзлар» (Б.Бафоев), «Алишер Навоий «Мажалисуннафоис» асарининг лексикаси» (И.Носиров), «Алишер Навоий «Лисонут-тайр» асарининг лексико-семантик ва лингвопоэтик тадқики» (З.Ҳамидов), «Шайх Сулаймон Бухорийнинг «Лугати чигатойи ва туркий усмони» лугатини лексикографик тадқики» (Н.Хусанов) каби катор мавзуларда илмий тадқиқотлар олиб борилган, булар улуг шоир асарлари тилини янада чуқуррок ўрганишда фойдали манба бўлиб хизмат қилмоқда.

Ўтган асирининг 70-йилларида Э.И.Фозилов раҳбарлиги ва бевосита иштирокида Алишер Навоий асарларининг мукаммал лугатини тузишга киришилган эди. Натижада 1982 йили 4 жилдик «Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли лугати» яратилди ва 1983-1985 йилларда «Фан» нашриётида чоп этилди. Лугат иштирокчиларнинг меҳнатлари ҳар бир жилда қайд килинган. Жумладан «Э.И.Фозилов - ишнинг раҳбари, лугатнинг илмий лексикографик принципларини ишлаб чиқкан, қадимги туркий (ўзбек) сўзлари луғавий маъносини талқин қилган, айрим асарлар бўйича тузилган глоссарий (лугат), шарҳ ва изоҳларни манбалар асосида сўз ва маънолар билан тўлдириб, бирлашган лугат-мақолалари қилиб тузган, XVI-XX асрларда Навоий асарлари асосида тузилган лугатлардаги сўз изоҳларини қиёсий текшириб чиқкан, «Алишер Навоий асарлари тили изоҳли лугати»нинг тузилиши ва ундан фойдаланиш тартибини ёзган» (I жилд, З сахифа). Ушбу ишни амалга оширишда менга яқиндан ёрдам кўрсатганлар: Кутбиддин Мухиддинов, Жафар Эфтихор,

Юсуфхон Шокиров, шоир Н.Хўжаев (Чустий), Жавқон Лапасов, Абдуллажон Юнусов, Ноилахон Расулова, Ахмаджон Каримовларни алоҳида хурмат билан қайд қиласман. Ушбу тўрт жилдли луғатни яратишда ва чоп этишда ниҳоятда жиддий ғов, тўсиқлар, турли ғаммозликлар ва тубанликларни бардош билан енз гиб чиқишга тўғри келди. Аммо ҳеч вақт Алишер Навоий лугатини мукаммалаштириш борасидаги тадқиқотимни сусайтирумдим ва бу саъии ҳаракатим натижасида 4 жилдлик «Алишер Навоий асарлари лугати»ни ҳозирладим.

Ушбу лугатнинг аввал чоп қилинган лугатлардан жиддий фарқ, тафавутларини қуидаги жадвалдан очик-ойдин кўриш мумкин. Алишер Навоий луғатларлардаги бош сўз мақолалари, кўшма сўзлар изофалар, тургун сўз бирикмалар, тасдиқловчи цитаталарнинг қиёсий адади (А-Ж ҳарфлари мисолида). Навоий асарлари лугати. Тузувчилар П.Шамсиев, С.Иброҳимов. Муҳаррир С.Муталлибов. Т ош кент- 1972 Ҳарфлар Бош сўз Кўшма сўз Изофа Тургун сўз бирикмалари Тасдиқловчи цитата.

Булар очик-ойдин кўриниб турган чин хақиқат: - бош суз-маколаларнинг адади; - қўшма сўзларнинг акс этилиши ва сони; - форсий, арабий изофалар ту ла камраб олиниши ва изохи; - т у р ғу н сўз бирикмалари, жуфт, такрорий сўзлар адади; - сўзлар маънолари, кўлланиш доирасини тасдиқловчи цитаталар в.\. «Алишер Навоий асарлари лугати» (1 жилд, Тошкент - 2013)ни бош ка лугатлардан ҳар тарафлама устунлиги ва хар жихатдан афзаллиги яна жуда куп фазилатларда намоён бўлади: - бевосита бош - сўздан сўнг арабча эквиваленти берилган; - бош сўз-маколаларидаги изоҳлар қайта кўриб чиқилган, керакли тузатишлар, тахрирлар киритилган; - хато кетган бош сўз - маколалар кўллётма манбалар асосида ўзгартирилган, тузатилган; - янги хорижий илмий нашрлардан тўла-туқис фойдаланиш оркали бош сўз-мақолалар адади кўпайған; - қўшма сўзлар, фразеологик, тургун бирикмалар адади хар тарафлама тўла камраб олинган; Ўзбекистонда чоп этилган кўпжилдли (15, 20, 10 томли) оммобоп нашрлардаги ҳадсиз кўп хато ва гализликлар тузатишга харакат килинган; - сўзларни транскрипция, транслитерацияси, тиниш белгилар қўйилиши, айрим унлиларни (а, о) ишлатилишида илмий нашрлар, кўллётмаларга асосланганлиги; - тасдиқловчи цитаталар қайта-қайта текшириб чиқилган, хато, нуқсонлар тузатилган в.х. Натижада ҳозирги давр илм талабига жавоб берадиган Алишер Навоий асарлари мукаммал лугати яратилди. 5 А - кўллётманинг саҳифа ва каторлари, нашр қилинган манбаларнинг вараклари; - изофа, идиоматик, фразеологик, тургун бирикмалар, кўшма от ва феъллар шарҳи ва иллюстратив материал; - бош сўзнинг фонетик варианти параллел чизиқдан сўнг берилган. Луғатда изоҳланган сўз ёлғиз кўлланмаган тақдирда ўша сўз билан келган бирикма берилиб, шархланган.

Сўз м аы ю сининг изохи. Ҳар бир сўзнинг Алишер Навоий асарларидаги маъноси киска, лўнда ва аник изоҳ билан ифода этишга харакат килинган. Сўзларнинг мустакил маънолари бир-биридан араб ракамлари билан ажратилган, ҳар бир маънога тааллукли маъно нозикликлари айрим ўринларда ажратилмай, мисоллар келтириш билан кифояланган. Бош сўзларнинг мустакил кўчма


маънолари араб ракамлари билан ажратилган. Сўзларнинг маъноларини очишда куйидаги усуллардан фойдаланилган: - киска тушунтириш йўли билан изохлаш; - кенг тушунтириш йўли билан изох бериш; - синонимлар оркали изохлаш; - кискача энциклопедик маълумот келтириш йўли билан изохлаш; - антонимлар оркали изохлаш; - реалияни кенгроқ изохлаш; Лугатда тарихий принципга амал килинган холда сўзларнинг тарихий-тадрижий равишда юзага келган маъноларини очиб беришга харакат килинган. Сўз маъноларини жойлаштиришда уларнинг бир-бирига якинлиги, ўзаро ички муносабатлари асосга олинди. Кўп маъноли сўзларни изохлашда олдин уларнинг бош маънолари, сўнг хосила маънолари берилган. Лугатда фразеология. Лугатда фразеологик бирликларни турларга ажратиш мақсад килиб кўйилмаган. Лугат маколаларида икки, ундан ортиқ сўздан иборат бўлган, яхлит лексик маъно билдирилган тил бирликлари, фразеологик ва тургун иборалар шарх килинган. От, сифат, феъл ва бошка туркумдаги сўзлар билан бирикиб хосил бўлган мураккаб бирикмаларнинг доимий, типик бўлганларига хам лугатда изох берилди. Булар кўп ўринда биринчи компоненти оркали изохланниб, хар бирига манбалардан тасдиковчи мисоллар келтирилган. Арабча ва форсча изофаларнинг барчасига изох берилган: Фразеологик бирликлар, тургун иборалар ва мураккаб бирикмалар бир марта шархланган. Бош сўз ўрнида тильда ~ белгисидан фойдаланилган. Фразеологик ибора одатда унинг семантику марказини ташкил этувчи, шакли ўзгармайдиган ва бошқа сўз билан алмашилмайдиган компонент сўз маколасида изохланди. Феълли фразеологик бирликлар феъл-сўз маколасида изохланниб, иллюстратив материал билан таъминланди. Лекин агар феълнинг маъноси ибора таркибида мавхум бўлиб, унинг функцияси boglама вазифасига якинлашиб қолган ва фразеологик бирликнинг маъно, марказини грамматик жихатдан тобе от-сўз ташкил қилган бўлса, иборанинг изохи ва иллюстратив материал и от-сўз маколасида берилди. Сифат ва отдан ташкил топган бирикмалар одатда от-сўз маколасида изохланди ва мисоллар билан таъминланди. Алишер Навоий асарлари тилида фразеологик бирлик ва турли хил идиоматик бирикмалар билан бир каторда форс-тожик ва араб тилларидан бутунлигича ўзлаштирилган ва маълум даражада тургунлашган иборалар, шунингдек, мазкур тиллар доирасидаёқ идиоматик маънога эга бўлган бирикмалар хам кўплаб учраб туради. Бундай ибора ва бирикмаларнинг изоҳида форс-тожик, араб тилларининг идиоматик лугатларидан фойдаланилди. И ллю стратив м атериалнинг берилиш и. Лугатдаги иллюстратив мисоллар лугат маколасидаги сўз ва ибораларнинг маъно хамда маъно нозикликлари Алишер Навоий 7 асарлари тилида мавжудлигини, ўша маъноларда ишлатилганлигини тасдиклаш учун хизмат қиласи. Насрий асарлардан олинган мисоллар қисқартириб берилган, бунда изохланаётган сўзга бевосита алокаси бўлмаган қисмигина тушириб колдирилган. Цитатанипг қисқартирилган кисми ўрнига айрим ҳоллардагина кўп нуқта кўйилган. Зарур ўринларда квадрат кавс, кавс ичида айрим аниқликлар ва тўлдиришлар берилган. Сўзнинг у ёки бу маъносига оид цитаталар танлашда мисолларнинг мазмун, ранг-баранглиги, грамматик формаларнинг хар хиллигига аҳамият берилди. Лугат маколаларида келтирилган

хар бир мисол-цитатадан сўнг кулёзманинг бет ва сатри, нашр килинган манбаларнинг жилди ва саҳифаси кўрсатилган. Алишер Навоий асарлари тили лугатини тузиш жараёнида сўзларнинг маъноларини изохлашда контекст, сўзнинг ҳозирги тилдаги лексик, грамматик эквиваленти назарда тутилган. Сўзнинг маънолар системасини адаб давридаги қўлланилиш доирасини аниклашда кўлёзма манбалар ва бир катор чоп этилган тадқикотлар, луғатлар муҳим роль ўйнайди. Булар кўп асрлик анъаналарга эга. Ушбу анъаналардан тўла фойдаланишга харакат килинган. Алишер Навоий асарлари тилидаги сўзларни изохлашда Шарк олимларининг асарлари, айникса Махмуд Кошгариининг «Девону луготит-турк», Абу Хайённинг «Китобул-идрок лисонул-атрок», Жамолиддин Туркийнинг «Китоб булгатал-мушток фил-лугат ит-турк вал-кифчок», муаллифлари номаълум бўлган «Китоб ат-тухфа аз-закия фил-луга ат-туркия», «Таржумон турки ва ажами ва мугали», «Таржумон ас-сиҳоҳ», «Ал-кавонин ал-кулия ли-забтил лугатит-туркия» кабилар муҳим аҳамият касб этади. Қадимги ёдномаларга багишлиланган тадқикотлар, туркий тилларнинг тарихий, этимологик, икки тилли, диалектологи к луғатлари ўтмиш классикларининг асарларидағи сўзларни шархлашдаги тадқикотлар катта ёрдам берди. Ёзма обидаларни ўрганишда В. В. Радлов, П. М. Мелиоранский, А.Н. Самойлович, Л.З. Будагов, С. Е. Малов, Юлиус Теодор Зенкер, Ф.А.Стейнгасс, К. К. Юдахин, А. К. Боровков, Э. В. Севортян, И. А. Батманов, Х. К. Барапов, М. А. Гаффоров, А. Н. Кононов, С. М. Муталлибов, П. Шамсиев, С. Иброхимов, Ш. Ш. Шукуров, А. М. Шчербак, С.Н. Иванов, С. Г. Кляшторний, Э. Р. Тенишев, В. М. Наделяев, Д. М. Насилов, И. В. Кормушин, Л. Ю. Тугушева, Ю. А. Рубинчик, Ф. В. Мюллер, М. Т. Хоутсма, А. Лекок, Ю. Немет, Л. Лигети, Дж. Клоусон, А. Зайончковский, К. Брокельман, А. Титце, Г. И. Рамстедт, П. Пельо, В. Банг, А. Габен, Дж.Дёрфер, К. Менгес, М. Рясянен, Раҳмати Арат, Умар Осим Аксўй, Ферит Девеллиоглу, Огоҳ Левенд, Я. Экман, А. Бодроглигети, Кл. Рурбўрн, К. Эраслан, Г. Ал пай, Л. Базен, Бесим Аталай, В. Котвич, Э. Триярский, Ханс Веер, П. Циме, Самих Тезжон, Усмон Сарткоя, Юже Нури каби олимларнинг тадқикот ва луғатлари тилшуносларнинг дикқат марказида бўлмоғи лозим. Булардан ташкари, форс-тоҷнӣ тилида яратилган фарҳанглар: «Фарҳанги забони тоҷики» (т. I-II, М., 1969), «Фарҳанги Амид», «Фарҳанги Жаҳонгири», «Баҳори Ажам», «Гиёсул-лугот», «Фарҳанги Рашидий», «Луготи фурӯ», «Фарҳанги Ҳусайн Вафойи» («Фарҳангнома»), «Бурҳони котиъ», «Аҳтари кабир», «Лугати Гудий» кабилар классикларимиз тилини ўрганишда ва уларнинг асарларидағи сўз ва ибораларни таҳлил қилишда муҳим манба бўлиб хизмат килади. Нихоят, «Турк тил куруми» томонидан чоп этилган саккиз томлик «Tarama sozlugii» (Анкара, 1963-1977 йиллар) тарихий лексикология ва лексикография бўйича катта аҳамиятга молик асарлар каторига киради. Кейинги 25 йил давомида нихоятда кўп луғатлар, ёзма обидалар классик адабиёт танкидий матнлари ва буларга илова килинган луғатлар нашр этилди. Буларнинг хаммаси диккатимиздан четда колмади.

**7- Mavzu:** Alisher Navoiy asarlarining tekstologik xususiyatlari. Alisher Navoiy asarlarida variantlilik.


## Xamsa asari

■ Alisher Navoiy ijodining yuksak cho'qqisi "Xamsa" asari (1483-85)dir, shoir birinchilardan bo'lib, turkiy tilda to'liq "Xamsa" yaratdi va turkiy tilda shunday ko'lamdon asar yozish mumkinligini isbotlab berdi.




Alisher Navoiy o'zbek tiliga ya'ni o'z ona tilimizga diqqat bilan qaradi. Navoiyning afsus bilan ta'kidlashicha, hatto, ko'pgina o'zbek shoirlari ham, ona tili boyliklari va keng imkoniyatlaridan foydalanishga kam e'tibor berardilar. «Bu til dag'al til, unda yuksak san'at asarlari yaratib bo'lmaydi» degan fikrlarga uzil-kesil zarba berish, o'zbek tilining yashirin qolib kelayotgan xazinalarini ochish va uni ilm ahllariga, she'riyat muxlislariga tushintirish o'zbek xalqining buyuk farzandlari oldida muhim vazifa bo'lib turardi. Ana shu ulkan ishning uddasidan Alisher Navoiy chiqa oldi. Navoiy «Bu alfoz va iboratda bir nav daqoyiq ko'pdurkim, bu kunga deguncha hech kishi haqiqatig'a mulohaza qilmag'on jihatdin bu yashurun qolibdur. Va filhaqiqat agar kishi yaxshi mulohaza va taammul qilsa, chun bu lafza muncha vus'at (kenglik) va maydonida buncha fushat (ochiqlik) topilur...» deb yozdi va o'zbek shoirlarini o'z ona tilini faqatgina xalq ommasi emas, balki shoirlar ham qo'llashi, shu tilda, iloji boricha, o'z iqtidor va mahoratlarini ko'rsatishlari kerak edi. Masalan, Navoiy xuddi shu maqsadda quyidagicha yozadi: «...turk tilining jomliyati muncha daloil bilan sobit bo'ldi, kerak erdikim, bu xalq orasidin paydo bo'lg'on ta'b ahli salohiyat va ta`blarin o'z tillarin turg'och, o'zga til bilan zohir qilmasa erdi va ishga buyurmasalar erdi. Va agar ikala til bilan aytur qobiliyatlari bo'lsa, o'z tillari bilan ko'proq aytsalar erdi va yana biri bilan ozroq aytsalar erdi.

[www.arxiv.uz](http://www.arxiv.uz)



O'zbek adabiy tilining rivojida 15-asrning ikkinchi yarmi juda muhim davr hisoblanadi. Bu davrda Alisher Navoiy o'zining muborak ijodi bilan o'zbek adabiyotini yuksak darajaga ko'tarish bilan birga, o'zbek tilining taraqqiyotiga ham o'zining salmoqli hissasini qo'shdi. Navoiy o'z asarlarida, albatta «grammatika» yoki «fonetika» so'zini qo'llagan emas. Lekin tilning grammatick va fonetik qonunyatlarini yaxshi bilgan, ularni bir-birlaridan yaxshi farqlagan va o'ziga xos arabcha-forscha va turkcha-o'zbekcha atamalar bilan nomlangan: amr, harf, harakat, hamza, voze (voz-yasovchi yoki so'z yasovchi); tajnis va ihm - ko'p ma'noli so'z; alam-ism, ot; atmutakallim-so'zlovchi; lafz, kalom, alfoz kabilari haqida o'z davriga nisbatan juda muhim fikr va mulohazalar bayon qilgan. Jumladan, Navoiy turkiy (o'zbek) tilining grammatick xususiyatlari haqida yetarli darajada fikr bildirgan.

[www.arxiv.uz](http://www.arxiv.uz)



Chunki Navoiy asarlarining tili o'z davrida mavjud bo'lgan turkiy sheva, lahja va dialektlarning deyarli hammasining vokalizmini qaryib to'liq ravishda aks ettirgan va 9 sostavli unli tovushlar sistemasi va singarmonizm qonuniyati eski o'zbek adabiy tilining asosiy bazalari bo'lgan qipchoq lahjalarinng ham, o'g'uz lahjalarining ham, o'rta o'zbek (qarluq-chigil-uyg'ur) lahjalarining ham tovush sistemalarini to'liq aks ettirishga imkon beradi. Navoiy tilidagi qisqa hamda cho'ziq i unli tovushli o'sha davrdagi o'g'uz-turkman lahjalarining tovush sistemasini to'liq aks ettirish uchun hamda fors-tojik tilining ta'siriga kuchli ravishda uchragan Hirot, Samarqand, Buxoro shahar shevalari va ular tipidagi shevalarning tovush xususiyatlarini aks ettirish uchun xizmat qilgan. Alisher Navoiy asarlari tilida uchrovchi ochiq o (o) tovushi esa shu keyingi aytilgan til va dialektlarda fonema darajasiga ko'tarilgan lablangan o ni aks ettirish uchun qo'llagan. Alisher Navoiyning turkiy til sistemasidagi tovushlarning qonuniyatlari yaxshi bilishligi va ularni yaxshi qo'llay olishi turkiy tilning tovush imkoniyatlarini necha yuz yillar davomida an'anaga kirib qolgan tor arab alfaviti imkoniyatlari darajasida ham yuzaga chiqarish mumkinligini isbot qiladi. Alisher Navoiy va umuman klassik shoirlarimiz juda yaxshi bilgan. Ular o'z asarlarining tilida 9 ta mustaqil fonemani ishlatganlar.

[www.arxiv.uz](http://www.arxiv.uz)

## АЛИШЕР НАВОЙ АСАРЛАРИ НАШРЛАРИНИНГ БИБЛИОГРАФИЯСИ (ШОИР ТАВАЛЛУДИННИНГ 570 ЙИЛЛИГИ МУНОСАБАТИ БИЛАН)



Малика Исаевна Матмуарова

Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий  
китубхонаси директорниң ўринбосари



**Ү**збек мумтоз адабиётининг асосчиси, сўз санъатининг султони, мутафаккир Алишер Навоий ижодини ўрганиш ва уни тарғиб килиш кишилар уртасида меҳр-оқибатни, инсонийлик, адолат, саҳиълик ва юксак ахлоқийликни шакллантиришда муҳим аҳамиятга эга. Шунинг учун ҳам Алишер Навоий асарлари беш ярим асрдан бўён ўқиб, ўрганилиб, кайта-қайта нашр қилиниб келмоқда.

Алишер Навоий асарларининг нашрлари ва унинг ҳаёти ҳақидаги адабиётлар библиографиясини тузиш шоир ҳаётилиги давридаёқ бошланган.

15 та асарининг номлари ва умумрўйхатини дастлаб Навоийнинг ўзи "Муҳокаматул-лугатайн" асарида берган.

Кейинчалик бу маълумот кадимги манбалардан Ниёсiddин Хондамирнинг "Макоримул-ахлок" асарида, "Абушқа" лугатида ва бошқа кўллэзма ёдгорликларда тақорланади.

"Макоримул-ахлок" (Олийжаноб ҳулклар) номли асарнинг аҳамияти шундаки, унда биринчи марта Алишер Навоийнинг ҳаёти ва ижодий фаолияти ёритилган. Шу билан бирга, унинг "Хамса" ва "Чор девон" идан ташқари туркӣ ва форс тилларида ёзилган 20 дан ортиқ асарлари, 30 дан ортиқ бошқа шоир ва ёзувчилар, олимларнинг Навоий ижодига бағишлиланган асарлари ҳақида қиликарли маълумотлар берилган.

Хондамир ўз асарида Навоий асарларининг рўйхатини беригина қолмай, ҳар бир асарни ё мазмуни ҳақида ўз фикрини, бошқа кишиларнинг шу асарга берган баҳосини ҳам баён этади.

Хондамир ушбу асарида Навоий асарларидан ташқари Навоий ҳақидаги манбаларнинг рўйхатини ҳам берган. Улар рисоланинг турли бўлимиларида жойлаштирилган.

Рисоланинг "Илм фазилати ва олимлар мартабаси ҳақида" номли бўлимида Тафтазоний, Асилий, Кошифий, Имом Нававий каби ўша дэвр олимларининг Навоийга бағишлиланган 21 асари ҳақида маълумот берилади.

"Шеър фазилати ва шоирларнинг улуг даражалари ҳақида" бўлимида Абдураҳмон Жомий, Кирмоний, Гулистоний, Камолиддин Мир Ҳусайнйларнинг Навоийнинг улуг номи билан тугалланган асарлари рўйхати келитирилган. Материалларнинг бундай тартибда берилиши библиографик қўлланмалардаги адабиётларни тематик жойлаштириш ўсулига ўхшаб кетади. "Макоримул-ахлок" асарида бундай ҳолатларда хозирги замон библиографиясининг кўптина белгилари мавжуд. Шунинг учун ҳам ушбу рисола тарихий аҳамиятга эга бўлибгина қолмай, балки улуг шоирнинг ҳаёти ва фаолияти ҳақида илк бор маълумот берувчи муҳим библиографик манба сифатида ҳам ўзбек миллий библиографиясининг тарихини ўрганишда катта аҳамиятга эга.

XVII асрда яшаб ижод этган йирик олим ва библиограф Ҳожи Халифанинг "Китоб ва фан номларидағи шубҳанинг бартараф этилиши" номли библиографик кўрсаткичиди Алишер Навоий асарлари ҳақидаги маълумотларни топиш мумкин. Ушбу кўрсаткич XIX асрда Г. Флюгенъ томонидан лотин графикасида нашр қилинган бўлиб, унда Ўрта Осиё ва Эронда яшаган йирик олимларнинг 15007 та асари, жумладан, Ибн Сино, Хоразмий, Беруний, Саъдий, Умар Хайём, Абдураҳмон Жомий, Алишер Навийларнинг ҳам асарлари рўйхати берилган.

XX асрда Алишер Навоий асарларининг библиографияси биринчи марта 1940 йилда унинг 500 йиллик юбилейи арафасида йирик шарқшунос олим ва библиограф А.А.Семёнов томонидан "Алишер Навоий асарлари ва у ҳақдаги адабиётлар библиографияси кўрсаткичига манбалар" номи билан нашр қилинди.

Ушбу кўрсаткичга Алишер Навоийнинг 1841-1938 йилларда нашр қилинган асарлари ва у ҳақдаги адабиётлар киритилган. Манбалар икки бўлимда система малаштирилган: 1) Навоий асарлари (тўлиқ нашрлар ва парчалар) - 45 номда; 2) у ҳақдаги адабиётлар - 89 номда.

Бўлимлардаги материаллар ички хронологик тартибда жойлаштирилган. Ҳар бир асар тавсифи аввал

асли, кейин рус тилида кискача изоҳ, ёки аннотация билан берилган.

1966 йилда Алишер Навоий туғилган кунининг 525 йиллиги кенг нишонланди. Шу муносабат билан 1968 йилда Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Республикаси кутубхонаси библиографлари Алишер Навоийнинг библиографиясини ўзбек ва рус тилларида нашр килдилар.

Ушбу кўрсаткичининг ўзбек тилидаги нашрида Алишер Навоийнинг 1917-1966 йилларда нашр қилинган асарлари, танқидий-библиографик материаллар ҳамда Алишер Навоий образини акс эттирувчи бадиий адабиёт ва санъат асарлари ҳакида, шоир меросини ўрганишига доир 666 номдаги хужжатлар акс эттирилган.

Кўрсаткичининг рус тилидаги нашрига Алишер Навоийнинг 1917 йилдан 1966 йилгача рус, қардош халқлар ва хорижий тилларда нашр қилинган асарлари номлари киритилган.

Кўрсаткичда, аввало, Алишер Навоийнинг алоҳида нашрлари, танқидий-библиографик материаллар ҳамда Алишер Навоий образини акс эттирувчи бадиий адабиёт ва санъат асарлари, у ҳақдаги мақолалар, науслар ҳақидаги материаллар, нашрларнинг таржи-маларига, кўлёзмаларини ўрганишига оид 1076 номдаги хужжатлар тўғрисида маълумотлар берилган.

Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик институтининг кўлёзмалар фондидаги сакланётган "Алишер Навоийнинг кўлёзма асарлари" каталоги 1970 йилда "Фан" нашриётида босилиб чиқкан. Каталог К.Муниров, А.Носировлар томонидан тузилган. Unda Навоийнинг 150 га яқин хаттот томонидан кўчирилган 450 дан зиёд кўлёзма ҳамда босма асарлари акс эттирилган. Шунингдек, каталогда Алишер Навоийнинг тўлиқ нашр этилган 63 та асарининг библиографик тавсифи берилган.

Ўзбекистон Фанлар академияси Х.Сулаймонов номидаги Кўлёзмалар институти ва Тошкент давлат маданият институти ҳамкорлигига 1983 йилгача "Алишер Навоий" библиографияси (З.Бердиева томо-

нидан) тузилиб, 1979 йилдан йиллик нашрлар сифатида босилган. Бу кўрсаткичлар, тилидан, нашр қилинган жойидан, нашр характеридан қатъи назар, Навоий асарлари, унинг хаёти ва ижодига оид адабиётлар ҳакида маълумот беради.

1979 йил учун чиқарилган "Алишер Навоий" кўрсаткичидаги 80 номдаги манба келтирилиб, шундан 21 таси Навоий асарларини, 59 таси у ҳақдаги материалларни акс эттиради. 1980 йил учун чиқарилган кўрсаткичда мазкур манбалар нисбати  $114=31+84$ ; 1981 йил учун чиқарилган кўрсаткичда  $187=81+106$ ; 1982 йил учун чиқарилган кўрсаткичда эса  $275=181+94$  тарзида бўлган.

Бўйимлар ичida тавсиф алифбо тартибида жойлаштирилган.

Навоий асарларидан олинниб, бошқа манбалардай босилган байтлар, тўртликлар, рубойлар ёки хикматли сўзлар, шунингдек, Навоий ғазалларига боғләнгән мухаммаслар, асарларига ишланган миниатюрапар ҳам акс эттирилган. Кўрсаткичлар исмлар рўйхати билан таъминланган.

1983 йилда Кўлёзмалар институтининг иммий ходими М.Ҳакимов томонидан "Навоий асарлари кўлёзмаларининг тавсифи" библиографияси тайёрландиган нашр эттирилди.

М.Ҳакимов тузган библиографияда Алишер Навоийнинг 1938-1980 йиллар давомида институт кўлёзмалар фондига тўплланган 24 асарининг 254

кўлёзма нусхаси манбашунослик характеристида тавсифлаб берилган.

Навоий асарларини кўчириган котибларнинг ҳаммаси ҳам ўз номини зикр килиб имзо чекматан, 254 кўлёзма нусхадан факат 65 тасида котиблар номи берилган. Улар орасида Али ибн Нур, Ибодуллоҳожа бинни Одилхоза Шоший, Мулло Тўхта ибн Мулло Нурмуҳаммад Кошғарий, Шермуҳаммад ибн Аваз Мироб валад Шермуҳаммад Мироб Хивакий каби ўз замонасининг йирик олим ва шоирлари номлари бор.

Кўлёзмалартасвиричингохиридатадқиотчиларга кулагийлик тұғдириси мақсадида бир неча ёрдам-



Шарқшунослик институтининг кўлёзмалар фондидаги Алишер Навоийнинг кўлёзмалари

## **8- Mavzu:** Alisher Navoiy “Ilk devon”idagi g’azallar va ularning keyingi tarixi.

Мусулмон Шарқи шеърияти тарихини Алишер Навоий лирикасиз тасаввур этиб бўлмайди. Унинг лирик мероси ўзигача яратилган форс-тожик ва туркий шеъриятнинг давоми бўлиш билан бирга барча замонлардаги ўзбек шеъриятининг энг юксак чўққиси ҳамдир. Ҳар иккала тилда юксак бадиий асарлар яратни олиш қобилиятига эга бўлган ҳассос шоир 45 минг мисрага яқин туркий тилдаги шеърлари ва 12 минг мисрадан ортиқ форс-тожик тилидаги назмий мероси билан ўша давр шеърияти ривожига катта ҳисса қўшди. Алишер Навоий болалик йиллариданоқ бадиий ижод билан шуғуллана бошлаган. “Уч ёш била тўрут ёшнинг орасида” форсигўй адаб Қосим Анворнинг байтини ёд ўқиб, йигилганларни ҳайратда қолдирган (“Мажолисун нафоис”) Алишер 15 ёшларида “малику-л-калом” Лутфийнинг таҳсинига сазовор бўлади. Адабиёт ихлосмандлари ундан девон тузишни илтимос қилганларидан, у ғоят камтарлик юзасидан девон тузиш учун ҳали вақт эрта деб ҳисоблайди. Шунда шоирнинг муҳлислари 1465-66 йилларда унинг шеърларини тўплаб, девон тузадилар ва бу девон ўз даврида “хаттотлар сultonи” номи билан машҳур бўлган Султонали Машҳадий томонидан настаълик хатида кўчирилади. Навоийнинг ўзи “Бадоёъу-л-бидоя”га ёзган дебочасида “...аммо ҳалойик аросида минг байт-икки минг байт ортуғроқ, ўксукракким ўзлари жамъ қилиб эрдилар, бағоят машҳур бўлуб эрди”, – деб ёзади. Девон уни нашрга тайёрлаган адабиётшунос олим Ҳамид Сулаймонов томонидан шартли равища “Илк девон” деб номланган бўлиб, 391 ғазал, 41 рубоий, 1 мустазод, 1 мухаммас – жами 434 шеърдан ташкил топган.

Девонга шоирнинг 1466 йилдан аввал ёзилган асарлари киргани учун ундаги шеърларнинг ёзилиш санаси нисбатан аниқ деб ҳисоблаш мумкин, шу сабабли бу девон шоирнинг ўспиринлик ва йигитлик давридаги ижоди ва таржимаи ҳоли ҳақида муайян тасаввур берувчи манба сифатида юксак қийматга эга. Девондаги ғазалларни кузатар эканмиз, бугунги кунда ҳалқ орасида машҳур бўлган қуйидаги ғазаллар айнан шоир ижодининг ilk даврида яратилганлигига гувоҳ бўламиз:

Кеча келгумдур дебон ул сарви гулрў келмади,  
Кўзларимға кеча тонг отқунча уйқу келмади...

Кўргали ҳуснунгни зору мубтало бўлдум санго,  
Не балолиг кун эдиким ошно бўлдум санго...

Навоий фалсафий тафаккурида муҳим қийматга эга бўлган “Анго” радифли ғазалнинг ҳам айнан шу девондан ўрин олганлиги шоирнинг ўша даврдаги юксак салоҳиятидан дарак беради. Ғазал матлаъсини келтирамиз:

Ҳар гадоким, бўриёйи факт эрур кисват анго,  
Салтанат зарбофтидин ҳожат эмас хилъат анго.

“Илк девон”даги барча шеърларнинг кейинчалик “Хазойину-л- маоний”га киритилганлиги уларнинг Алишер Навоий учун ҳам қадрли бўлганлигини кўрсатади.

Навоийшунос олим, филология фанлари доктори Афтондил Эркинов жаҳон қўлёзма фондларида сақланаётган нусхаларни ўрганиш асосида Алишер Навоийнинг ихлосмандлари томонидан тузилган яна бир девони қўлёзмасини аниклаб, 2012 йилда фанга маълум қилди. Мазкур девон шоирнинг Оққуюнлилар сулоласи (Озарбайжон ва Ғарбий Эрон ҳудудида 1378-1508 йилларда ҳукмронлик қилган ўғуз турклари) ҳукмронлиги ҳудудидаги мухлислари томонидан тузилган бўлиб, ҳозирча фанда шартли равишда “Оққуюнлилар девони” номи билан юритилмоқда.

Девон 1471 йил 25 декабрда Анисий тахаллуси билан шеърлар ёзган шоир ва хаттот Абдураҳим ибн Абдураҳмон Хоразмий томонидан Оққуюнлилар салтанатининг марказларидан бири бўлган Шероз шаҳрида қўчирилган. Девонда жами 229 та шеър бор: 224 ғазал, 1 мустазод, 3 муҳаммас ва 1 таржеъбанд. Бу мажмуадаги 224 ғазалдан 217 таси “Бадоєъу-л-бидоя”га ва фақат биттасигина “Наводиру-н-ниҳоя”га ўтган. Девондаги 90% ғазал «Илк девон»да учрамайди. Бу ҳолат мазкур ғазалларнинг катта қисми 1466 йилдан кейинги 5 йил орасида (1471 йилгача) яратилганлигини кўрсатади. Авваллари Алишер Навоийнинг туркий тилдаги шеърияти 4 босқичда: “Илк девон”, “Бадоєъу-л-бидоя”, “Наводиру-н-ниҳоя”, “Хазойину-л-маоний” тарзида ўрганилиб келинарди. Эндиликда мазкур девон топилгандан сўнг Алишер Навоий шеъриятини беш босқичда ўрганишга зарурат сезилади. Буни қуйидаги жадвалда кўриш мумкин:

Босқичлар Навоий девонлари Тузилиш муддати

I Илк девон 1465-66

II Оққуюнлилар девони 1471

III Бадоєъу-л-бидоя 1470-80

IV Наводиру-н-ниҳоя 1480-87

V Хазойину-л-маоний 1492-98

Оққуюнлилар салтанатининг асосий аҳолиси ўғуз турклари бўлгани учун мазкур қўлёзмада Алишер Навоий шеърлари ўғуз лаҗжасига мослаштирилиб қўчирилган. Масалан, Навоийнинг машҳур ғазали матлаъси ушбу девонда қуйидаги ҳолатда учрайди:

Мехр чўх кўрсатдим, аммо меҳрибоне допмадим,  
Жон басе қилдим фидо, ороми жоне допмадим.

Оққуюнлилар девони ҳозирда Мисрнинг Коҳира шаҳрида сақланмоқда.

Алишер Навоий Ҳусайн Бойқаро тахтга чиққанидан кейин унинг топшириғи билан ўзининг биринчи расмий девони “Бадоєъу-л-бидоя” (“Бадиийликнинг бошланиши”)ни тартиб беради. Девоннинг Алишер Навоий ҳаётлик даврида

(1480, 1482 ва 1486 йилларда) кўчирилган нусхалари Париж Миллий кутубхонасида (1480 йил, инв.№ 746), Британия музейида (1482 йил, инв.№ 401) ва Тошкент шаҳрида (1486 йил, инв.№ 216, асос нусха) сақланади. Девон мазкур нусхалар асосида филология фанлари номзодлари Ш.Шарипов ва М.Рахматуллаевалар томонидан нашрга тайёрланган (МАТ, 1-жилд).

Шоир бу девони учун маҳсус дебоча ҳам ёзиб, унда девон тартиб бериш масалаларига тўхталади ва қуидаги хусусиятларни алоҳида кўрсатиб ўтади:

1. “Аввал будурким, ҳар кишиким девон тартиб қилибдуур, ўттиз икки ҳарфдинки, ҳалойик иборатида вокиъдуур ва улус китобатида шойиъ, тўрт ҳарфга таарruz қилмайдуурлар...
2. Яна буким, ҳар ҳарф ғазалиётининг аввал битиган ғазал била ўзга ғазаллар орасида услуг хайсиятидин тафовут риоят қилмайдуурлар. Муқаррардурким, ҳар амрда бир лаҳза ҳақ субҳонаху ва таоло ҳамдидин ё расул алайҳиссалом наътидин, ё бу икки ишга далолат қилурдек бир амрдин ғофил бўлмамоғлиқ авлодур...
3. Яна бир буким, гўйиё баъзи эл ашъор таҳсилидин ва девон такмилидин ғараз мажозий ҳусну жамол тавсифи ва мақсад зоҳирий хатту хол таърифидин ўзга нима англамайдуурлар. Девон топилғайким, анда маърифатомиз бир ғазал топилмағай ва ғазал бўлғайким, анда мавъизатангиз бир байт бўлмағай...
4. Яна буким, сойир давовинда расмий ғазал услубидинким, шойиъдуур, тажовуз қилиб, маҳсус навъларда сўз арусининг жилvasifa намойиш ва жамолига оройиш бермайдуурлар. Ва агар аҳёнан матлаъе маҳсус навъда вокиъ бўлғон бўлса, ҳамул матлаъ услуги била итмол ҳилъатин ва анжом кисватин кийдурмайдуурлар, балки тугангунча агар бир байт мазмуни висол баҳорида гулоройлик қилса, яна бири фирок ҳазонида хорнамойлик қилибдуур... Ул жиҳатдин саъӣ қилиндиким, ҳар мазмунда матлаъе вокиъ бўлса, аксар андоғ бўлғайким, мақтаъгача сурат хайсиятидин мувофиқ ва маъни жонибидин мутобиқ тушкай”.

Алишер Навоий бу ўринда девонни ғазаллар билан бошлиш, ғазалларни 28 ҳарф эмас, балки 32 ҳарф (Ҷ – чим, Ї – же, Ӯ – гоф ва Ӳ – лом-алифни ҳам қўшган ҳолда) билан тугаллаш зарурлиги, девонга даставвал Аллоҳга ҳамд ёки Пайғамбарга наът мавзусидаги ғазалларни жойлаштириш, ғазалларга маърифат ва мавъиза мавзуларига доир байтлар киритиш, ғазал матлаъсида келтирилган фикрни мақтаъгача ривожлантириб бориш ва албатта, девонга жанр жиҳатдан ранг-баранг шеърларни киритишни назарда тутади.

Алишер Навоийнинг мазкур девони айнан юқоридаги қонун-қоидаларга амал қилинган ҳолда тартиб берилган бўлиб, унда 11 жанрга оид жами 1046 та шеър мавжуд. Девонга шеърлар қуидаги тартибда жойлаштирилган: ғазал – 777 та, мустазод – 3 та, мухаммас – 5 та, мусаддас – 2 та, таржиъбанд – 3 та, қитъа – 46 та, рубоий – 85 та, луғз – 10 та, муаммо – 52 та, туюқ – 10 та, фард – 53 та.

Алишер Навоий тузган иккинчи расмий девони “Наводибу-н-нихоя” (“Бехад нодирликлар”) деб аталиб, 1480-1487 йиллар оралиғида тузилган. Девоннинг 1487 йилда Ҳиротда машҳур хаттот Абдужамил котиб томонидан кўчирилган нодир қўлёзма нусхаси ҳозирда ЎзР ФА Абу Райҳон Беруний номидаги

Шарқшунослик институтида (инв. №11675, асос нусха) сакланмоқда. Шунингдек, девоннинг яна бир нисбатан тўлиқ нусхаси Султон Али Машҳадий томонидан Ҳиротда кўчирилган бўлиб, бу нусха ҳам ҳозирда ЎзР ФА Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик институтида (инв. №1995) сақланади. “Наводиру-н-ниҳоя” девони матни мазкур нусхалар асосида филология фанлари номзоди М.Рахматуллаева томонидан нашрга тайёрланган бўлиб, унда 862 шеър бор (МАТ, 2 жилд). Мазкур нашрдан ўрин олган шеърларнинг барчаси ғазал жанрига оид. Ушбу девондаги 64 ғазал “Ғаройибу-с-сигар”га, 331 ғазал “Наводиру-ш-шабоб”га, 213 ғазал “Бадоеву-л-васат”га ва 196 ғазал “Фавойиду-л-кибар”га киритилган. Ҳазрат Навоий “Наводиру-н-ниҳоя”даги ғазалларни кейинчалик “Хазойину-л-маоний”га киритганда кўпинча уларни таҳрир қилган, баъзи ғазалларнинг фақат матлаъсини сақлаб қолиб, қолган байтларини бутунлай ўзгартирган.

Девон Навоийнинг ҳамд мазмунидаги машҳур ғазали билан бошланади:

Зихи зуҳури жамолинг қуёш киби пайдо,  
Юзунг қуёшиға зарроти кавн ўлуб шайдо.

Алишер Навоий 1492-1498 йилларда Ҳусайн Бойқаронинг таклифи билан ўзининг барча шеърлари, жумладан, аввалги расмий девонларига кирган шеърларини ҳам тўплаб, “Хазойину-л-маоний” (“Маънолар хазинаси”) номли иирик куллиёт яратади. Куллиёт тўрт девонни ўз ичига олганлиги учун “Чор девон” деб ҳам юритилади. Куллиётнинг Санкт-Петербург (1498-99, инв. Хаников-55; 1592-96, инв. Дорн-558), Истамбул (1495-97, хаттот Дарвеш Мухаммад Тоқий кўчирган, инв. № 808), Париж (1525-27, котиб ал-Хижроний кўчирган, инв. № 316-317) нусхалари мавжуд бўлиб, улар асосида профессор Ҳ.Сулаймонов куллиётнинг илмий-танқидий матнини яратди (1959-60). Мазкур матн МАТнинг 3-6 жилларини ташкил этувчи девонлар учун асос бўлган. Алишер Навоий тўрт девоннинг ҳар бирига инсон умрининг фаслларига мослаб ном берди. Шу маънода 7-8 ёшдан 20 ёшгача бўлган даврни инсон умрининг баҳори деб атади ва куллиётнинг биринчи девонини “Ғаройибу-с-сигар” (“Болалик ғаройиботлари”) деб номлади. 20 ёшдан 35 ёшгача бўлган даврни инсон умрининг ёзи деб белгилади ва “Наводиру-ш-шабоб” (“Йигитлик нодирликлари”) деб атади. 35-45 ёшни умрининг кузига қиёс этди ва “Бадоеву-л-васат” (“Ўрта ёш гўзалликлари”) деб номлади. 45-60 ёшини умрининг қишига ўхшатиб, “Фавойиду-л-кибар” (“Кексалик фойдалари”) деб атади. Ҳар бир девонга 650 тадан ғазал киритди, шунга мувофиқ бошқа шеърий жанрларга ҳам жой ажратди.

Олим Ҳ.Сулаймоновнинг изланишлари шуни кўрсатадики, Навоий “Хазойину-л-маоний” куллиётини тузиш устида бир неча йил тинимсиз меҳнат қилган ва 1498 йилдагина уни ҳозирги ҳолатда тугал тарзда якунлаган. Навоий куллиёт девонларини ўзаро ички мустаҳкам боғлиқ ҳолда ва қатъий мутаносиблиқда тузадики, уларга кейинчалик бирорта ғазал киритиш ёки девонлар таркибидан тушириб қолдириш ва ҳатто ички ўрнини алмаштириш ҳам мумкин бўлмаган.

“Хазойину-л-маоний” куллиётининг ички тузилиши жаҳатидан ниҳоятда мустаҳкам тарзда тартиб берилганлигини шундан тасаввур қилиш мумкинки, Алишер Навоий ундаги тўрт девоннинг ҳар бирига тенг миқдорда 650 тадан ғазал жойлаштиргангина эмас, балки шу билан бирга, шу ғазалларнинг қофияланишига кўра ҳам ҳар бир девонда ўзаро тенг ва қатъий мутаносиб бўлишига жиддий аҳамият берган. Яъни, “алиф” ҳарфи билан тугалланувчи қофия ва радифли ғазаллар тўртала девонда ҳам 39 тадан, “бे” ҳарфи билан тугалланувчи қофия ва радифли ғазаллар 27 тадан ва х.к. тенг тарзда учрайди. Ёки яна бир мисол. “Хазойину-л-маоний” қуллиётида ҳаммаси бўлиб “Анго” радифли 12 ғазал мавжуд. Бу ғазаллар тўртала девонга учтадан тенг тарзда тақсимланган. Шунингдек, улар ҳар бир девонда бир ўринда, яъни 8-9- 10 ўринларда жойлаштирилган. Буларнинг барчаси куллиётнинг ниҳоятда мустаҳкам тартибда ўзаро мутаносиб ҳолатда тузилганлигини кўрсатади. Алишер Навоий “Хазойину-л-маоний” қуллиёти такмилини 1498 йилда тугатгандан сўнг бу санадан кейинги йилларда ҳам юксак ижодий суръат билан ишлашда давом этган. Шоирнинг ўзи қуллиёт дебочасида гувоҳлик беришича, бир кунда бир-икки, баъзан уч-тўрт ғазал ёзган пайтлари ҳам бўлган:  
Кун бор эдики бир ғазалу икки ғазал,  
Бал уч ғазалу тўрт ғазал баъзи маҳал...

Навоийшунос А.Абдуғафуровнинг ёзишича, Навоий ҳаётининг сўнгги йилларида ҳам ана шундай катта илҳом ва жиддий суръат билан баракали қалам тебратган ва кейинги икки йилдан ортиқ вакт давомида кўплаб ғазал, қитъя, рубоий, мухаммас ва бошқа лирик жанрларда асарлар яратган . Олим бу лирик шеърлар ўрин олган бир неча манбаларни келтиради:

1. “Муҳокамату-л-луғатайн”да шоир ўзбек адабиёти ва жонли сўзлашув тилининг бойлигини кўрсатиш мақсадида кўплаб сўз ва ибораларнинг ёзма адабиётда ишлатилишига мисол тариқасида ўз шеъриятидан байтлар келтиради. Келтирилган байтларнинг аксарияти тахаллус билан якунланувчи мақтаъ эканлиги ҳазрат Навоийнинг мазкур ғазали тугал ҳолда мавжуд бўлганлигини кўрсатади.
2. Баъзи тазкиралар, хусусан, Ҳасанхожа Нисорийнинг “Музаккири ахбоб” тазкирасида келтирилган мақтаъ байт Навоий девонларининг ҳеч бирида учрамайди.
3. Захириддин Муҳаммад Бобурнинг “Рисолаи аруз” асарида Навоий ижодидан рамал баҳри учун мисол тариқасида келтирилган қирқ олти ғазал матлаъларининг биттаси куллиёт таркибида кирмаганлигининг гувоҳи бўламиз.
4. Алишер Навоий асарларига XV-XVIII асрларда тузилган луғатлар, хусусан, “Бадоеъу-л-луғат”, “Абушқа”, “Санглоҳ” луғатларида кўплаб сўзларнинг изоҳи учун келтирилган айрим мисол байтлар ҳам “Хазойину-л-маоний”да учрамайди.
5. Алишер Навоий ғазалларига битилган кўплаб тахмислар таркибидаги шоир қаламига мансуб байтлар ажратиб олинганда уларнинг баъзилари “Хазойину-л-маоний” қуллиётида мавжуд эмаслиги маълум бўлади .  
Буларнинг барчаси Алишер Навоий умрининг сўнгти йилларида ҳам ижод

қилишдан бир лаҳза тўхтамаганлигини кўрсатади.

Алишер Навоий форсий тилда битган шеърларини ҳам йифиб, "Девони Фоний" номли тўплам тузди. Бизгача девоннинг бир неча қўлёзма нусхалари етиб келган. Булардан 2 таси Париж (инв. № 285, 1345), 2 таси Туркия (инв. № 3850, 1952), ва бир нусха Техрон (инв. № 15002) кутубхоналарида сакланади. Бу нусхалар орасида Париждаги 285 рақамли қўлёзма нисбатан мукаммал ҳисобланади.

Академик Б.Валихўжаев "Девони Фоний" нусхаларини ўрганиб чиқиб, улардаги шеърий жанрлар миқдорини қуидагича деб кўрсатади: 10 қасида, 554 ғазал, 1 мусаддас, 1 марсия, 72 қитъа, 73 рубой, 16 таърих, 373 муаммо, 9 луғз. Олим уларнинг миқдорини 1109 та деб белгилаб, умумий ҳажми 6179 байт эканлигини таъкидлайди.

Кўринганидек, Алишер Навоийнинг барча шеърий мероси 9 девонда жам бўлган бўлиб, уларнинг иккитаси ихлосмандлари томонидан тузилганлиги Навоий шеърларига ҳамма даврларда, хусусан, ўз даврида ҳам юқори даражада эҳтиёж бўлганлигидан дарак беради.

### АДАБИЁТЛАР:

1. Навоий Алишер. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. – Т.: Фан, 1987-1988. 1-2- жиллар.
2. Навоий Алишер. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. – Т.: Фан, 1988-1990. 3-6- жиллар.
3. Навоий Алишер. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. – Т.: Фан, 2003. 20- жилд.
4. Навоий Алишер. Айёми висол ўлди яна: Янги топилган ғазаллар (Нашрга тайёрловчи Ф.Сулаймонова). – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1995.
5. Навоий Алишер. Хазойинул маоний (Илмий-танқидий текст асосида нашрга тайёрловчи Ҳ.Сулаймонов). 4 жилдлик. 1-4-жиллар. – Т.: Фан, 1959-1960.
6. Исҳоқов Ё. Алишер Навоийнинг илк лирикаси: Филол. фан.номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссерт. – Т., 1963.
7. А.Абдуғафуров. "Хазойину-л-маоний"дан четда қолган ғазаллар// Навоийнинг ижод олами (мақолалар тўплами). – Т.: Фан, 2001.
8. Эркинов А. Навоийнинг муҳлислари томонидан тузилган яна бир девони // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т.: Фан, 2012. – № 1.
9. Ўзбек адабиёти тарихи. Беш жилдлик. 2-жилд (XV асрнинг иккинчи ярми). – Т.: Фан, 1977.

## **9-Mavzu:** Porso Shamsiyev adabiy manbashunos va matnshunos.

Порсо Шамсиев (1897.10.2, Бухоро — 1972.21.3, Тошкент) — навоийшунос ва матншунос олим. Филология фанлари доктори (1970), Ўзбекистонда хизмат кўрсатган фан арбоби (1972). Бухоро мадрасаларида таҳсил кўрган.

30-йиларга қадар мадраса, мактаб ва маориф йўналишидаги муассасаларда хизмат қилган. Ўзбекистон Давлат нашриёти (1931—36) ва Ўкувпедагогика нашриёти (1936—40) да муҳаррир, Ўз ФАН нашриётида муҳаррир (1941—45), Тил ва адабиёт интида катта илмий ходим (1945—72).

«Адабиётдан иш китоби», «Адабиёт дарслиги», «Ўзбек тили дарслиги», «Ўқиш китоби» (1- ва 2-китоблар) муаллифи. Навоийнинг «Муҳокамат ул-луғатайн», «Мажолис ун-нафоис», «Маҳбуб ул-қулуб» ва бошқа асарларининг илмий-танқидий матнини нашрга тайёрлаган ҳамда шоир асарларининг 15 жилдлигини нашр этишда фаол катнашган.

«Хамса»нинг илмий-танқидий матнини яратиб, мазкур матн юзасидан амалга оширилган текстологик тадқиқотларини докторлик диссертацияси сифатида ҳимоя этган.

Порсо Шамсиев, бундан ташқари, Хондамирнинг «Макорим ул-ахлоқ» асарини форс тилидан ўзбек тилига таржима килган, Бобурнинг «Бобурнома» (С.Мирзаев билан ҳамкорликда) асарининг илмий нашрини яратган, 5 китобдан иборат «Ўзбек адабиёти» мажмуасини тузиш, таҳrir этиш ва изохлар ёзишда иштирок этган.

Ш. Британия музейида сақланаётган ва Абдужамилга нисбат берилган «Тухфат ул-салотин» асари микрофильмини ўрганиб, унинг Навоий ғазалларидан олинган ва Абдужамил хаттот томонидан кўчирилган шоҳбайтлар эканини ва мавзу бўйича 45 фаслга бўлинганини аниклаган.

Порсо ШамсиевFaфур Ғуломнинг 4 жилдли «Танланган асарлар»и ва 2 жилдли «Адабий-танқидий мақолалар»ини ҳам нашрга тайёрлаган. Порсо Шамсиев шунингдек, С.Иброҳимов билан ҳамкорликда «Ўзбек классик адабиёти луғати» (1953) ва «Навоий асарларининг луғати» (1972)ни тузган.

Тошкент кўчаларидан бирига Порсо Шамсиев номи берилган.

П.Шамсиев матншунослик фаолиятининг яна бир ўзига хос жиҳати унинг ўзбек адабиёти намояндлари, жумладан, Faфур Ғулом асарларини нашрга тайёрлаш жараёнида кўринади. Олимнинг F. Ғулом билан дўст ва ҳамкорлиги ғоят самимий ва самарали кечганини шогирдлари кўп бор таъкидлашган. 1953-1957 йиллари унинг тўрт жилдлик мажмуаси кўп жиҳатдан Порсо Шамсиевнинг саъй-харакатлари натижасида юқори савияда тайёрланди. Олим буни шоир таваллудининг 50 йиллигига бағишлигаган эди. Матншунос олим Алишер Навоий

асарлари ҳақида, адабий алоқалар хусусида анчагина илмий мақола ва тақризларнинг муаллифидир.

У Абдуқодир Ҳайитметов билан ҳамкорликда яна бир хайрли ишни амалга оширди. Матншунос 1958 йили ўзбек адабиёти тарихида ўзига хос из қолдирган ажойиб сўз санъаткори Бобораҳим Машраб ижодидан баъзи намуналарни тўплаб нашр эттириди. Бу Машраб ижодини ўрганишдаги дастлабки қадамлардан бири бўлди. Олим ундаги шеърларни “Девони Машраб” китобининг, асосан, XIX асрда кўчирилган ва Ўзбекистон Фанлар академияси Шарқшунослик институтида сақланаётган литография нашрларидан танлаб олди. Китобга шоирнинг 49 та ғазал, 3 та мустазод, 6 та мухаммас ва 1 та мусаддаси киритилган.

Порсо Шамсиевнинг матншуносликдаги фаолияти фақат мумтоз адабиёт намояндадари, хусусан, Алишер Навоий асарлари билан чегараланиб қолган эмас, албатта. Устоз олти томлик “Ўзбек адабиёти” (хрестоматия, Тошкент 1958-1968) ва “Ўзбек поэзияси антологияси” (беш жилдли, Тошкент, 1961-1962) нинг нашрларида ҳам фаол қатнашди. Айниқса, олим С. Мирзаев билан биргаликда Захириддин Муҳаммад Бобурнинг “Бобурнома” асарини араб алифбосидан табдил қилгани ва тўлиқ нашрини амалга оширгани матншуносликдаги катта воқеа бўлган эди. Бу китоблар кейинги тадқиқотлар учун ҳам муҳим манбага айланди. Шунингдек, Абдураҳмон Жомийнинг Навоий, Навоийнинг эса Жомий ҳақида ёзганларини йиғиб, алоҳида сўз боши билан “Абдураҳмон Жомий ва Алишер Навоий” номли тўпламни эълон қилгани ҳам таҳсинга лойик [2].



Ушбу китоб Алишер Навоийнинг улуғ форс-тожик шоири ва олими Абдураҳмон Жомий ҳақида ўзининг турли асарларида баён қилган қимматли ва тарихий фикрлари йиғиндисидир. Бу тўпламда китобхон Жомий билан Навоий орасидаги яқин муносабат, чин дўстлик ва ҳамкорликка оид энг муҳим маълумотларга эга бўлиши билан бирга, мавлоно Жомийнинг ҳаёти, илмий ва адабий фаолиятининг айрим лавҳалари билан ҳам танишишга мұяссар бўлади. Тўпламнинг яна бир муҳим жиҳати шундаки, унинг ичida Навоийнинг Жомийга бағишлиб ёзган ва илмий жамоатчилик учун ғоятда зарурий манба бўлган “Хамсату-л-мутаҳайирин” асари илк маротаба нашр эттирилган эди. Бундан ташқари, П. Шамсиев таржимон сифатида ҳам фаолият юритган. У Навоийнинг биринчи биографи Хондамирнинг “Макориму-л-ахлоқ” асарини

форс тилидан ўзбекчага таржима қилиб, кенг жамоатчиликка тақдим этди. Кейинчалик бу таржима бир неча маротаба нашр эттирилди. 1972 йилда устознинг 70 йиллик юбилейи кенг нишонланди. Олимнинг кўп йиллик самарали меҳнатлари учун “Ўзбекистонда хизмат кўрсатган фан арбоби” унвони билан тақдирланган эди.

П.Шамсиев 1973 йилнинг 23 марта вафот этди.

Олим томонидан нашрга тайёрланган ва тугалланмай қолган бир қатор матншунослик тадқиқотлари чоп этилмай қолди. Хусусан, “Хамса” достонларининг илмий-танқидий матнини бир жилдда чоп эттириш, Абдулжамил котиб тайёрлаган “Тухфату-с-салотин” асари, мумтоз асарларнинг кўп жилдли изоҳли луғати, Навоийнинг “Лайли ва Мажнун” ва “Садди Искандарий” достонларининг илмий-танқидий матни (араб ёзувида), Навоийнинг барча асарларидаги ҳикоятлардан тузилган тўплам шулар жумласидандир.

Олим вафотидан сўнг унинг тугалланмай қолган ёки тайёр бўлиб, нашр этишга улгурмаган ишларини шогирдлари устоз хотираси учун якунлаб қўйдилар. Хусусан, Абдулжамил котибнинг “Тухфату-с-салотин” асари 2007 йил Суйима Фаниева томонидан нашр қилингани бунга мисолдир.

Меҳнатсеварлик Порсо Шамсиевга хос хусусият эди. Ярим аср мобайнида минг босма табоқдан ортиқ асарлар бевосита П.Шамсиевнинг иштироки ёхуд таҳрири остида нашр этилишининг ўзиёқ унинг улкан меҳнатсеварлигидан далолат бериб турибди.

Абдураҳмон ЖОМИЙ (тахаллуси; асл исм-шарифи Нуриддин Абдураҳмон ибн Аҳмад) (1414.7.11, Жом — 1492.8.11, Ҳирот) — форс-тоҷик шоири, нақшбандийлик тариқатининг йирик вакили. Жомийнинг ота-боболари асли Даշтдан бўлиб, Жомда, кейинчалик Ҳиротда ҳаёт кечиришган. Жомий мадраса ёшидан анча эрта Ҳиротдаги «Дилкаш» (Навоий маълумотига кўра, «Низомия») мадрасасига кириб, ўз даврининг таникли тил, адабиёт олимлари ва мударрислари қўлида таҳсил олган. Шу даврда ёк у араб тилини мукаммал ўргана бошлаган. Кейинроқ у ўз билимини ошириш учун Самарқандга келади ва Улугбек мадрасасида буюк фалакиётшунос Қозизода Румий, Али Қушчи, фикҳшунос Фазлуллоҳ Абуллайс қабилардан таълим олади. Бу йилларда у тил ва адабиётнигина эмас, риёзиёт, фалакиёт, фалсафа, ҳукуқшунослик фанлари, дин асослари, ҳадис ва тафсир илмларини хам чукур ўрганади, олимларнинг турли мавзулардаги мунозара ва мубоҳасаларида қатнашиб, етук олимлиги б-н танила бошлайди.

Жомий Ҳиротга қайтгач, тасаввуф йўлига киришни, ўз билим ва фаолиятини шу йўлга, қолаверса, ижодга, илм-фанга бағишлиашни афзал кўради. У ўзига пир қилиб Шайх Саъдиддин Кошғарий (вафоти — 1456)ни танлайди, Ҳиротнинг жоме масжидида унинг сухбатларини тинглайди. Саъдиддин Кошғарий

тасаввуфда Мухаммад Нақшбанд сулукига мансуб эди. Жомий машхур суфийлар б-н яқиндан мулокотда бўлади. Мұхйиддин ибн ал-Арабийнинг асарларини чуқур мутолаа қиласи. Ўзининг мутасаввилик фаолиятида Баҳоуддин Нақшбанд ғояларини шу сулукнинг иккинчи бир йирик намояндаси — Хўжа Аҳрор Валий б-н яқин муносабатда бўлган ҳолда янада ривожлантириди. Расман ўзини қундалик «Маломатия» тариқатига мансуб деб хисобласада, асарларида Нақшбандга ихлоси баланд бўлган.

Жомий Хурросонда темурийлардан Шоҳруҳ, Абулқосим Бобур, Абу Саид ва Ҳусайн Бойқаро подшоҳлиги даврида яшади. Хурросонда Ҳирот тахтига темурий Султон Ҳусайн Бойқаро ўтиргандан сўнг Жомийнинг мамлакатдаги мавқеи жуда ортади, чунки Султон Ҳусайн ва унинг кўп авлодлари ўзларини унга мурид, деб эълон қилганлар.

Жомий 1472 й. хажга боради. Бу сафари вактида Нишопур, Сабзавор, Бастом, Домғон, Қазвін, Ҳамадон, Карбало, Бағдод, Дамашқ, Ҳалаб, Табриз каби бир қанча шаҳарларда бўлади. Унинг шахсий мактубларидан маълум бўлишича, яқин дўсти Хўжа Аҳрор Вали таклифи б-н Тошкентда ҳам бўлган ва улуғ мозоратларни зиёрат қилган.

Жомий катта ер-мулк эгаси бўлган. У Алишер Навоий б-н биринчи марта Абу Саид хукмронлиги даврида Хиёбон мавзесида ҳамма қатори кўришган. Шунда Жомий унга ўзининг бир рисоласини тақдим қилган. 1476—77 й.ларда Навоий ҳам Жомийни ўзига пир, деб танийди. Гарчи Жомийнинг Навоийдан ёши анча улуғ, расман пир ҳисобланса ҳам, моҳиятан улар чин дўст ва ҳамкор бўлганлар. Жомий ўзининг («Нафаҳотулунс», «Баҳористон» ва б.) бир қанча асарларида Навоийни, Навоий ҳам ўз асарлари («Хамсат ул-мутаҳайирин», «Мажолис ун-нафоис» ва б.)да Жомийни хурмат б-н тилга олади.

Жомий «Нафаҳот ул-унс» («Азизлар нафаси»), «Рисолаи мусиқи» («Мусиқа рисоласи»), «Рисолаи муаммо» («Муаммо рисоласи») каби ўндан ортиқ асарини Навоий маслаҳати б-н ёзган. Шоир вафотидан сал бурун лирик шеърларини З девонга бўлиб, уларга «Фотихат уш-шабоб» («Ёшликнинг бошланиши»), «Воситат ул-икд» («Ўртадаги дур») ва «Хотимат ул-хаёт» («Ҳаёт хотимаси», 1479—91) деб ном берар экан, бунда Навоий маслаҳатини эътиборга олган эди. Навоий ва Жомийнинг дўстлиги адабий ҳамкорлик б-н чегараланмаган. Навоий Ҳусайн Бойқаро саройида бош вазир бўлиб турар экан, ўз сиёсий ва ижтимоий фаолиятида Жомийдан маслаҳатлар олиб турган. Масалан, Султон Ҳусайн Кундуз вилоятига қарши юришга отланмоқчи бўлганда, Жомий Навоийдан подшоҳни бу сафардан қайтаришни илтимос қилган. Саройдаги фитна ва фужурлар Навоийнинг жонига тегиб, у ўз вазифасидан кетмоқчи бўлганда Жомий уни бундай қарордан воз кечтирган. Чунки Навоийдек ҳалқпарвар арбоб саройдан кетса, ҳалқ ва мамлакат аҳволи янада оғирлашишини у яхши ту шунар эди.

Жомий ўз асарларини форс-тожик тилида ёзган, араб тилини ҳам яхши билган. Хоразмлик тилшунос Ибн ал-Хожибнинг араб тили нахв (синтаксис)и ҳақидаги «Ал-Кофия» дарслигига 1492 й.да ғоят яхши шарҳ битган. Бу китоб Марказий Осиё ва Яқин Шарқ мамлакатларида сўнгги вақтларгача мактаб ва мадрасаларда араб тилидан қўлланма бўлиб келди. Навоий берган маълумотга кўра, Жомий туркий тилни яхши билган.

Жомийдан улкан ва рангбаранг адабий ҳамда илмий мерос қолган. Баъзи олимлар шоир асарларининг умумий сони 100 га яқин деб тахмин қиласидилар. Навоий «Хамсат ул-мутахайирин»да унинг 38 асарини номма-ном санаб кўрсатади. Жомий асарлари фалсафа, тасаввуф, тилшунослик, адабиётшунослик, санъат соҳаларига ҳамда назм ва насрнинг ҳар хил жанрларига оид.

Жомийнинг ижодий фаолияти кўп қиррали бўлса ҳам у Шарқ халқлари маданияти тарихида кўпроқ гениал шоир ва мутафаккир — олим сифатида танилган. Бу жиҳатдан унинг эпик ва лирик мероси ғоят дикқатга сазовордир. Сўнгги аср адабиётшунослари ҳақли равишда уни форс-тожик адабиётининг ilk тараққиёт даврдаги (10—15- а.лар) буюк мутафаккир-ижодкор деб атайдилар. Жомий асарларининг бир қисми диний ва фалсафий мазмунга эга булиб, уларда шоир ислом дини ва шарқ фалсафасининг бир қатор масалаларини ўз қарашича талқин этади, тасаввуфнинг 15-а.даги йирик арбоби сифатида ўз фикр-мулохазаларини баён этади. Бунга унинг «Нақши фусус» («Маънолар нақши»), «Шавоҳиди ну- бувва» («Пайғамбарликка далиллар»), «Шарҳи қасидайи «Тоия» («Радифда «то» ҳарфидан фойдаланиб ёзилган қасида шарҳи»), «Нақди нусус» («Матнни танқид»), «Шарҳи қасидайи «Хамрия» («Хамрия» қасидаси шарҳи»), «Нақшбандия таълимоти ҳақида рисола», «Воҳид» атамаси ҳақида рисола», «Зикр» шартлари ҳақида рисола», «Ҳаж қилиш йўллари ҳақида рисола» каби бир қанча асарларини шу гурухга киритиш мумкин.

Жомий фалсафасининг асосини тасаввуфий ғоялар ташкил этади. Унинг тасаввурида Худо жонли мавжудот бўлмай, ёруғ нур кўринишига эга. Ҳамма нарсани яратган ягона Худо гўзал маъшуқага ўхшаган бўлиб, мингларча ойнада турли қиёфада ва кўринишида намоён бўлади. У юонон файласуфи Ялоҳимнинг жилоланиш («эмансация») фалсафасини давом эттиради ва янада ривожлантиради. Унинг фикрича, дунёдаги ҳамма нарса- лар келиб чиқиши ва моҳияти эътибори б-н илоҳийдир.

Жомийнинг «Лужжат ул-асрор» («Сирлар денгизи», 1475), «Ашиат ул-ламоат» («Йилтиллаган нур», 1476) диний-фалсафий қасидаси Ибн Синота бағишлиланган. Достонларида халқ оммасининг энг яхши орзу-умидларини куйлаган. 7 достондан иборат «Ҳафт авранг» («Етти тахт» ёки «Катта айик», 1480—87)даги «Силсилат уз-заҳаб» («Олтин занжир, 1472), «Тухфат ул-аҳрор» («Нуронийлар тухфаси», 1481—82), «Сибҳат ул-аброр» («Тақводорлар тасбеҳи», 1482—83) достонларида юксак хулқ-атвор мезонларини тарғиб қиласидиларни маърифатга, юртпарварликка, тўғрилик, инсоф ва иймонга чақирган. «Юсуф ва

Зулайҳо» (1483), «Лайли ва Мажнун» (1484), «Саломон ва Абсол» (1479—80) достонлари ишқий мавзуда. «Хирадномаи Искандарий» достони (1485) Низомийнинг «Искандарнома»-сига тақлидан ёзилган.

18- а. охири ва 19- а.нинг бошларида Муҳаммад Ризо Огаҳий Жомийнинг «Юсуф ва Зулайҳо»сини ўзбек тилига таржима қилган.

Адабиётшунос ва тилшунос олим сифатида ҳам Жомий хизмати улкандир. У ўзининг «Баҳористон» тазкирасида форс-тожик адабиётининг бир қанча намояндлари ва Навоий ҳақида қимматли маълумотлар беради. Унинг «Рисолаи аruz» асари аruz ҳақидаги энг мукаммал қўлланмалардан биридир. Жомий «Нафахрт ул-унс» асарини ёзиш б-н тасаввуф тарихини ўрганишга катта ҳисса қўшди. Унда 616 мутасаввиф ҳаёти ва фаолияти ҳақида маълумот берилган бўлиб, улардан 34 нафари аёллардир. Ушбу асарни Навоий маълум бир тўлдиришлар б-н ўзбек тилига таржима қилган. Жомий фақат машҳур суфийлар ҳақида маълумот бериш б-н чекланмай, қатор шоир ва адиларнинг ҳаёти ва ижодига ҳам тўхталади. Навоий бу асарни ўзбек тилига «Насоим ул-муҳаббат» («Муҳаббат шабадалари») номи б-н таржима қиласар экан, уни ўзбек шоирлари ва адилари ҳақидаги маълумотлар б-н тўлдиради.

Жомий муаммо ҳақида 4 рисола («Рисолаи муаммойи кабир», «Рисолаи муаммойи му- тавассит», «Рисолаи муаммойи сағир», «Рисолаи муаммойи манзум»), рубоийлар шархи, кофия қакида 2 рисола ёзган, машҳур қасидаларнинг бир қанчаларига алоҳида-алоҳида шарҳлар битган.

Жомий мусиқа соҳасида ҳам катта обрўга эга бўлиб, «Нақши Мулла» («Нақши Имома») асари муаллифидир. Шарқ мусиқа илми тарихида унинг «Рисолаи мусики»си ҳам алоҳида ўрин тутади. Рисола кириш, икки йирик қисм — «илми таълиф» ва «илми ийқоъ» ҳамда хотимадан ташкил топган бўлиб, улар ўз ичига 23 фаслни қамраб олган. Жомий ўзининг мусиқий назарий ва мусиқий-эстетик қарашларида Абу Наср Форобий, Абу Али ибн Сино, Сафиуддин Урмавий ва Абдулқодир Мароғийларнинг мумтоз анъаналарини давом эттирган. Асосий дикқатини ўша давр амалиёти б-н боғлиқ бўлган парда (лад) тизимлари (жинс, жам, «Ўн икки мақом», шўъба ва б.) ҳамда усул (ритм) масалаларига қаратган. Жомийнинг мусиқавий тафаккури адабий-бадиий ижодида ҳам ўз ифодаси- ни топган.

Асрлари ўзбек тилига таржима қилиниб, бир неча марта нашр этилган. «Кофия шарҳи рисоласи», «Шарҳи Мулло» (ёки «Мулло Жомий») Марказий Осиё ва Идил (Волга) бўйи татарлари мадрасаларида араб тили грамматикасидан дарслик сифатида ўқитилган. Ўзбекистон ва Тожикистоннинг бир қанча жамоа хўжаликлари, кўчалар, мактаблар Жомий номи б-н аталади. Самарқанд шаҳрида Навоий б-н Жомий ҳайкали ўрнатилган (1970).

## **10-Mavzu: Tarixiy asarlar. Tarixiy asarlarning tuzilishi va o'ziga xos xususiyatlari. Тарихий, ёднома ва турли мавзудаги асарлари**

**РЕЖА:**

1. “Зубдату-т-таворих” мумтоз тарихнавислик манбаси.
2. Навоий ёдномалари – мемуар жанрининг юксак намунаси сифатида.
3. “Муншашт” асарининг туркий эпистоляр жанри тараққиётидаги ўрни.
4. “Маҳбубу-л-қулуб” ахлоқий-таълимий асар.

Алишер Навоийнинг олим сифатидаги фаолияти унинг нафақат тилшунослик, адабиётшунослик, балки тарихшуносликка доир асарлари билан ҳам белгиланади. У ушбу фан тараққиётига ўзининг “Тарихи анбиё ва ҳукамо” ҳамда “Тарихи мулуки ажам” асарлари билан улкан ҳисса қўшди .

Алишер Навоийнинг “Тарихи анбиё ва ҳукамо” рисоласи ислом дини манбаларига асосланган асар бўлиб, пайғамбарлар – расул ва набийлар ҳамда ҳаким зотлар – алломалар тарихига бағишиланган. Шу маънода асарни шартли равишда икки қисмга бўлиш мумкин:

1. Анбиё – пайғамбарлар тарихи.
2. Ҳукамо – ҳаким зотлар тарихи.

Даставвал, Одам Ато (а.с.) қиссаси ҳикоя қилинади. Унда Одамнинг яратилиши, Иблиснинг Олий Даргоҳдан қувилиши, сўнг Одам ва Момо Ҳаввонинг ер юзига туширилиши билан боғлиқ ҳикоялар келтирилади.

Ҳазрат Навоий пайғамбарларни анъанага биноан икки гуруҳга бўлади: расул ва набийлар. Расулларга Аллоҳ китоб ва сахифа нозил қилган бўлиб, улар “мурсалин” номи билан аталади. Набийлар эса фақат ваҳий олган пайғамбарлар бўлиб, уларга китоб нозил қилинмаган (туширилмаган).

Алишер Навоий пайғамбарлар ҳақида сўзлаб, уларнинг яшаган даврларига тўхталади, аниқ йилларни келтиради (Масалан, Маҳойил бинни Қинон 865 йил яшаган). Шунингдек, пайғамбарларнинг аҳли аёли, фарзандлари, касбу кори ҳақида маълумот берилади. Пайғамбарзодаларнинг ҳаммасига ҳам пайғамбарлик мақоми берилмаган, уларнинг баъзиларигагина Аллоҳдан ваҳий тушган.

Масалан, Одам Атонинг невараси Ануш, унинг ўғли Қинон кабилар бу шарафга ноил бўла олмаганлар. Шу тариқа муаллиф олтмишдан зиёд пайғамбар ва пайғамбар авлодларининг ҳаёти, таржимаи ҳолини батафсил ёритади.

Зикр этилганлар сирасида “Қуръон”да номи тилга олинган барча пайғамбарлар, Луқмони Ҳаким, Зулқарнайн каби ваҳий тушган ё тушмагани ихтилоғли бўлган валий зотларни ҳам кўришимиз мумкин. Мазкур асарда бир замонда бир неча пайғамбарлар яшагани ҳам айтилади. Масалан, Исҳоқ (а.с.) вафот этган йили Юсуф а.снинг Миср ҳокими бўлгани ва ҳоказо. Шунингдек, “Қуръон”да тилга олинган “Асҳоби каҳф” қиссаси ҳам мазкур асардан ўрин олган.

Пайғамбарлар қиссаси ҳажман ўзаро фарқланади. Баъзи пайғамбарлар, масалан, Хизр (а.с.) ҳақида қисқа маълумот билан чекланилса, Юсуф (а.с.), Иброҳим (а.с.), Мусо (а.с.) ва Исо (а.с.)ларнинг ҳаётига доир жуда кўп воқеалар баён қилинади.

Алишер Навоий Юсуф (а.с.) ҳақидаги қиссани баён қилишга киришаркан, Фирдавсий Тусий ва Абдураҳмон Жомийлар ҳам мазкур мавзуда достон

ёзганларини айтиб, ўзининг ҳам туркий тилда маснавий ёзиш нияти борлигини билдириб ўтади.

Мазкур қисмда келтирилган маълумотларнинг бош манбаси Қуръони карим бўлиб, муаллиф ўз фикрларини асослаш учун муайян оятларни ҳавола қилиб боради. Яна бир эътиборли жиҳати, Алишер Навоий пайғамбарларнинг иймони, сабри ва юксак фазилатларини алоҳида тасвирлайди. Масалан, Айюб (а.с.)нинг бошига тушган ташвиш ва балолар ҳам уни Аллоҳга ибодат қилишдан тўсмаганини айтаркан, бу билан севги ва дўстликнинг собит бўлиши ҳакидаги ғояларини баён қиласди.

Асарда ҳар бир пайғамбар қиссасидан сўнг муайян шеърий парчалар келтирилади. Шоир уларни “маснавий”, “рубойй”, “байт”, баъзан эса “шеър” ёки “назм” номлари остида бериб боради. Мазкур шеърий парчаларда қиссаси ҳикоя қилинган пайғамбар номи тилга олинади ва фалсафий хулосалар чиқарилади. Алишер Навоийнинг “Тарихи анбиё ва ҳукамо” асарининг иккинчи қисми ҳукамолар тарихига бағишлиланган бўлиб, бу қисм умумий асарнинг тахминан тўртдан бир қисмини ташкил этади. Ҳукамолар тарихи анбиёларнига нисбатан қисқа бўлиб, умумий маълумотлар билан чекланилган. Алишер Навоий Луқмони ҳаким, Фишогур (Пифагор), Жомосб, Буқрот (Гиппократ), Буқротис, Суқрот (Сократ), Афлотун (Платон), Аристотелис (Арасту), Балинос, Жолинус (Гален), Батлимус (Птолемей) каби юонон файласуфлари ва Содик, Бузургмехр каби форс ҳакимларининг, жами ўн уч нафар олимнинг тарихини қисқача ёритади. Ҳар бир ҳикоядан кейин анъанавий тарзда бир байт шеър илова қилиб борилади.

Биз мазкур асардаги пайғамбарлар билан боғлиқ анъанавий воқеаларни “Қисаси Рабғузий” ва “Шажарайи турк” каби туркий тилда яратилган бошқа кўплаб асарларда ҳам учратамиз. Умуман олганда, Алишер Навоийнинг “Тарихи анбиё ва ҳукамо” асари дин тарихига бағишлиланган асар бўлиб, бу ўринда муаллиф дин тарихи ҳамда юонон фалсафаси билимдони сифатида намоён бўлади.

Алишер Навоийнинг “Тарихи мулуки Ажам” (“Араб бўлмаган шоҳлар тарихи”) асари ўз даври нуқтаи назаридан илмий далилларга асосланган рисола: ҳисобланади. Асарда Эрон ва Турон мулкида ҳукмронлик қилган тўрт сулола: пешдодийлар, каёнийлар, ашконийлар, сосонийлар тарихи батафсил ҳикоя қилинади.

Анъанага мувофиқ тарих Одам Ато (а.с.) даврига боғлиқ равишда талқин қилинади. Алишер Навоий мазкур асарда “Низому-т-таворих”, “Жомеу-т-таворихи Жалолий”, “Насиҳату-л-мулук”, “Жовидон хирад”, “Одобу-л-араб ва а-л-фурус”, “Гузидা”, “Мунтаҳаб”, “Девону-н-насаб” каби манбалардан фойдаланади ва Банокатий, имом Мухаммад Ғаззолий, Табарий, Бу Али Мискавайх, Қози Барзовий каби тарихчи олимларнинг номларини келтириб, маълумотларни уларнинг асарларидан олганини айтиб ўтади. Шоирлардан Абулқосим Фирдавсий ва унинг “Шоҳнома”сига кўпроқ мурожаат қиласди. Исқандар ҳакидаги қиссада эса ҳамсанавислар Ҳусрав Дехлавий, Низомий Ганжавийларнинг қараашларини келтириб ўтади.

Алишер Навоий масалага нуктадон муаррих – тарихчи олим сифатида ёндашар экан, ҳар бир маълумотнинг аниқ ва асосли бўлишига алоҳида эътибор қаратади.

Алишер Навоий пешдодийлар сулоласига мансуб 11, каёнийлар сулоласидан 9, ашконий сулоласидан 15, сосонийлар сулоласидан 28, жами тўрт сулоладан 63 ҳукмдорнинг номлари, уларнинг таржимаи ҳоли, ҳаёти ва юритган сиёсатига доир маълумотларни тақдим этади. Деярли ҳар подшоҳ қиссасидан кейин анъанага мувофиқ “шеър” номи остида қисса мазмунига уйғун байтлар илова қиласди. Бундан ташқари, тўрт сулола ҳукмдорлари ҳақидаги қиссаларнинг сўнггида ҳам умумий якунловчи маснавийлар мавжуд.

Алишер Навоий мазкур асарида тарихга оид жуда қизикарли ва аҳамиятли кўплаб маълумотларни беради. Балх, Бобил, Нишопур, Марв, Самарқанд ва яна ўнлаб шаҳарларни бунёд қилган шоҳлар, Наврўз байрамининг келиб чиқиши, рўзанинг пайдо бўлиши, бутпастликнинг сабаблари билан боғлиқ воқеалар шулар жумласидандир.

Ҳазрат Навоий шоҳлар ҳақида сўзлар экан, адолатли султонларни олқишлиайди, уларнинг хайрли тақдирини мамнуният билан ҳикоя қиласди, золим ва мустабид ҳукмдорларга салбий муносабат билдириб, уларнинг аянчли кечмишига ибрат назари билан боқишига ундейди. Масалан, Жамшид ҳақидаги ҳикояда шоҳ Жамшид дастлаб адолатли ҳукмдор бўлганлигини, кейинчалик эса ўз қудратига ишониб, кибру ҳавога берилганлигини ва одамлардан ўзига сифинишини талаб қилганлигини қоралайди.

Алишер Навоий Нўширавони Одил ҳақида маълумот берар экан, унинг сосонийлар сулоласига мансуб ўн тўққизинчи ҳукмдор эканлигини, отасининг исми Кубод бўлганлигини айтиб, Нўширавоннинг адолатига алоҳида урғу беради ва бир қатор машҳур ҳикоятларни илова қиласди. Ҳикоятлардан бирида айтилишича, Нўширавон даврида бир киши боғ сотиб олади. Бу боғдан хазина топиб олгач, боғ сотган кишининг олдига бориб, олтинларни унга бермоқчи бўлади. Боғни сотган одам: “Боғга қўшиб, ерни ва ундаги ҳамма нарсани сенга сотганман, олтинлар сенга тегишли”, – деб жавоб беради. Уларнинг бу “можароси” Нўширавоннинг қулогига ҳам етиб боради ва у икки кишини чақириб, қуда бўлишни ва хазинани барпо этилажак янги оиласа беришни маслаҳат беради. Бу ҳикоятда ҳукмдор адолатли бўлса, халқда ҳам инсофу иймон бўлади, деган фалсафий хулоса мавжуд.

Алишер Навоий Искандар ҳақида тўхталар экан, унинг тарихи ихтилофли эканлигини айтади ва гарчи, у каёнийлар сулоласи вакили сифатида келтирилсада, бу борада ҳам турли тахминлар мавжуд, деб таъкидлайди. Шоир Искандар ва унинг туғилиши, насл-насаби тўғрисида гапира туриб, Хусрав Дехлавийнинг “Ойинайи Искандарий” ва Низомий Ганжавий “Искандарномаси”даги маълумотларни ўзининг “Садди Искандарий”сида келтирган маълумотлари билан қиёслайди. Ўртадаги фарқларни айтиб ўтади. Самарқанд, Ҳирот, Марв ва Исфаҳонни Искандар бунёд қилгани билан боғлиқ маълумотларни ҳам келтириб ўтади.

Навоий номларини келтирган 63 ҳукмдор ичida уч аёл подшоҳ исми ҳам зикр этилган бўлиб, улардан бири каёнийларнинг олтинчи ҳукмдори Ҳумой ёки Ҳумондур. У каёнийлар ҳукмдори Баҳманинг аёли бўлиб, шоҳ вафот этганда ҳомиладор эди. Баҳман жон бериш пайтида тожини аёлининг қорнига қўяди ва

оламдан ўтгач, аркони давлат Ҳумойни подшоҳ қилиб кўтаради. Ҳумой ўғил фарзанд кўргач, салтанатга меҳри зўрлиги ёки ўғлининг хавфсизлигини ўйлаб, уни сандикқа солиб дарёга оқизади ва сандикқа ўғлининг подшоҳзода эканини англатувчи ёқутларни ҳам солади. Тақдир тақозоси билан ўғли улғайиб, онасини топади. Ҳумой унга давлат бошқарувини топширади.

Алишер Навоий тилга олган кейинги икки аёл подшоҳ сосонийларнинг 27- ва 28-хукмдорлари Турондўхт ва Озармдўхтдир. Шоир уларнинг тахтга чиқиши ва хукмдорлик даври билан боғлиқ қизиқарли фактларни келтиради. Бу икки аёл подшоҳ опа-сингил бўлиб, 23-подшоҳ Ҳусрав Парвизнинг қизлари эди.

Алишер Навоий “Тарихи мулуки Ажам” асари орқали тарих билимдони қиёфасида намоён бўлади. Асадаги юзлаб географик номлар, юзлаб шахсларнинг исми-шарифи ҳамда юзлаб воқеалар муаллифнинг кучли хотирасидан ҳам дарак беради.

Асаднинг хотимаси маснавий тарзида бўлиб, 50 байтдан иборат. Унда Навоий бевосита Шоҳ Ғозий – дўсти Султон Ҳусайн Бойқарога мурожаат қиласи. Унингadolati ва саховатини, инсон сифатидаги юксак хулқини мадҳ қиласи. Шоҳни ягона жавҳарга қиёслайди ва шунинг учун ҳам унга “Назму-л-жавоҳир” асарини бағишлиб ёзганини айтади. Ва айнан Ҳусайн Бойқаро тарихини битиш нияти борлигини билдиради:

Вале азмим эмди будурким худой,  
Агар бўлса умрумға муҳлат физой.  
Чекиб турфа тарихингга хомани,  
Қилиб нуктаға тез ҳангомани...  
...Валодат кунидан тутуб то бу дам,  
Борин шарҳ ила айлагаймен рақам.

Шу тариқа хотима-маснавийнинг сўнгги байтларида Навоий шоҳсиз жаҳонга омонлик бўлмаслигини айтиб, Ҳусайн Бойқарога яхши тилаклар билдиради, дуосини йўллайди ва ўзи ҳам дуолардан умидвор эканини айтиб, асарни якунлайди.

Хуллас, Алишер Навоийнинг “Тарихи мулуки Ажам” асари шоирнинг тарихчи олим сифатидаги яна бир муҳим киррасини очиш билан биргаликда Шарқ халқларининг тарихидан кенгроқ хабардор бўлиш имкониятини беради.

Алишер Навоий ўзининг уч устозига бағишлиб уч ёднома – маноқиб яратган. Маноқиб юксак фазилатли, валий ва ўзига хос хислат эгаларининг таржимаи ҳоли, сийрати ва сажиясини акс эттирувчи мумтоз жанр ҳисобланади.

Шундай асарлардан бири Навоийнинг пири, устози Абдураҳмон Жомий хотирасига бағишлиланган “Ҳамсату-л-мутаҳайирин” (“Беш ҳайрат”) асари ҳисобланади. Муаллиф кириш қисмида асар мундарижасини келтиради. Унга кўра, мазкур асар муқаддима, уч мақолат ва хотимадан иборат.

Асар муқаддимасида Алишер Навоий Абдураҳмон Жомийнинг насл-насаби, болалиги, умр йўли ҳақида тўхталади. Шунингдек, Жомийнинг хизматига қачон келганлиги ҳақида ҳам хабар беради. Шоир муқаддимада Абдураҳмон Жомийнинг болалиги ҳақида ҳикоя қилиш асносида қизиқ воқеани келтиради.

Бир куни замонасининг пири муршидларидан ҳисобланмиш Фахриддин Луристоний Жом вилоятига – Абдураҳмон Жомийнинг уйларига келади. Ўша пайтларда тўрт-беш ёшлар атрофида бўлган Абдураҳмон жуда сезгирилик билан улуғ муршиднинг ҳаракатларини кузатади ва шайх бармоқлари билан “Умар” ва “Али” сўзларини ҳавога ёсса, илғаб олиб, ўқиб беради. Буни кўриб, Фахриддин Луристоний боладаги зийракликдан ҳайратга тушади. Ҳазрат Навоий Жомийнинг умр йўли билан боғлиқ маълумотларни келтириб, устозининг Шоҳруҳ Мирзо замонидан Абусайд замонигача Ҳирот шаҳрида яшаганлигини айтади. Сўнг авлиё Саъдиддин Кошғарий мозори қошида маскан тутади. Шундан сўнг умрининг охиргача шу ерда яшайди.

Асарнинг иккинчи қисми “Аввалғи мақолот” деб аталиб, ҳазрат Навоий ўзи ва устози ўртасида бўлиб ўтган қизиқ ва ибратли воқеалар, маънавий суҳбатлар хусусида маълумот беради. Мазкур қисмда Абдураҳмон Жомий ва Алишер Навоий иштирокидаги ўн тўрт воқеа келтирилган. Уларнинг барчаси турли вақт ва ҳолатларда рўй берган бўлса-да, устоз ва шогирднинг, балки икки дўстнинг меҳру муҳаббати, садоқати, ҳамфирлилиги ҳакидаги хуносаларни беради. Масалан, Навоий келтирган воқеалардан бирида котиб Абдуллоҳнинг Алишер Навоийга шайх Хожа Абдуллоҳ Ансорийнинг “Илоҳийнома” китобини кўчириб келтирганлиги қаламга олинади.

Котиб китобни ташлаб кетгач, Алишер Навоий бир варақлаб кўриш баҳонасида икки қисмдан иборат йирик асарни бир ўтиришда ўқиб тугатиб кўяди. Эртаси куни котиб Абдуллоҳ шоирдан китобни қайтаришини ёки ҳақини тўлашини сўрайди. Шунда атрофдагилар унга Алишер Навоий китобни қўлига олиб, бир зарб билан ўқиб тугатганлигини айтадилар. Ҳайратга тушган котиб: “Кеча китобни ҳазрати Махдуми Нуран – Абдураҳмон Жомийга ҳам элтиб эдим, ул зот ҳам худди шу тарзда уни хатм қилиб эдилар”, - дейди. Шунингдек, яна бир қизиқ воқеа келтирилади: Бир мажлисда Удий исмли ҳофиз Хожа Ҳасан Дехлавийнинг ғазалини куйлади. Шунда ғазалнинг

Мисоли қатри борон сиришки ман ҳам дур шуд,  
Чунин асар диҳад, алҳақ, тулуи чун ту суҳайле

“Менинг ёмғир томчиси каби кўзёшларим инжуга айланди, ҳақиқатан, сенинг суҳайл юлдузидай чиқишинг шундай таъсирлантиради” байтига келганда мажлис аҳли мисрадаги “дур” сўзидан кўра кўзёшли қонга ўхшатилганлиги бадиий таъсирчанликни оширади, дейишади. Ҳамма шундай фикр айтиб, Навоийдан ҳам фикр сўрайдилар. Шоир ғазалдаги ифоданинг ўзи чиройли, лекин буни исботлаб беролмайман, келинглар, бир кишини ҳакам қиласиз, у тўғри фикрни айтсин, гаров ўйнаймиз, дейди. Ҳамма рози бўлади ва ғазал байти Абдураҳмон Жомийга юборилади. Байтдаги “дур” ёки “хун” (“қон”) сўзларининг қайси бири маъқул эканлигини сўрашади. Шунда Жомий:

Сухан дурр асту тааллук бу гўши шаҳ дорад –

“Сўз – дур, шохнинг қулоғига тегишли” мазмунидага бир мисрани битиб юборади. Давра ахли жавобнинг нозик ва қисқалигидан, Навоий ва Жомийнинг шу қадар ҳамфир эканлигидан ҳайратга тушадилар. Бу воқеа бутун Ҳиротга тарқалиб кетади, мажлисларда узоқ вақт айтиб юрилади.

Яна бир воқеада бир қурилишга сарв дарахтлари кесилиб олиб кетилаётгани билан боғлиқ ҳолат тилга олинган. Аравада қурилишга сарв дарахтларини олиб кетилаётганини кўрган Жомий аравакашдан сарв дарахт қолдими, нечта ёғоч олиб кетяпман, деб мутойиба билан савол берса, бир юз тўртта дейди. Навоий адад, ахир, сарв ёрнинг қаддига қиёсдир, “қад” сўзининг адади ҳам бир юз тўртдир дейди. Жомий Навоийнинг заковатига қойил қолади.

Асарнинг иккинчи мақолати Алишер Навоий ва Абдураҳмон Жомий бир-бирига ёзган хатлари хусусида. Бу мактублар Жомий ҳам, Навоийнинг ҳам баъзи асарлари таркибишга киритилган. Айнан шу қисмда Алишер Навоий ўзининг “Тухфату-л-афкор” қасидасининг ёзилиши тарихига ҳам тўхталиб ўтади.

Мақолатда ёзилишича, бир куни Алишер Навоий ва Жомий сухбатлашиб ўтирганларида Хусрав Дехлавийнинг “Дарёйи аброр” қасидасидан сўз кетади. Сўз асносида Навоий Хусрав Дехлавийнинг “Агар афлок ҳаводиси ва рўзигор навоийбидин менинг борча назмим замона саҳифасидан маҳв бўлса ва бу қасидам қолса, менг басдир, невчунким, ҳар киши ани ўқиса билурким, назм мулкида менинг тасарруф ва иқтидорим не мартабада эркантур” мазмунидаги фахриясини эслаб ўтади. Бироз вақт ўтиб Жомий Маргва равона бўлади.

Ҳазрат Навоий Жомий ҳузурига борганида Жомий “Дарёйи аброр”га татаббу тарзида ёзилган “Лужжату-л-асрор” қасидасини Навоий эътиборига ҳавол қиласи. Навоий қасидани ўқиб, ғоят таъсирланганлигидан йўлда бу қасидага татаббу тарзида матлаъни битиб, агар Жомийга маъқул келса, уни давом эттириши мумкинлигини айтади. Жомийга бу матлаъ маъқул келиб, уни якунлашга Навоийни илҳомлантиради.

“Учинчи мақолат”да Жомий яратган асарлар таърифига бағишланган бўлиб, мазкур фаслни жомийшуносликнинг пойдевори деб айтиш мумкин. Унда Навоий Жомийнинг 38 асарининг номини келтирган.

“Хотима”да Навоий устози Жомий ҳузурида ўқиган асарлари рўйхатини келтиради. Бу асарларнинг баъзилари Абдураҳмон Жомий қаламига мансуб бўлса (“Рисолаи қофия”, “Рисолаи муаммо”нинг иккинчи дафтари, “Рисолаи аruz”, “Лавоөх” (“Ялтироқликлар”), “Лавомеъ” (“Равшанликлар”), “Шарҳи рубоийёт”, “Нафаҳоту-л-унс” (“Дўстлик таровати”), “Ашиъату-л-ламаот” (“Порлоқ шуълалар”), “Шавоҳиду-н-нубувват” (“Пайғамбарлик шоҳидлари”), “Хафт авранг”), қолганлари Хожа Мухаммад Порсонинг “Қудсия”, Фахриддин Ироқийнинг “Ламаот”, Хожа Убайдуллоҳ Ахрорнинг факт ва фано тўғрисидаги рисолалари, Абдуллоҳ Ансорийнинг “Илоҳийнома” асари ва бошқалар эди.

Шунингдек, хотимада Жомийнинг хасталиги, вафоти, давн қилиниш тафсилотлари ҳам келтириб ўтилади.

Абдураҳмон Жомий вафотидан бир йил кейин Навоий устози қабри устига катта мақбара қурдиради, Султон Ҳусайн Бойқаро иштирокида катта маросим ўtkазиб,

бу маросимда ўзининг вафотига бағишлиб ёзган таърих ва марсиясини ўз даврининг машхур нотиги Мавлоно Ҳусайн Воиз Кошифийга ўқиттиради. Мазкур марсия кейинчалик “Девони Фоний” таркибидан ўрин олган. “Холоти Сайид Ҳасан Ардашер” маноқиби Сайид Ҳасан Ардашер вафотидан иккى йил кейин – 1490-91 йилларда яратилган. Алишер Навоий Сайид Ҳасан Ардашер билан биринчи марта ҳижрий 860 йил – милодий 1455-56 йилларда Султон Иброҳим Мирзо таҳтга ўтирган йили учрашиб, танишган. Буюк шоирнинг бу зотга алоҳида ҳурмат ва эҳтиром билан қараганлигини йигитлик даврида унга бағишлиб шеърий мактуб – маснавий битганлиги, унинг номини “Мажолису-н-нафоис”, “Насойиму-л-муҳаббат” асарларига киритганлиги, “Ҳазойину-л-маоний”даги таркибанд-марсияни буюк зот вафотига бағишилаганлиги, “Соқийнома”да унинг номини алоҳида эслаб ўтганлиги ҳам кўрсатади.

Навоий бу зотнинг сарф (морфология), нахв (синтаксис), луғат, араб тили, мантиқ, калом (эътиқод илми), фикқ (ислом ҳуқуқшунослиги), ҳадис, тафсир (Куръон оятлари шархи), муаммо ва таърих илми, нужум илми (астрономия), адвор (мусиқа назарияси) соҳаларида мукаммал билимга эга бўлса-да, ғоят камтарлик ва одоб юзасидан мажлисларда сукут сақлаб ўтиришларини чуқур ҳурмат билан қайд этади. Сайид Ҳасан Ардашер Лутфий, Атоий, Муқимий, Навоий, форсигўй ижодкорлардан Хожа Ҳофиз Шерозий, Саъдий Шерозий, Фаридиддин Аттор асарларини севиб мутолаа қилган. Айниқса, ҳазрат Навоийнинг қуидаги байтларини такрорлаб юришни хуш кўрган:

Фурқатингдин заъфарон узра тўкармен лолалар,  
Лолалар эрмаски, бағримдин эрур парголалар...

Ул паривашким, бўлубмен зору саргардо анга,  
Ишқдин олам манга ҳайрону мен ҳайрон анга.

Навоий бу зотни ринdlар шоҳи деб атар экан, Сайид Ҳасан Ардашер саховат, шафқат, лутфу тавозе, одоб, ҳилм (юмшоқ табиатлилик), таҳаммул (сабрлилик), дунёга бефарқлик каби бошқа ҳамма ринdlарга ҳам насиб этавермайдиган кўплаб нодир фазилатлар эгаси бўлганлигини таъкидлайди. Сайид Ҳасан Ардашернинг бу каби фазилатларини Навоий бир неча воқеалар мисолида исботлаб беради. Масалан, Султон Ҳусайн Бойқаро ҳам Сайид Ҳасан Ардашернинг жуда чуқур ҳурмат қилиб, саройда вазир сифатида ўз ёнида бўлишини истаган. Бироқ “ринdlар шоҳи” бўлган Сайид Ҳасан Ардашер розилик бермайди ва шоҳнинг раъини қайтармаслик учун лашкарда оддий навкар бўлиб икки йил хизмат қиласди. Лекин султон бу билан у зотга зулм қилаётганлигини англайди ва хизматдан озод қиласди. Ҳусайн Бойқаро ўз фарзандларига Сайид Ҳасан Ардашерни ҳамиша ўrnak қилиб кўрсатган. Асарда Сайид Ҳасан Ардашернинг пок эътиқоди, Ҳаққа муҳаббати, Аллоҳнинг тақдирига ҳамиша рози эканлигини таъкидлар экан, Навоий бир воқеани келтиради. Унга кўра, Сайид Ҳасан Ардашернинг Сайид Мухаммад исмли ўн

тўрт ёшли яккаю ягона ўғли вафот этганида ҳамма ғаму қайғуга тушганида бу зот “Аллоҳнинг иродаси”, дея сабр билан мусибатни енгади, ҳатто, бошқаларга таскин беради.

Ҳазрат Навоий ва Сайид Ҳасан Ардашер жуда яқин дўст эдилар. Улар ҳамиша, ҳар куни бир-бирларига маънавий-руҳий эҳтиёж сезардилар. Алишер Навоий бу ҳолатни шундай ифодайди:

“...бир кун алар мулозаматига етмасам эрди, сабру тоқатим қолмас эрди ва алар ҳам келиб аҳвол сўрарлар эрди: “Ташвише бўлмамиш бўғайким, букун сендин хабар топа олмадук”.

Сайид Ҳасан Ардашер ҳажга боришни ният қиласи эди, лекин кўп монеъликлар бўлиб бу ниятига эришолмайди. Навоий давлат юмуши билан Ҳиротдан ташқарида эканлигида Сайид Ҳасан Ардашер етмиш тўрт ёшида вафот этади. Бундан буюк шоир чуқур қайғуга ботади, Ҳирот шимолидаги тоғ этагида дўсти ва устози ҳисобланмиш бу зотнинг қабри устига сафана қурдиради. Кейинчалик Сайид Ҳасан Ардашернинг бошқа яқин инсонларининг хоклари ҳам бу ерга келтирилиб, шу ерга дағн этилади. Эл орасида бу жой “Азизлар ҳазираси” – “Азиз зотлар хилхонаси” деб ном олади.

“Ҳолоти Сайид Ҳасан Ардашер” якунида бу зотнинг вафоти санасига бағишланган таърихни илова қиласи, унга кўра бу сана “Жаннати покаш макон бод” (“Макони пок жаннатда бўлсин”) жумласида намоён бўлади.

Хулоса тарзида шуни айтиш мумкинки, Алишер Навоий Сайид Ҳасан Ардашерни комил инсон сифатида тасвирлайди. Асарни ўқиш жараёнида Сайид Ҳасан Ардашернинг маънавий-руҳий дунёси билан яқиндан танишар эканмиз, улуғ шоир бу зотни бежиз комил инсон сифатида танламаганлигига гувоҳ бўламиш.

Ҳазрати Алишер Навоий учун ҳам дўст, ҳам ота, ҳам устоз мақомида бўлган зотлардан бири Паҳлавон Мухаммад эди. Бу зотнинг вафотидан сўнг улуғ шоир “Ҳолоти Паҳлавон Мухаммад” асарини ёзди. Асада Паҳлавон Мухаммаднинг эзгу амаллари, барчага бирдек ёқимли феъл-атвори, кучли салоҳияти ҳақида сўз боради.

Навоий Паҳлавон Мухаммад ҳақида сўз бошлар экан, аввало, унинг жисмоний жиҳатдан забардаст ва кучли бўлганлигини айтади. Ҳатто, унинг каби кучли инсон беш юз, минг йилларда ҳам туғилмайди, дейди. Сўнг унинг юксак илмий истеъдод ва иқтидори ҳақида тўхталиб, унинг мусиқа, тиббиёт, шеърият, қофия, аruz, бадиий санъатлар, илми нужум (астрономия), фикҳда кенг маълумотга эга бўлганлигини таъкидлайди. Айниқса, мусиқа борасида жуда иқтидорли бўлиб, бир неча ғазалларга куй боғлаган эди. Масалан, Устод Мухаммад Хоразмий, Мавлоно Нуъмон, Мавлоно Соҳиб Балхий, Шайх Сафойи Самарқандий, Ҳожа Юсуф Андижоний каби моҳир созанда ва бастакорлар йўлида яратган куйлари тингловчилар томонидан илиқ кутиб олинган. Айниқса, Мир Бузург Термизийга бағишлиб кашф қилган “Чоҳоргоҳ” куи бутун Хурросонда, ҳатто, Самарқанд ва Ироқда ҳам бағоят машҳур бўлиб, уни куйламаган бирор ҳофиз бўлмаган.

Муаммо илми борасида ҳам Паҳлавон Мұхаммад тенгсиз бўлиб, “Күштигир” тахаллуси билан бир қанча муаммолар яратган.

Паҳлавон Мұхаммад ғоят хушахлоқ инсон бўлиб, уни Ҳиротда барча таниган-билган инсонлар яхши кўриб, хурмат қилганлар: “Такаллуфсиз ва муболағасиз подшоҳдин гадоғача ва ахлуллоҳдин яхуд ва тарсоғача Паҳлавонни севмас ва тиламас киши йўқ эрди”.

Шунинг учун ҳам, Паҳлавон Мұхаммад султон ҳузурида юксак мавқега эга бўлиб, шоҳнинг ҳар бир мажлисида иштирок этган.

Навоий Паҳлавон Мұхаммад билан боғлик хотираларини эсларкан, Абу Сайд Мирзо даврида Машаҳадда бўлган қизиқарли воқеани келтиради. Мафосил (бод, ревматизм) билан оғриган ёш Алишер Навоийни табиб Мавлоно Абдуссалом Шерозий муолажа қилиб, уқалаш лозим эканлигини айтади. Паҳлавон Мұхаммад меҳрибонлик кўрсатиб, ўзи бу ишни бажаришини айтади ва сухбат орасида ёш шоирдан туркий шоирлардан қайси бирини кўпроқ маъқул кўришини сўрайди. Навоий аввалига ҳамма шоирларни хурмат қилишини айтади. Лекин Паҳлавон Мұхаммад барибир улар орасида тафовут бор, ўзингга энг маъқулини айт, деб туриб олгач, Навоий Лутфий, дея жавоб беради. Шунда Паҳлавон Мұхаммад нега Сайд Насимиини айтмадинг, дейди. Алишер Навоий Лутфий мажоз билан сўз айтади, Насими эса ҳақиқат йўлидагилар каби Ҳақ ишқни ошкора куйлади, сен мендан мажоз йўли билан ижод қиласиганларни сўрадинг, дейди.

Паҳлавон Мұхаммад ундей эмас, Насимида ҳам ишқни мажоз билан ифода этиш бор дейди ва шу куни Навоий тонгда ёзиб, ҳали ҳеч кимга кўрсатмаган ғазалини ўқиб беради ва унинг мақтаъсидаги Навоий сўзи ўрнига Насимиини кўяди:

Гар Навоий сиймбарлар васлин истаб кўрса ранж,  
Йўқ ажаб, невчунки, хом этган киши ранжур эрур.

Навоий бундан ҳайратга тушади. Ғазал ёзилган қофозини текширса, ўз жойида. Эртаси тонгда Паҳлавон Мұхаммад уч-тўрт кишини етаклаб келиб, бу ғазални ўн икки йил бурун Абулқосим Бобур мажлисида “tinglab, ёд олганини” исботлаш учун уларни гувоҳ қиласиди. Улар ҳам бу ғазални ўша мажлисдан эшитганмиз, деб ғазални ёддан айтиб берадилар. Навоий эса янаем ҳайрон бўлади. Кейинчалик маълум бўладики, шу куни ёш шоирнинг либосларини тикаётиб, Паҳлавон Мұхаммад янги ғазални топиб, олиб ёд олади ва жойига кўяди. Сўнг эса биз юқорида кўриб ўтган ҳолатни уюштиради. Шундан сўнг Алишер Навоий беморлиқдан кутулади.

Бу ерда биз Паҳлавон Мұхаммаднинг беғубор ҳазилига гувоҳ бўлиш билан биргаликда оёғи боддан азият чекаётган Навоийнинг касалини даволаган ҳам дея оламиз. Чунки ўзи ёзган ғазални бошқа шоирга нисбат бериб ўқилганидан кейин Навоий бу ҳолатни таҳлил қилиб, оёқ оғригини ҳам унтиб юборади. Бу эса оёқдаги касалликни бош орқали чиқариб юборишидир, эҳтимол.

Навоий ва Паҳлавон Мұхаммад қирқ йил давомида дўсту ҳамсуҳбат бўладилар:

“Қирқ йилға яқин бу фақир била мусоҳиби жоний, маҳрами рози пинҳоний эрди”.

Навоий Паҳлавон Муҳаммаднинг вафот этганини чуқур алам ва ғам билан тасвирлайди. Бир куни Паҳлавон Муҳаммаднинг шогирдларидан бири унинг аҳволи оғирлашиб қолганлигини айтадилар. Навоий табиб юборади. Бирордан сўнг табиблар етиб боргунларича Паҳлавоннинг вафот этганлиги тўғрисида хабар келади.

Паҳлавон Муҳаммад Султон Ҳусайн Бойқаро унинг учун атаб маҳсус қурдирган Неъматободдаги даҳмага дағн этилади. Шоир унинг хотирасига бағишилаб ёзган таърихида Паҳлавоннинг вафоти санаси “баъди Махдуми ба як сол” (“Махдумдан бир йил кейин”) жумласида аниқланади. Чунки Паҳлавон Муҳаммад маҳдуми нуран – Абдураҳмон Жомийдан бир йил ўтиб, бу фоний дунёни тарк этган эди.

“Муншаот” асари Алишер Навоийнинг турли вақтда турли шахсларга йўллаган мактубларидан иборат тўплам бўлиб, Мусулмон Шарқи иншо санъатининг туркий тилда яратилган юксак намуналаридан ҳисобланади. Мазкур асар устида адабиётшунос олимлар С. Фаниева, Ю. Турсунов ва К. Эргашевлар илмий изланишлар олиб бориб, “Муншаот”нинг хос хусусиятларига доир тадқиқот ва мақолалар яратганлар.

Хусусан, Ю. Турсунов 2001 йилда “Муншаот”ни бугунги кун ўзбек тилига мослаб, нашр эттириди . Олим мазкур китобнинг сўзбошисида асарнинг ўзига хос хусусиятлари ҳақида тўхталиб, “Муншаот”ни нашрга тайёрлаш жараёнида асарнинг бир неча қўлёзма нусхалари қиёсан ўрганиб чиқилганлигини ва улар таркибидаги мактублар сон жиҳатдан фарқланишини таъкидлайди. Ю.Турсунов Санкт-Петербургдаги Давлат Халқ кутубхонасида 588-тартиб рақами билан сақланувчи “Муншаот” таркибида 60 та, бошқа кўплаб нусхаларда 90 та атрофида, ниҳоят Алишер Навоийнинг ўзи тузган “Куллиёт”га киритилган “Муншаот”даги мактублар сони 104 та эканлигини маълум қилади. Олим бу ҳолатни Алишер Навоийнинг мактублари турли даврларда яратилганлиги ва кейинроқ ёзилган хатлар асосида “Муншаот” таркиби тўлдириб борилганлиги билан изоҳлайди. Ю. Турсунов амалга оширган “Муншаот” нашри Истанбулдаги Тўпқопи саройи кутубхонасида 808-рақам остида сақланаётган Алишер Навоий асарлари куллиётининг қўлёзма нусхаси асосида бўлиб, мазкур нусхадаги “Муншаот” бошқаларига нисбатан тўлиқроқ ҳисобланади, яъни 107 мактубни ўз ичига олади .

Мусулмон Шарқида мактуб иншо санъатини ўзида намоён қилиб, унда мактуб битувчининг бадиий салоҳияти, нуктадонлиги, сўзга ҳассослиги акс этган ва бу хатларда маҳсус ахборот етказишдан кўра чуқур мазмуннинг мавжудлиги устувор ҳисобланган. Алишер Навоий “Муншаот” муқаддимасида бу ҳақда тўхталиб, форсий тилда ёзилган мактублардаги жимжимадорлик, нозиклик, мазмунан теран байтларнинг туркий тилда битилган мактубларда мавжуд эмаслигини, аксинча, туркий тилдаги хатларнинг бадиийликдан йироқ бўлганлигини таъкидлаб, турли шеърий парчалар билан безалган гўзал

мактубларни туркий тилда ҳам ёзиш мумкинлигини исботлаш мақсадида ўзи ёзган хатларни тўплаб, тақдим этаётганлигини маълум қиласди.

Ҳақиқатан ҳам, Алишер Навоий “Мунашот”и таркибига кирган мактублар моҳияти билан танишиш натижасида шу нарса маълум бўладики, ҳар бир мактубда турли бадиий санъатлар: ўхшатиш, истиора, ташбех, муболага ва сажъ усулидан жуда кўплаб ўринларда фойдаланилган. Бундан ташқари, деярли ҳар бир хатда Қуръон оятлари, ҳадислар, рубоий, байт, маснавий, шеърий парчалар келтирилган бўлиб, улар хат юборилган инсонга фикрни янада таъсирчан тарзда етказишида хизмат қиласди.

Алишер Навоийнинг “Муншаот” асаридаги мактублар турли воқеа-ҳодисалар муносабати билан шоирнинг дўсти Султон Ҳусайн Бойқарога, шаҳзодаларга ва бошқа шахсларга йўлланган бўлиб, улар мазмунан насиҳат, йўл-йўриқ кўрсатиш руҳидадир. Хатларда турли тарихий шахслар номлари, уларнинг ҳаёти билан боғлиқ ибратли жиҳатлар тилга олиниб, Алишер Навоий бу орқали мактуб йўлланаётган одамни тўғри йўлга чақиради.

Умуман олганда, Алишер Навоийнинг “Муншаот” асари Мусулмон Шарқи иншо санъатининг юксак намунаси бўлиш билан бирга ўз даврининг ижтимоий-сиёсий, маданий-маънавий ҳаёти ҳақида хабар берувчи муҳим манба сифатида ҳам ғоят қимматлидир.

“Маҳбуб ул-қулуб” (“Кўнгилларнинг севгани”) ҳазрат Навоийнинг умри поёнида ёзган сўнгги асари бўлиб, 1500 йилда яратилган. Асар ахлоқий-таълимий мазмунда, буюк мутафаккирнинг бой ҳаётий тажрибаси ва хулосалари асосида яратилган, Навоийнинг ўзи бу ҳақда асар муқаддимасида шундай ёзади:

“...Бу навъ асҳоб ва аҳбобға интибоҳ қилмоқ ва аларни бу навъ ҳолатдин огоҳ қилмоқ вожиб кўрундики, ҳар тоифа хисолидин вуқуфлари ва ҳар табака аҳволидин шуурлари бўлганки, муносиб эл хизматига шитоб қилғайлар ва номуносиб эл суҳбатидин ижтиноб вожиб билгайлар ва бори эл била маҳфий розларин сўзлашгайлар ва шаётин ва инс макру фирибдин бозий емагайлар. Ва ҳар навъ эл суҳбат ва хусусияти, аларга ҳавас бўлғай, бу факирнинг тажрибаси аларға бас бўлғай”.

“Маҳбубу-л-қулуб” асари З қисмга бўлинади. Биринчи қисм “Халойиқ аҳвол ва афъол ва ақволининг кайфияти” деб аталиб, 40 фаслни ўз ичига олади. Унда султонлардан тортиб дарвешларгача бўлган 49 ижтимоий табака ва гуруҳларнинг тавсифи келтирилади. Навоий биринчи фаслда аввалги асарларида бўлгани каби ҳукмдор энг аввало адолатли бўлиши керак деган масалани қўяди ва одил подшо Аллоҳнинг фуқарога юборган раҳматидир, унинг адолати мамлакатга омонлик ва фаровонлик олиб келади дейди:

“Одил подшоҳ ҳақдин халойиққа раҳматдур ва мамоликка мужиби амният ва рафоҳият”. Навоий ана шундай одил подшо сифатида Султон Ҳусайн Бойқарони мадҳ этади:

Бори бенаволар навосози ул,

Хамул навъким, Шоҳ Абулғози<sup>н</sup> ул,  
Келиб айни инсону инсони айн,  
Жаҳон вориси Шоҳ Султон Ҳусайн  
Ки, то бўлса гардунға давворлиқ,  
Анга бокий ўлсун жаҳондорлиқ.

Шунингдек, биринчи қисмда вазирлар, ноиблар, муфтийлар, котиблар, табиблар, шоирлар, дехқонлар каби турли тоифа вакиллари таърифлари ҳам келтирилганки, бу фикрлар бугунги кун учун ҳам ибратли бўлиб, жамият кишилари учун дастуриламал бўла олади.

Асарнинг 10 бобдан иборат иккинчи қисми “Ҳамида афъол ва замима хисол хосиятида” деб номланиб, ахлоқий масалаларга бағишланган. Мазкур қисм “Ҳайрату-л-аброр” достони сингари муайян ахлоқий масаланинг тавсифи ва унга илова қилинган ҳикоят баёнидан иборат. Ҳусусан, биринчи фасл “Тавба зикрида” деб аталган. Маълумки, тавба тасаввуф мақомларидан биринчиси бўлиб, бунда солик Ҳаққа етишиш йўлида ғов бўладиган жамики нарсалардан юз ўгиришга қатъий жазм қиласи, бутун интилиши, таважжухини Аллоҳга қаратади, аввалги ҳаёт тарзидан бутунлай воз кечади. Навоий тавбага таъриф бериб, шундай ёзади:

“Тавба мужрим банданинг вақти кўзгусин исён зангидин оритур ва ниёз мусқили билан ёритур... Бу мартаба тариқат аҳлининг аввалғи гомидур ва мақсад водийсининг аввалги манзилиға ҳомийдур...”.

Таърифдан сўнг Навоий тавба мақоми билан боғлиқ ҳикоят келтиради. Ҳикоятга кўра, буюк Шайх Абдулло Муборак (ваф. 171/787—88) бир канизак ишқига гирифтор бўлади. Қиши кечаларидан бирида тонгга қадар маъшуқа девори остида туради. Қор ва совуқда қолади. Саҳар намози азонини хуфтон деб ўйлади. Ўзига келгач, дейди: - Эй Муборакнинг номуборак ўғли, сенга уят эмасми? Агар Имом намозда узунроқ суро қироат қилса, толикардинг. Энди нафсинг ҳавосига тонг откунча мундоғ азоб тортарсен». Шундан сўнг Абдуллоҳ Муборак тавба қилиб, сулукка берилади.

Шунингдек, мазкур қисмда яна зуҳд, таваккул, қаноат, сабр, тавозуъ ва адаб, зикр, таважжух, ризо, ишқ каби ахлоқий масалалар таърифи ва уларга илова қилинган ҳикоятлар баёни ҳам келтирилган.

Асарнинг учинчи қисми “Мутаффарриқа фавойид ва амсол сурати” деб аталиб, турли фойдали пандлар ва ҳикматларни ўз ичига олади. Асарда улар “танбех” номи билан аталиб, жами 127 та танбех келтирилган. Танбехларнинг аксарияти ҳадислар мазмуни билан уйғунлик касб этади. Ҳусусан, 30-танбех “Сизлардан ҳеч бирингиз ўзига раво кўрган нарсасини биродарига раво кўрмагунча, чин мўъмин бўлолмайди” ҳадисига мазмунан яқинлигини кўриш мумкин:

“Ҳаркимки, бирор била ёрдур ёки ёрлиғ даъвийси бордур, керакким, ўзига раво

тутмоғонни ёриға раво тутмаса, кўп нимаким, ўзига ҳам раво тутса, анга тутмаса.  
Бас машақатким, андин рухға алам етар, киши  
ани ўз жисму жонига тажвиз этар. Аммо ани ёриға тахайюл қила олмас, агар  
тахайюл қилса, ваҳшатидин ҳаёти қолмас.

Қитъа:

Ёр улдурки, ҳар нечаким ўзига  
Истамас, ёриға ҳам истамагай.  
Ўзи истарки, ёр учун ўлгай.  
Ани мунда шарик айламагай.

Алишер Навоийнинг “Маҳбубу-л-қулуб” асари бадиий жиҳатдан ҳам юксак савияга эга. Асарда қўлланилган сажъ (насрий қофия) усули асарга мусиқий оҳанг бағишлиб, унинг таъсирчанлиги ва бадиий жозибасини оширган. Асарда келтирилган кичик ҳажмли ҳикоялар, шеърий парчалар, мақоллар қўйилган масалаларга якун ясаш, “қиссадан ҳисса” чиқариш вазифасини бажарган. Умуман олганда, Навоийнинг мазкур асари буюк мутафаккир меросининг муҳим ва қимматли ёдгорлиги бўлиб, XV асрдан кейинги бадиий наср таракқиётiga самарали таъсир кўрсатди.

## **11- Mavzu:** Zamnaviy o'zbek matnshunosligi tendensiyalari.

Президентимиз Шавкат Мирзиёев томонидан ёш авлод маънавиятини юксалтириш, китобхонлик маданиятини янада ошириш, миллий адабиётимизга эътибор ва ғамхўрлик борасида амалга оширилаётган саъй-ҳаракатлар аллома боболаримиз меросини чукур ўрганишда янги босқични бошлаб берди.

Навоий ва Бобур сўз санъати билан биргаликда фалсафа, тасвирий санъат, хаттотлик, китобат санъати, меъморлик, шаҳарсозлик равнақига, эл-юрт маъмурлиги, фаровонлигига катта ҳисса қўшган. Қалам ахли билан бирга рассомлар, уста ва ҳунармандлар, олимлар, билимга чанқоқ ёшларни моддий ва маънавий қўллаб-қувватлаш, илм ўрганиш йўлидаги интилишларини рағбатлантиришга алоҳида эътибор қаратган. Ўз даврининг етук санъаткорлари, мусаввир ва хаттотлари каби Беҳзоднинг ижодий камолотида ҳам Алишер Навоийнинг маънавий кўмаги муҳим аҳамиятга эгадир. Бу жиҳатлар шоир боболаримиз қолдирган ижодий мерос, тарихий манбалардан яхши маълум.

*Ma'naviy-madaniy merosni tahlil va tadqiq etish, hozirgi adabiy jarayon hodisalarini tanqidiy o'rganish, o'zlashtirish, estetik baholash adabiyot ilmining asosini tashkil qiladi. Mazkur ustuvor yo'nalishlar qatorida, yana adabiyot nazariyasi, poetika, she'rshunoslik, matnshunoslik, manbashunoslik, xalqaro adabiy aloqalar va adabiy ta'sir masalalari, folklorshunoslik, mumtoz adabiyot tarixi, tarjimashunoslik, adabiy-estetik, badiiy-falsafiy tafakkur takomili, muayyan bosqichlardagi dinamikasi, qomusiy izohli adabiy terminlar lug'atlarini yaratish, bibliografik ko'rsatkichlar tuzish singari soha-yo'nalishlari ham adabiyot ilmining tarkibiy qismini belgilaydi. Ular adabiyotshunoslikning alohida fan tarmoqlari tariqasida ilmimizning sajiya-salohiyatidan, har bir takomil bosqichidagi holatidan, miqyosi va darajasidan voqif etadi.*

*Ma'lumki, ijtimoiy-siyosiy, falsafiy tizimlarning o'zgarishi, avvalo, dunyoqarashlarning o'rin almashuvидir. Bu, shubhasiz, yangi tushunchalar, talqinlar, tasavvurlar silsilasini yuzaga keltiradi. Bu – dunyo shevalarini, inson va jamiyat munosabatlarini, ijtimoiy voqelikni yangicha idrok qilayotgan e'tiqodning shakllanishi, o'zligini namoyon etishi demakdir. Mustaqillik asnosida, umumbashariy qadriyatlarga tayangan, go'zallik-ezgulik-adolat prinsiplariga asoslangan adabiyot ilmi qaror topdi; yangi-yangi talqin va tahlil metodlari, usullari bilan o'z imkoniyatlarini kengaytirib bormoqda, ildiz otib, palak yozmoqda. Bu borada, Prezidentimiz Islom Karimovning "Istiqlol va*

ma'naviyat", "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch", "Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor" asarlarida ilgari surilgan ijtimoiy-falsafiy, adabiy-estetik nazariy g'oyalar adabiyotshunosligimiz uchun ham metodologik asos vazifasini o'tamoqda.

"Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı ishlarning amaliy natijasi o'laroq, adabiyot va san'at, madaniyat, matbuot sohasi mafkuraviy tazyiqdan butunlay xalos bo'lganini qayd etish lozim, – deya ta'kidlaydi Davlatimiz rahbari "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida. – Har qanday ijod namunasi, badiiy asar sinfiy bo'lishi va qandaydir g'oyaga, kommunistik mafkura manfaatlariga xizmat qilishi kerak, degan qarashlar bugun o'tmishga aylandi. Erkin ijod uchun, milliy qadriyatlarimiz va boy ma'naviyatimizni, xalqimiz tarixini, uning bugungi sermazmun hayotini to'laqonli va haqqoniy aks ettirish uchun zarur sharoitlar yaratildi" (133-bet). Mazkur ijtimoiy-adabiy muhitning qutlug' samaralari sifatida, **birinchidan**, adabiyotshunoslikda badiiy asarlarni g'oyaviy-tematik tahlil qilishga butkul chek qo'yildi. Adabiy asar mazmunini badiiy qadriyat, ijodkor izlanishlarini ma'naviy-intellektual qadriyat, adabiy jarayonni esa, hamisha harakatdagi go'zallik hodisasi, badiiyat tarixi tariqasida o'rganish tamoyili qaror topdi. Shu ma'noda, xoh adabiyot tarixi, xoh madaniy-diniy meros, xoh bugungi kun adabiy hayoti hodisalari o'rganilgan, nazariy umumlashtirilgan tadqiqotlarda, ilmiy asarlarda yaxlit bir konsepsiya yetakchilik qilmoqda. Xususan, badiiy barkamol asar fenomeni nafaqat ijodkor shaxsiyati va dunyoqarashining, shuningdek, o'zi yaratilgan ijtimoiy-ma'naviy sharoit bilan jamiyatning ham ma'lum darajadagi ko'zgusidir, degan falsafiy-estetik nuqtai nazardir.

Xususan, akademik Azizzxon Qayumovning 12 kitobdan iborat saylanma asarlari nihoyasiga yetdi. Ustoz adabiyotshunosning bir umrlik ijodiy izlanishlarini o'zida mujassamlashtirgan mazkur jiddlarda eramizning ilk tongi IV–VII asrlarga mansub tosh bitiglarning badiiy xususiyatlari tadqiq etilgan "Qadimiyat obidalari" dan XIX asr o'rtalari – XX asr boshlarigacha bo'lgan adabiy jarayon ("XVI asr o'zbek adabiyoti", "Qo'qon adabiy muhiti", "Hind adabiy sarmanzillari"); ulkan so'z san'atkorlarining adabiy merosi, badiiy-

estetik, ijtimoiy-falsafiy, ma'rifiy-axloqiy qarashlari o'rganilgan ("Xorazmlik ulug' alloma", "Ahmad Farg'oniy", "Abu Rayhon Beruniy", "Abu Ali ibn Sino", "Amir Temur qissalari", "Shohruhbek Mirzo", "Ulug'bek Mirzo", "Zahiriddin Muhammad Bobur ijodiyoti", "Chimyonli shoir Huvaydo", "Komil Xorazmiy", "Shoir Furqat") iste'dodli asarlari mumtoz adabiyotimiz sarvati va salobatini namoyon etish barobarida, olimning zukko tahlil madaniyatini, ilmiy-nazariy tafakkur darajasini ham tasdiqlaydi.

Ushbu silsilada Alisher Navoiy hayoti va ijod yo'liga, badiiy mahoratiga, asarlarining ijtimoiy-estetik ahamiyatiga doir, tarixiy-tipologik tahlil asosiga qurilgan tadqiqotlar salmoqli o'rinn tutadi. Akademik Izzat Sultonning qayta nashr etilgan "Navoiyning qalb daftari" asarida ham yangicha nuqtai nazar balqib turadi. Xususan, ijodkor shaxsiyatiga, asarlariga tarixiy-madaniy, intellektual hodisa tariqasida yondashiladi, o'rganiladi, nazariy umumlashtiriladi.

**Ikkinchidan**, adabiyot ilmining turli fan sohalari (falsaфа, folklor, tarix, falakiyot, tasviriy va amaliy san'at, din, kino, teatr, musiqa bilan aloqalari, bir-biriga ta'sir ko'rsatish, ta'sirlanish jarayonlari chuqurlashdi. Shu ma'noda, estetikaning go'zallik va xunuklik, fojelik va komiklik, ko'tarinkilik va tubanlik singari kategoriyalarining ma'no ufqlari kengayib ketdi. Endilikda, badiiylik, badiiy shartlilik, badiiy obraz, timsol, ramziylik, muallif shaxsiyati estetikaning universal kategoriyalari sifatida o'rganila boshlandi. Bir so'z bilan aytganda, badiiy ijod estetikasi va uning voqelikka, inson ong-shuuriga munosabati, ushbu jarayonning ijtimoiy-falsafiy mazmunini yoritish ustuvorlik kasb etdi. Professor Naim Karimovning "Cho'Ipon", "Maqsud Shayxzoda" ma'rifiy-biografik romanlari bilan "XX asr adabiyoti manzaralari" fundamental tadqiqoti 1-kitobini, professor Umarali Normatovning "Qodiriy mo'jizasi" monografiyasini bilan adabiy-tanqidiy maqolalar, esse, xotira, qayd va suhbatlardan tarkib topgan "Nafosat gurunglari" majmuasini, professor Anqaboy Quljonovning uch jildlik saylanma asarlarini, professor Abdug'afur Rasulovning "Tanqid, talqin, baholash", "Badiiylik – bezavol yangilik" adabiy-ilmiy maqolalar, talqinlar, etyudlar, "Betakror o'zlik" adabiy-tanqidiy maqolalar majmularini ta'kidlash joiz. Ularda adabiy xarakterning mulki borliq bilan murakkab munosabatlarga

kirishuvi, san'at asarining betakror, o'ziga xos dunyo ekanligi, undagi so'z, timsollar aro aloqalar, adabiy avlodlar, badiiy asar va ijodkor fenomeni, so'z san'ati jarayonlari hamda muammolari xususida bahs yuritiladi.

Professor Naim Karimovning "Maqsud Shayxzoda" ma'rifiy-biografik romanida shoir, dramaturg, adabiyotshunos olim, tarjimon va pedagog Maqsud Shayxzodaning hayoti, taqdiri haqida zamondoshlarining xotiralari, maxfiy ma'lumotlar asosida, Ozarbayjon, Dog'iston, O'zbekistonda kechgan hayoti sahifalari katta mehr-muhabbat, samimiyat, yuksak ehtiros bilan aks ettiriladi. Siyosiy-mafkuraviy tazyiqlar iskanjasini yorib chiqqan, el-yurt-millat yuragiga yo'l topgan beqiyos aql-tafakkur ziyoralaridan boxabar qiladi. Naim Karimov so'z san'ati, ilmiy-badiiy tafakkur madaniyatining bosh vazifasi, bu – insonni ma'nani va axloqan, intellektual jihatdan tarbiyalash, shaxsiyatini ma'rifat shu'lalari bilan ziynatlashdan iborat, deb biladi. Ushbu konsepsiya Naim Karimov estetik qarashlaridagi ma'rifiy g'oyalar mag'zini tashkil qiladi. Xususan, Maqsud Shayxzoda tirikligi, hayoti, faoliyati badalida ezgu so'z vositasida odamlarni ruhoniyligi go'zallikka, haqiqatparvarlikka, insonsevarlikka undab yashadi. Uning taqdiri ma'naviy-axloqiy komillikning benazir timsolidir. Inson sha'ni va shaxsini oyoqosti qilishga qaratilgan diktatura tuzumiga, zulm – yovuzlikka qarshi isyondir. Despotizmga asoslangan sho'ro tuzumi inson shaxsini bukishi, tutqunlik asoratiga solishi, ming bir qyinoqlarga giriftor qilishi mumkin. Va, lekin, erkin fikrini, ozod ruhini, adolatli so'zini qil qilolmaydi, degan ma'rifiy g'oyalar "Maqsud Shayxzoda" asarining yuksak badiiyatini belgilaydi.

Ana shunday holatlarda ezgu so'z, adolatli fikr go'zallikka, hayot haqiqatiga tiklangan haykal misoli muhtashamdir, degan ma'rifiy ma'nolar olim estetik qarashlarining ustuvor yo'nalishini tashkil etadi. Odamlarni, jamiyatlarni axloqiy-aqliy kamol topdirish adabiyotning va, demakki, badiiy so'z san'atining bosh maqsadidir, degan ma'no Naim Karimov asarida balqib turgan yana bir fazilat.

Professor Abdug'afur Rasulovning "Betakror o'zlik" asari adabiy-tanqidiy maqolalardan tarkib topgan. U Abdulla Qahhor ("Abdulla Qahhor universiteti", "Saralar sandig'idagi roman", "Sarob"da yozuvchi mahorati", "Badiiy tasvir

vositalari”, “Sarob”da psixologik tasvir”), Rahmat Fayziy (“Hazrati inson yodi”), Pirimqul Qodirov (“Zamon san’atkor talqinida”), O’lmas Umarbekov (“Asarlari yashayaptiki...”), Xudoyerdi To’xtaboyev (“G’aroyib sultanat”, “Betakror uslubning kashf etilishi”, “Hoshimjon. Sehrli qalpoqcha. Sariq dev”, “Akrom bilag’on Hoshimning do’sti, Garri Poterning og’asi”, “Sho’rpeshona Orifjon”, “Mangu muammo”), Tursunboy Adashboyev (“Ijodiy o’zlik sari yo’l”) badiiyati chizilgan, Homil Yoqubov (“Taqnid maydonida turish mashaqqati”), Ozod Sharafiddinov (“Ozod Sharafiddinovni anglash”), Ibrohim G’afurov (“Munavvar siymo”) singari adabiyotimiz ilmining yorqin siymolari ijodiy qiyofasi yoritilgan kuzatishlari bo’ladimi, barchasida badiiy asarning tahlili adabiy-estetik qarashlari bilan uyg’un olib boriladi. So’zning adabiy matnda, badiiy asar bag’rida nechog’liq katta salohiyat, ijtimoiy-estetik ahamiyat kasb etishi hassoslik bilan tahlil qilingan. Va, eng muhimi, oddiy so’z estetik mazmunga aylanish jarayonida umumbashariy qadriyat maqomiga ega bo’ladi, degan qonuniyatni asoslashga erishadi.

**Uchinchidan**, keyingi yillar adabiyotshunosligimizda namoyon bo’lgan yetakchi tamoyillardan yana biri – bu o’zbek adabiyotining yetuk badiiyat namunalarini jahon kontekstida tahlil qilishda ko’zga tashlanmoqda. Jahon badiiyati tarixini yaratib kelayotgan asarlar bilan muqoyasada izchil, qat’iy yo’nalish kasb etadi. Qiyosiy adabiyotshunoslik, adabiy ta’sir va xalqaro adabiy aloqalar yo’nalishida tipologik, tarixiy-analitik tahlil metodlari asosida qutlug’ samaralarga erishilmoqda. Bu jihatdan taniqli adabiyotshunos Pariza Mirzaahmedovaning rus tilidagi “Klassika va zamonaviylik adabiy aloqalar yo’nalishida” (“Klassika i sovremennoe v aspekte vzaimodeystviya”) monografiyasi hamda “Chingiz Aytmatov va zamonamizning madaniyatshunoslik masalalari” asari, Pariza Mirzaahmedova mas’ul muharrirligida chop etilgan “Adabiy aloqalar milliy adabiyotlar taraqqiyotining manbai tariqasida” (“Vzaimodeystviye kak istochnik obogash’eniya natsionalnoy literaturi”) jamoaviy tadqiqoti, adabiyotshunos Ulug’bek Saidovning “Sharq va G’arb: madaniyatlar tutashgan manzillar”, “Globallashuv va madaniyatlararo muloqot” monografiyalari, Murod Ibrohimov (marhum)ning “Adabiyot – mening borlig’im” tadqiqot va maqolalar kitobi ushbu yo’nalish

takomilida salmoqli o'rın tutadi. Adabiyotshunos olima Muhabbat Sharafiddinovaning "XX asr o'zbek nasri jahon adabiyoti kontekstida" monografiyasi, iste'dodli adabiyotshunos Zamira Qosimovaning rus tilidagi "Milliy va jahon adabiyoti an'analari nuqtai nazaridan zamon va inson konsepsiysi: A. Fitrat, A. Qodiriy, Cho'lpon asarlari misolida" nomli doktorlik dissertatsiyasi, yosh adabiyotshunos Dilshoda Ibrohimovaing nemis tilida yozilgan va rus tiliga o'girilgan "Xildenbrand haqida qo'shiq asari, uning sharqona va g'arbona mushtarak xususiyatlari (Matn strukturasi, qiyosiy tahlil muammolari)" mavzuidagi tadqiqoti xalqaro adabiy aloqalar borasida jiddiy samaralarga erishilayotganining dalolatidir.

Adabiyotshunos Ulug'bek Saidovning "Sharq va G'arb: madaniyatlar tutashgan manzillar" tadqiqotidan o'rın olgan: "Fitrat va Milton yoxud o'zgani tanish orqali o'zlikni anglash", "Attor va G'arb falsafasi", "Umar Xayyom va Dante falsafasida inson talqini", "Tarixiy xotira va milliy o'zlikni anglash", "Barkamol avlod tarbiyasi – milliy yuksalish omili", "Erkinlik g'oyasi takomili" kabi fasllar falsafiy adabiyotning umumbashariy mohiyati to'g'risida, o'tkinchi davrning azaliy va abadiy ziddiyatlari izdihomida inson tafakkurining ma'naviy-intellektual qadriyatlar, madaniy tarix yaratishi xususida bahs yuritadi.

Adabiyotshunos Murod Ibrohimovning "Adabiyot – mening borlig'im" kitobidan o'rın olgan "Rus adabiy-nazariy tafakkur tarixiga doir (XX asrgacha)" tadqiqotida olim jahon estetikasida muayyan bosqichni tashkil qilgan davriy hodisani yoritadi. Lomonosov, Belinskiy, Chernishevskiy kabi mutafakkirlar adabiy-estetik qarashlarini tadqiq etadi. Bu borada, "Realistik san'at qonuniyatları", "Go'zallikning falsafiy-estetik talqini", "Real tanqid va ijodkor dunyoqarashi", "Xalqchilik nazariyasining mukammallashtirilishi", "Adabiyotshunoslik sohalari aro sintezlashuv" singari boblar yuqori ilmiy-nazariy saviyasi bilan ajralib turadi.

Professor Muhammadjon Xolbekovning xalqaro adabiy aloqalar borasidagi salmoqli risola va monografiyalari ("O'zbek adabiyoti Fransiyada", "O'zbek-fransuz adabiy aloqalari") jamoatchilik nazariga tushgan edi. Keyingi yillarda taniqli olimning "Amir Temurning Yevropa qirollari bilan yozishmalari", "Alisher

Navoiy asarlari fransuz tilida” risolalari, “Jahon adabiyotida umuminsoniy tamoyillar” tadqiqoti ushbu yo’nalishda yanayam sobitqadam izlanishlar olib borayotganligini tasdiqlaydi.

Bir-biridan uzoq hududlarda joylashgan xalqlar badiiy madaniyatining o’zaro aloqalari, adabiyotlarning biri ikkinchisiga ta’siri, aks ta’sirlanish jarayonlari milliy ma’naviyatlar taraqqiyotini belgilash barobarida jahon adabiyotining ham sifat-mazmun jihatdan yangi takomil bosqichini tayin etadi, degan nuqtai nazar professor Muhammadjon Xolbekov tadqiqotlariga alohida fayz bag’ishlaydi; ilmiy xulosalarining yangiligini, nazariy salmog’ini ko’rsatadi. Ushbu hodisaning tabiiy va qonuniy hosilasi tariqasida milliy ruhga tayangan bashariy qadriyatlarning yuzaga kelishi, shubhasizdir, deydi professor Muhammadjon Xolbekov.

**To’rtinchidan**, o’zbek adabiy-estetik tafakkurining jahon madaniyatida tutgan o’rni, ijtimoiy-falsafiy qadri, ahamiyatiga oid tadqiqotlar ham alohida yo’nalish kasb etdi. Bu – istiqlol yillari adabiyotshunosligimiz erishgan qutlug’ samaralar sirasidandir.

Sharqning badiiy-falsafiy, ma’naviy ummonidan bahramand bo’lgan san’atkorlar jahon madaniyati tarixida nihoyatda ko’p. Ular qatorida Ovrupo tarixida muqaddas Qur’on oyatlaridan ta’sirlanib asar yaratgan, ilohiy hikmatlarni kashf eta olgan ijodkorlar ham bor. Gyotening “G’arbu Sharq devoni”, Pushkinding “Qur’ondan iqtibos” she’riy turkumi fikrimiz dalilidir. Adabiyotshunos D. Qambarovaning “Qur’on baxsh etgan ilhom” monografiyasida Pushkinding “Qur’ondan iqtibos” asari Qur’onning arabiyl matni, ruscha tarjimasi va Gyotening Qur’on ta’sirida yozgan she’rlari bilan qiyosiy tahlil qilingan.

Adabiy aloqa va ta’sir masalalari ijodkorlarning ongi-dunyoqarashidagi evrilishlar, badiiy asarlari poetikasi bilan bog’liq kechishiga oid ilmiy ishlar ham nufuzlidir. Bu borada, R. Vohidov, M. Hoshimovaning “Adabiy qardoshlik sarhad bilmaydi”, K. Quramboyevaning “Mirtemir va qaroqalpoq adabiy muhiti” tadqiqotlarini ko’rsatish joiz.

**Beshinchidan**, istiqlol sharofati bilan qodiriyshunoslik, fitratshunoslik, cho'lpionshunoslik alohida fan tarmoqlari sifatida yuzaga keldi, shakllandi. Va, bugungi kunda yangi-yangi tadqiqotlar bilan o'z hadlarini kengaytirib bormoqda. Oybekning dastlabki tadqiqoti "Abdulla Qodiriyning ijodiy yo'li" ushbu yo'nalishga tamal toshini qo'ygan edi. Akademik Izzat Sultonning "Yozuvchi Abdulla Qodiriylar haqida" "Ulkan adib saboqlari", "Abdulla Qodiriyning o'tgan kunlari" asarlari, "Adabiyot nazariyasi" darsligining asosiy fasllari Abdulla Qodiriylar ijodi tahliliga bag'ishlangan; akademik Matyoqub Qo'shjonovning "Abdulla Qodiriyning tasvirlash san'ati", "Qodiriylar erksizlik qurboni", Ahmad Aliyevning "Abdulla Qodiriylar", "Ijod va izlanishlar" asarlari, professor Sobir Mirvaliyevning "Abdulla Qodiriylar" tadqiqoti, professor Umarali Normatovning "Qodiriylar bog'i", "Haqiqat taqozosi" badealari, professor Bahodir Karimning "Abdulla Qodiriylar: tahlil va talqin" monografiyasi, Habibullo Qodiriyning "Otam haqida", "Qodiriyning so'nggi kunlari" asarlari qodiriyshunoslik takomilida fayzli o'rinn tutadi.

**Oltinchidan**, tarjimashunoslikda anchadan beri adabiy jarayonni ilmiy-nazariy umumlashtirishga qaratilgan salmoqli tadqiqotlar yaratilmayotgan edi. Professor Ninel Vladimirovning "XX asr o'zbek nasri ravnaqi va badiiy tarjima muammolari" (rus tilida) monografiyasi, atoqli adabiyotshunos, zakiy tarjimon Ibrohim G'afurovning "Tarjimashunoslik asoslari" o'quv qo'llanmasi, Zuhridin Isomiddinovning "Turkiy epos va tarjima masalalari" monografiyasi tarjimashunosligimiz tarixi va nazariyasini yaratishda salmoqli o'rinn tutadi.

**Yettinchidan**, hozirgi adabiy jarayon hodisalarini ijodiy shaxsiyatlar maydoni, mahoratshunoslik – badiiyat tarixi, hayotiy hamda ijtimoiy haqiqatlarning sintezi tariqasida nazariy umumlashtirish mayli ildiz otib bormoqda. Bu borada professor Naim Karimov qalamiga mansub "Qurban Beregin" asarini, professor Umarali Normatovning "Ijod sehri", adabiyotshunos Ibrohim G'afurovning "Hayo – xaloskor", "Mangu latofat", "Dil erkinligi" asarlarini, professor No'mon Rahimjonovning "Asqad Muxtor poetikasi", "Tarixiy qissalar haqiqat izlaydi" (hammualliflikda), "Halima Xudoyberdiyeva lirikasi" (hammualliflikda), "Mustaqillik davri o'zbek she'riyati" monografiyalarini, professor Qozoqboy Yo'ldoshevning "Yoniq so'z", professor Yo'Idosh Solijonovning "Haqiqatning

sinchkov ko'zları", professor Hakimjon Karimovning "Adabiyot nazariyasining ilmiy asoslari", Dilrabo Quvvatovaning "XX asrning ikkinchi yarmi o'zbek poemachiligidagi janr va uslub rang-barangligi", Tohir Shermurodovning "Jozib izhor izlab" kitoblari, o'nlab olimlarning risolalari, monografik tadqiqotlari ilmiy-adabiy jamoatchilik e'tiborini tortdi.

Taniqli adabiyotshunos, yozuvchi, tarjimon Ibrohim G'afurov ikki jilddan iborat asarlarining yuksak ilmiy-nazariy, badiiy saviyasini alohida ta'kidlash joiz. "Hayo – xaloskor" kitobiga keyingi yillarda yozilgan mansuralari, mumtoz adabiyot, mumtoz siymolar, mumtoz tarix yo'lidagi badealar, hikoyalari kiritilgan. Muallif mo'jaz lirik asarlarini: "mening romanlarim", deb ataydi. Darhaqiqat, ular rang-barang hayot, g'aroyib inson umrlarining har soniyasida bo'lib turgan, hali yozilmagan, lekin, asli mo'jizaga teng jonli romanlarning qaymog'i, javhari kabi go'zal taassurot qoldiradi. Ularda davr ichida o'rtanayotgan, boy kechinmalar botinida yashayotgan, insonlikning asl ma'nosini qidirayotgan zamondoshimiz gavdalanadi. U o'quvchini go'zal ko'ngil va go'zal aql dunyolarida tinimsiz ro'y berayotgan ajib fikrlar, go'zal tuyg'ular bazmiga chorlayotgandek bo'ladi.

"Mangu latofat" kitobidagi "Millatning billurlashuvi" faslida millatning tug'ilishi, shakllanishi, milliy ongning uyg'onishi va juda murakkab, qiyin tarixiy, ijtimoiy jarayonlarda o'zini tanishi, hozirgi zamon dunyosiga kirib borishi haqidagi najib kuzatishlari, o'y-xayollari aks etgan risolalari ("Adiblar gulshani", "Axloqni sog'inish") jamlangan. Adabiy-badiiy badealarida axloq, ma'naviyat, insonning hozirgi zamondagi o'rni to'g'risida bahs yuritiladi. Dostoyevskiy "dunyoniga go'zallik qutqaradi", degan umidbaxsh hikmatni aytgan edi. Ibrohim G'afurov Dostoyevskiyga payrov bo'lib, dunyoniga aslida hayo, odob va axloq qutqaradi, degan g'oyani ilgari suradi. Muallifning chuqur e'tiqodiga ko'ra, "mangu latofat" bu – hayo, odob va axloqdir. Qalbimizda mujassam mangu go'zal, samoviy axloq insonning insoniyligi uchun yagona mezondir.

**Sakkizinchidan**, shonli istiqlol yillari so'z san'atkorlari shaxsiyati bilan badiiyati, asarlarining yaratilish tarixiga oid adabiy ijod psixologiyasi yangi yo'nalish sifatida sobit qadamlarini tashladi. Bu borada, ustoz adabiyotshunos

Ozod Sharafiddinovning “Cho’lponni anglash” asari, Naim Karimovning “Cho’lpon” ma’rifiy-biografik romani, No’mon Rahimjonovning akademik Izzat Sulton dramalarining yozilish tarixiga, adabiy-estetik qarashlariga oid “Badiiy asar biografiyasi” tadqiqot-qo’llanmasi, Sh. Ergashevaning Saida Zunnunova lirikasi bilan dostonlari yaratilishiga bag’ishlangan “Ko’ngilning mohipaykari” risolasini ta’kidlagim keladi.

**To‘qqizinchidan**, adabiyotshunoslik ilmida atoqli adiblar va adabiyotshunoslар haqidagi xotiralar yangi bir tamoyil tariqasida takomillashib bormoqda. Mazkur yo’nalishning yangiligi, fazilati shundaki, ijodkor shaxsiyati, iste’dodi va asarlarini milliy-bashariy qadriyat tarzida o’rganish, baholash madaniyati yuz ko’rsatdi.

Yana bir xususiyat bu – adiblaru olimlarning adabiy-estetik, falsafiy, ma’rifiy-axloqiy qarashlarini davr-jamiyat-ijtimoiy voqelik bilan yaxlit birlikda yagona jarayon sifatida yondashish, tahlil qilish, umumlashtirish mayli bo’rtib ko’zga tashlanadi. Bu borada “G’afur G’ulom zamondoshlari xotirasida”, Maqsud Shayxzodaning 100 yilligiga atalgan “Zamon allomasi”, “Asqad Muxtor zamondoshlari xotirasida”, “Shuhrat zamondoshlari xotirasida”, “Shukur Xolmirzayev zamondoshlar xotirasida”, “Bolajonlik saodati” (Safar Barnoyev zamondoshlari xotirasida), “Professor G’affor Mo’minov dildoshlari xotirasida”, “Professor Asil Rashidov do’stlar nigohida”, “Sobitlik” (professor Hamidjon Homidiy haqida), “Ko’ngil sezib turar” (professor Pirmat Shermuhamedovga oid), Umrzoq O’ljaboyevning “Xotiraga ko’chgan umrlar” majmuulari ahamiyatlidir.

**O’ninchidan**, adabiyot haqidagi fan taraqqiyotida adiblarning adabiy-estetik qarashlari ham salmoqli o’rin tutadi. Erkin Vohidovning “Iztirob”, Abdulla Oripov tanlangan asarlarining to’rtinchi jildi hamda “Adolat ko’zgusi” majmuasi mundarijasini belgilagan adabiy-tanqidiy maqolalar, Muhammad Alining “Oshiq bo’lmay haq diyordin ko’rsa bo’lmas”, Mirpo’lat Mirzoning “Surur”, Ulug’bek Hamdamning “Badiiy tafakkur tadriji” asarlari adib shaxsiyati, iste’dodi va ijodining hayotda, jamiyatda nechog’liq muhim o’rin tutishi, asarlarining badiiyati, mahorati xususida so’z yuritadi. Yana shuni ta’kidlash lozimki,

Zulfiya, I. Sulton, Shukrullo, R. Bobojon, H. G'ulom, O. Yoqubov, P. Qodirov, M. Qoriyev, O'. Umarbekov, U. Nazarov, Sh. Xolmirzayev, O'. Hoshimov. O. Muxtor, I. G'afurov. X. Do'stmuhammad, A. Dilmurod, I. Otamurod, N. Eshonqul singari shoir-yozuvchilarning badiiy ijod sirlari, adabiy jarayon psixologiyasi, adabiy mehnat va badiiy mahorat, so'zning ijtimoiy ahamiyati va estetik ta'sir salohiyati, badiiy idrok va ifoda san'ati, tasvir usullari va imkoniyatlariga doir suhbatlari, chiqishlari, maqolalari ham adabiyotshunoslikning nazariy masalalarini o'rganishda salmoqli o'rinn tutadi.

So'z san'atida azal-azaldan yozilmagan bir qonuniyat bor. Xususan, katta adabiyotni benazir iste'dod egalari – katta shaxslar yaratadi. Bu narsa, avvalo, so'z san'atkorining iste'dod darajasi va shaxslik miqyosi, nuqtai nazari bilan adibning estetik g'oyalari, qarashlari badiiy obrazlarga singdirilgan holda ifodalangani bois, yuksak qadr-qimmat topadi. Betakror mazmun-mohiyat kasb etadi. Estetik hodisa sifatida badiiy madaniyatda yangi sahifa bo'lib qoladi. Fitrat, A. Qodiri, Cho'Ipon, Oybek. M. Shayxzoda, Mirtemir, Zulfiya, I. Sulton, A. Muxtor, O. Yoqubov, P. Qodirov, U. Nazarov, R. Parfi, Sh. Xolmirzayev, O'. Hoshimov, A. Oripov, J. Kamol, N. Aminov singari ijodkorlar ijodi nafaqat turkiy xalqlar adabiyotida, shuningdek, jahon badiiyatida ham betakror go'zallik hodisasiidir, degan nuqtai nazar olimlarimiz ijodiy izlanishlari mehvarini tashkil qiladi.

### **Yuqorida mulohazalardan kelib chiqadigan ayrim xulosalarimiz guyidagilardan iborat:**

1. Adabiyotshunosligimizda adabiy hodisalarni, badiiy asarlarni, ijodkor fenomenini ma'nnaviy madaniyatning, milliy qadriyatlarning o'ziga xos tarzda namoyon bo'lishi tariqasida o'rganish, baholash, ilmiy xulosalar chiqarish tamoyili qaror topdi.
2. Adabiyotshunoslikning ham adabiyot va san'at singari davr didini, millatning badiiy-estetik saviyasini, jamiyat ma'nnaviyatini kamol topdirishda betakror o'rni bor. Ilm ahli o'z zamonasidagi ana shu yuksak mas'uliyatni teran anglagan holda, adabiyotni, madaniy-tarixiy-diniy merosni umubashariy qadriyat sifatida o'rganishi, baholashi,

asnosalida, nazariy umumlashtirish madaniyati tobora takomillashib bormoqda.

3. Keng o'quvchilar ommasi ilm ahlidan, avvalo, badiiy asar va yozuvchi fenomenini tushuntirib berishini kutadi. Shu ma'noda, ana shu bir-biri bilan uzviy bog'liq ikki hodisa millat tarixiy taraqqiyotining muayyan bosqichidagi madaniyatining, ma'naviy-intellektual darajasining bir belgisidir, degan tamoyil yetakchilik qilmoqda. Badiiy adabiyotning umumiyl holati adabiyotshunoslik ilmining ham darajasini belgilab beradi. Tarix, falsafa, din, san'at, kino, teatr, musiqa, tasviriy va amaliy san'at ijodkor shaxsiga nechog'liq katta ta'sir ko'rsatayotgan paytda, asarlarni ana shu omillar sintezi sifatida o'rganish, o'zlashtirish tamoyili kuchaydi. Tarixiy, qiyosiy, biografik tahlil metodi tobora ustuvor mavqe kasb etib bormoqda.

Endi, kemtikliklar, yetishmovchiliklar haqida bir-ikki og'iz mulohaza.

Birinchidan, yosh tadqiqotchi yoxud atoqli olim bo'ladimi, u yoki bu masala xususida ilmiy ish yozishga taraddudlanar ekan, izlanishni bibliografiya tuzishdan boshlaydi. Shu ma'noda, bibliografiya ilmiy tadqiqotning bismillosi, deyish mumkin. Taniqli adabiyotshunos Sherali Turdiyev bilan Boyis Qoriyev (Oltoy)ning "O'zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligi bibliografiyası" (1900–1941 yillarda)ning to'ldirilgan ikkinchi nashri yuzaga keldi. Albatta, u bibliografik ko'rsatkichlarga bo'lgan katta tashnalik oldida bir tomchi, xolos. Vaholanki, nasr, nazm, dramaturgiya va hokazo adabiyotning barcha tur hamda janrlari bo'yicha yaratilgan adabiyotshunoslik tadqiqotlariga, gazeta va jurnal maqolalari jamlangan bibliografiyalarga nisbatan ma'naviy-intellektual ehtiyoj hamon dolzarb bo'lib qolmoqda.

XX asr tongidan bugungi kungacha vaqtli matbuotda, davriy nashrlarda e'lon qilingan adabiyotshunoslik va tanqidchilik asarlari bibliografiyasini yaratish bugungi kunning eng muhim talablaridan biridir.

Ikkinchidan, Ninel Vladimirovaning "XX asr o'zbek nasri rivoji va badiiy tarjima muammolari" tadqiqoti bilan Ibrohim G'afurovning "Tarjimashunoslik asoslari"

o'quv qo'llanmasi tarjimashunoslik tarixi va nazariyasini yaratishda nufuzli o'rincutadi. "Jahon adabiyoti" jurnalining tashkil etilganiga ham yigirma yil bo'layapti. Shu orada, jahon klassikasining barkamol namunalari o'zbek kitobxonining ma'naviy mulkiga aylandi. Homerdan tortib Platon, Aristotel, Dante, Shekspir, Tolstoy, Dostoyevskiy kabi jahon badiiy so'z sehrgarlarining, Konfutsiy, Nizomiy, Dehlaviy, Rumi, Attor singari Sharq ma'naviyati gultojlari milliy madaniyatimizdan sobit o'rinn oldi. Badiiy-ilmiy asarlar tarjimasining ulkan xirmoni ko'tarildi. Va, lekin, keyingi yillarda Ibrohim G'afurovning muqaddas "Qur'oni karim"ning to'rt muallif tomonidan amalga oshirilgan o'ziga xos tarjimalarining ma'nolar teranligiga bag'ishlangan muhtasham tadqiqotidan bo'lak, madaniy hayotimizda iz qoldirgan chiqishlar kuzatilmayapti. Asliyatlardan (ingлиз, француз, немец, испан, араб, китай, япон, индий сурʼалидан) tarjima qilayotgan tarjimonlarning yangi avlodi yetishdi. Bu mustaqillikning betimsol sharofatidir. Endilikda, tarjimashunoslarning yangi avlodini tarbiyalash, voyaga yetkazish vazifasi turibdi. Ilmimizda tarjimashunoslikni mustaqil fan sifatida namoyon etish mas'uliyati ham bor.

Uchinchidan, badiiy-estetik tafakkurning boshqa fan sohalari bilan aloqasi kuchayishi natijasida, ushbu yo'nalishlar bilan bog'liq ko'plab yangi terminlar paydo bo'ldi. Absurd, absurd san'at, avangardizm, aksiologiya, aleatorika, analitik estetika, antifazis, antromorfizm, apokalipsis, assotsiatsiya, asteizm, astrofizm, atributsiya, attikizm va hokazo. Adabiyot nazariyasi, estetika, falsafa bilan bog'liq adabiyotshunoslik terminlarining qomusiy lug'atlarini yaratishdek g'oyat samarali va zavqli, mashaqqatli yumushlar ham adabiyotshunosligmiz zimmasida.

Xullas, adabiyotshunoslik ilmini jahon andozalari darajasiga ko'tarish borasidagi sharaflı izlanishlar uning kelajagiga katta umid uyg'otadi.

*Hozirgi zamон adabiyot ilmida badiiy asar matni tahlil va talqinning asosiy ob'ektiga aylandi. Zotan, matn zamirida asar muallifining dunyoqarashi, inson va jamiyat haqidagi konseptsiyasi, badiiy-estetik printsiplari, san'ati, makon va zamon, milliy tafakkur mujassam bo'ladi. Qolaversa, matn tahlili badiiy asarni xolis baholashga imkon yaratadi.*

*Erkin ilmiy-ijodiy muhit barqarorlashgan Mustaqillik davri o'zbek adabiyotshunosligida badiiy asar tahlilining zamonaviy, ilg'or tendentsiyalari bo'y ko'rsata boshladi. Adabiy merosga yangicha nuqtai nazardan yondashish, mumtoz adabiyotimiz namunalarini ma'naviy-axloqiy tarbiyaning eng ta'sirchan asosi sifati har jihatdan o'rganish istiqlol yillarida faol tus oldi. Yaqin o'tmishda "diniy-mistik", "g'ayrisho 'roviy", "saroy adabiyoti" degan siyosiy yorliqlar bilan o'qish-o'rganish man etilgan asarlar ilmiy o'rganilib, ko'p nusxalarda chop etildi. Bu borada matnshunoslar, tadqiqotchilar xizmati e'tirofga loyiq.*

*Biroq adabiy merosimiz namunalarini bugungi talab darajasida mukammal tadqiq etish va nashrga tayyorlash matnshunoslik sohasi oldiga jiddiy vazifalarni qo'yayotgani sir emas. Ayni paytda matnshunoslik muammolari nimalardan iborat, ularning yechimi qanday, degan savollar dolzarb bo'lib turibdi. Ana shu masalalarni muhokama qilish va tegishli xulosalarga kelib olish uchun taniqli olimlar, tadqiqotchilardan bir guruhini davra suhbatiga taklif etdik.*

*Quyida siz taniqli adabiyotshunos olimlar: professor Suyima G'anieva, filologiya fanlari doktorlari — Nurboy Jabborov, Nusratullo Jumaxo'ja, Shodmon Nafasov, filologiya fanlari nomzodlari — Qodirjon Ergash, Rashid Zohidov va Qo'ldosh Pardaevning bugungi matnshunoslik muammolariga doir fikr-mulohazalari bilan tanishasiz.*

**Suyima G'ANIYEVA:** — Bugungi kunda matnshunosligimiz oldida jiddiy vazifalar turibdi. Jumladan, ko'plab asarlarning ilmiy-tanqidiy matnlarini tayyorlash zarur. Shu kungacha Lutfiy, Sakkokiy singari shoirlar asarlari bosilib chiqqan. Biroq ular devonlarining mukammal nashrlarini tayyorlash lozim. Mana, yaqinda Lutfiyning avvalgi nashrlariga kirmay qolgan she'rlarini Anqara nashri asosida chop etdik. "Majolis un-nafois" izohlari bilan nashr qilinmoqda. Kelgusida Lutfiy devonining mukammal nashrini tayyorlashimiz lozim. Sakkokiy va yana boshqa ko'p shoirlarning mukammal nashrlarini tayyorlashni yo'lga qo'yish zarur.

Alisher Navoiy asarlari nashrlari ustida ham amalga oshiriladigan ishlar talaygina. Masalan, shoir asarlaring akademik (ilmiy), ilmiy-ommabop nashrlarini tayyorlash kerak. Ularni tayyorlashda, albatta, shu kungacha chiqqan nashrlardan foydalanish bilan birga qo'lyozmalarga ham qayta murojaat etish lozim. Matnshunoslikdagi ilmiy-tanqidiy matn, chog'ishtirma matn, ilmiy nashr, ilmiy-ommabop nashr kabi tushunchalarni, ular o'rtasidagi farqlarni tushunib yetishimiz kerak. Chop etilayotgan asarga ilova qilinadigan sharh va izohlar, lug'atlar ham shunga qarab belgilanishi lozim. Shu paytgacha bizda "Xazoyin ul-maoniy"ning ilmiy matni mavjud emas. Bizning nazarimizda, keyingi yillardagi dastlabki mukammal nashr hisoblangan "Hazoyin ul-maoniy" (1959 — 1960), keyingi 20 jildlikka kirgan devonlar ham ilmiy-

tanqidiy matn asosida chop etilmagan. Albatta, ularni tayyorlash uchun ko‘p mehnat sarflangan, katta-katta olimlarimiz jiddiy izlanishlar olib borganlar. Shunday bo‘lsa-da, “Xazoin ul-maoniy”ning ilmiy-tanqidiy matnini yaratish bugungi kunning dolzARB muammolaridan.

Yana, “Xamsa” dostonlarini izohlari bilan qayta nashr etishga ehtiyoj bor. Nashrlardagi kichik xatolarni izlab vaqt sarflash o‘rniga, kattaroq — xalq uchun foydaliroq ishlar bilan shug‘ullanish kerak, deb o‘ylayman.

Tarjima asarlarning tabdilini tayyorlayotganda asliyatga solishtirishdan erinmaslik kerak. Matnshunoslik, manbashunoslik sohalari shoshma-shosharlikni yoqtirmaydi...

Nurboy JABBOROV: — Albatta, bu sohada oldimizda talaygina vazifalar turibdi va ular nihoyatda dolzarbdir. Men, avvalo, matnshunoslikda erishilgan yutuqlarimizni alohida ta’kidlab o‘tishni istardim.

O‘zbek matnshunosligi shu paytgacha, shubhasiz, salmoqli yutuqlarni qo‘lga kiritdi. Bu yutuqlar, ayniqsa, ulug‘ mutafakkir Alisher Navoiy asarlarini o‘rganishda yaqqolroq ko‘zga tashlanadi. Porso Shamsiev, G‘ulom Karimov, Hamid Sulaymon, Aziz Qayumov, Suyima G‘anieva singari ustoz olimlarning bu boradagi faoliyati tahsinga loyiq. “Xamsa”, “Mezon ul-avzon”, “Majolis un-nafois” kabi benazir asarlarning ilmiy-tanqidiy matni yaratilgani navoiyshunoslikni yangi bosqichga yuksaltirgani bugun hech kimga sir emas. Matnshunoslikda erishilgan bu yutuqlar keyingi davrda Bobur, Ogahiy, Furqat va boshqa mumtoz shoirlar, ijodkorlar merosi misolida davom ettirilayotgani quvonarli hol. Men bunga ikkita misol keltirish bilan cheklanaman. Birinchisi, Muhammad Rizo Ogahiyning dunyoda yagona qo‘lyozma nusxasi Sankt-Peterburgda saqlanayotgan “Shohid ul-iqbol” asarining matnshunoslik aspektida tadqiq qilingani, asar matnining ilmiy izohlar, ko‘rsatkichlar bilan nashr etilgani bu sohada so‘nggi yillarda qo‘lga kiritilgan salmoqli yutuqlardandir. Ikkinchisi, Mutribiyning “Tazkirat ush-shuar” hamda “Nusxayi zeboyi Jahongir” asarlari tadqiqi asosida yaratilgan monografiya. Salohiyatli olimlar Nafas Shodmonov va Ismoil Bekjonovning bu ishlari faqat muayyan asarlarning teran o‘rganilgani bilangina emas, matnshunoslikning bir qancha nazariy-metodologik masalalari hal etilgani bilan ham ahamiyatlidir. Bu tadqiqotlarda yagona nusxali matn ustida ishslash printsiplari, matn tarixi, tazkirana vislikning xos xususiyatlari singari muammolarning nazariy asosda ishlangani fikrimizni tasdiqlaydi.

Matnshunoslik oldida yechimini kutayotgan dolzARB muammolar nimalarda ko‘rinadi? Birinchidan, dunyoda fanning bu jabhasi zamon talablari darajasida rivojlangan bugungi kunda biz hanuz matnshunoslikning sistemali yaxlit nazariyasini ishlab chиqa olganimiz yo‘q. To‘g‘ri, bu borada muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Lekin bu ishlar talab darajasida emas. Vaholanki, jahoning bir qancha mamlakatlari fan va

ta’lim markazlarida matnshunoslik nazariyasiga oid yirik hajmli tadqiqotlar yaratilgan. Matnshunoslikning barcha ijtimoiy fanlar, jumladan, adabiyotshunoslik, arxeografiya, dialektologiya va tarixiy tilshunoslik singari sohalar bilan munosabati masalasi ancha chuqur o‘rganilgan. Bu fanga oid muammolarni hal etishda dunyo olimlari paleografiya, germanevtika, mumtoz poetika va stilistikada erishilgan yutuqlardan samarali foydalanmoqda. Modomiki sohani rivojlantirmoqchi ekanmiz, bu tajribalarni tanqidiy o‘rganishimiz zarur. Biroq bu xorijiy matnshunoslik qoliqlarini ko‘r-ko‘rona amaliyotga tatbiq etaveramiz degani emas. O‘zbek matnshunosligi o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Matnshunoslik nazariyasini ishslashda ana shu o‘ziga xoslik e’tiborga olinishi shart. Bu borada Milliy universitetimizning mutaxassislik kafedrasida muayyan ishlar boshlangan va erishilgan natijalar yaqin orada jamoatchilik hukmiga havola etilishidan umidvormiz.

Ikkinchidan, matnshunoslik ancha taraqqiy etgan ayrim mamlakatlarda muayyan milliy adabiyot tarixida o‘ziga xos maqomga ega har bir ijodkor asarlari yuzasidan keng qamrovli tekstologik tadqiqotlar amalga oshirilgan. Bizda esa, navoiyshunoslikni istisno qilganda (vaholanki, bu borada ham hal etilishi zarur bo‘lgan muammolar yetarli), ahvol maqtanarli emas. Ko‘proq bahslarimiz mumtoz adabiyot namunalarining joriy imloga tabdilidagi xatolarga oid ekani, matnshunoslikning fundamental masalalari e’tibordan chetda qolayotgani ham buning isbotidir. Hamon mumtoz adabiy merosimiz namunalarini tabdil qilishning ilmiy printsiplarini ishlab chiqa olganimiz yo‘q. Turfa xilliklar, xatoliklar negizi shunga ham borib taqaladi. Eski o‘zbek yozuvini o‘zlashtirgan ba’zi mutaxassislarimiz arab, fors tillaridan bexabar. Bularning barchasini bilganlarda esa, adabiy idrok yetishmaydi. Bunga layoqatli bo‘lsa, mumtoz ijodkorlarimiz e’tiqodining asosi bo‘lgan islom arkonlari va tasavvuf bo‘yicha tasavvuri chala. Xullas, muammo ko‘p. Ularni hal etish uchun ta’lim standartlarini, o‘quv dasturlarini ana shu talablarga muvofiqlashtirish zarur.

Uchinchidan, bugungi kunda jahon olimlari matnshunoslikni o‘qitishda ancha ilgarilab ketdi. Sohaga oid elektron darslik va o‘quv qo‘llanmalari, entsiklopediyalar, onlayn kutubxonalar, matn tadqiqining yangicha metodlari yaratilayotgani buning dalilidir. Biz esa bu borada ancha orqada ekanimizni tan olishimiz kerak.

Nusratullo JUMAXO‘JA: — Meningcha, birinchi navbatda, matnshunoslikning markaziy taskiliy masalalari to‘g‘risida muhokama yuritib, qat’iy bir to‘xtamga kelib olish zarur. Bular — maxsus matnshunoslik hay’atini tuzish, matnshunoslik jarayonlariga yagona andozaviy mexanizm sifatida xizmat qiladigan matn imlosi qoidalarini tuzish, matnlarni tayyorlaydigan va chop etadigan mutaxassis hamda nashriyotlarning vakolatlilik darajasini belgilash, mamlakat miqyosidagi matnshunoslik ishlarini muvofiqlashtirishdan iboratdir.

Hozir mumtoz asarlar matnshunosligi bo'yicha yetuk malakali mutaxassislar barmoq bilan sanarli darajada oz. Agar ular sarhisob qilinadigan bo'lsa, bir-ikki kishidan nariga o'tish ham qiyin. Chunki qolganlari sezilarli darajada faol emas. Ehtimol, bu mavjud matnshunos mutaxassislariga e'tibor va rag'bat kamligidandir. Aksariyat mumtoz matn nashrlarida sohaning qilni qirq yoradigan zahmatkash mutaxassislaridan foydalanmaslik, aksincha, ularni chetlab o'tishga intilish achinarlidir. Matnshunoslik amaliyotiga mana shunday yondashuv oqibatida bugungacha bironta adibimizning merosini matn sifati va saviyasi jihatidan mukammal darajada chop etilgan, deya olmaymiz. Alisher Navoiyning 20 jildli "Mukammal asarlar to'plami" ham bundan mustasno emas. Uni buyuk mutafakkir merosining hajmi jihatidan mukammal nashri deyish mumkin. "MAT" tuzuvchi, taqrizchi va mas'ul muharrirlari doirasi, asosan, noshir muassasa mutaxassislaridan tarkib topgan. Ayrim matnshunos mutaxassislar umuman jalb etilmagan. Matn sifati va saviyasi yaxshi bo'lishi uchun, aksincha, ko'proq xolis mutaxassislarni jalb etish maqsadga muvofiq bo'lardi. Gap shundaki, Alisher Navoiy merosi bir-ikki muassasaning mulki emas, balki umumxalq mulkidir. Nazarimizda, mumtoz matnlar nashrini doimiy nazorat qiladigan, muvofiqlashtiradigan xolis bir hay'at zarur. Uning nomi Respublika matnshunoslik hay'atimi, komissiyasimi, kengashimi, qanday atalishidan qat'i nazar, shunchaki ma'muriy bir tuzilma emas, balki matnshunoslikning markaziy amaliy boshqaruva mexanizmi bo'lishi lozim. Chop etiladigan har bir yodgorlik matni mana shu hay'at tasdig'idan o'tmog'i muhimdir. Aks holda, milliy meros namunalarini chop etishda boshboshdoqlik, o'zboshimchalik, monopolizm, chalasavodlik hollari kuchayib ketishi mumkin.

N.JABBOROV: — Bu muammolarni hal etish, birinchi navbatda, malakali mutaxassislar yetishtirish bilan bog'liq. Milliy universitetimizda bu sohaga oid magistratura mutaxassisligi, aspirantura, fan doktori va fan nomzodi ilmiy darajasini olish bo'yicha ixtisoslashgan kengash faoliyat ko'rsatayotir. Doktorantura ochilishi rejalashtirilgan. Natijalar yomon emas. Bir qancha iqtidorli yoshlar yetishib kelayapti. Yaqin orada muayyan samaralar ko'zga tashlanishidan umid qilish mumkin.

Tajribalar matnshunoslik bo'yicha bakalavr yo'nalishini ochish zarurati borligini ko'rsatayapti. Magistraturaga bu soha bo'yicha dastlabki bilimlarni puxta egallagan yoshlar qabul qilinsa, natija yana ham yaxshiroq bo'lar edi. Matnshunoslikning nazariy asoslariga oid darsliklar, o'quv qo'llanmalari yaratilishi zarur. O'quv jarayonini takomillashtirishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini oshirish kerak.

Bundan tashqari, bizningcha, boshqa turli sohalarda bo'lgani singari, matnshunoslar jamiyatini tashkil etish, sohaga oid barcha muammolarni muvofiqlashtirish, o'zaro fikrlashib hal etish yaxshiroq samara berar edi.

Qodirjon ERGASH: — Haqiqatan ham, matnshunoslik muammolari keyingi paytlarda adabiyotshunosligimizning diqqat markazida turgan dolzarb masalalardan biri bo‘lib qoldi. Bu haqda ko‘p gapirildi, matbuot sahifalarida fikr-mulohazalar bildirildi.

Bunday fikr almashuvlar, tanqidlarga qaramay hozircha bu sohada jiddiy o‘zgarishlar yuz bergani yo‘q. Holbuki bizda yetarli ilmiy salohiyat, malakali matnshunos olimlar bor. Bizningcha, buning sababi ana shu kuchlarning tarqoqligida bo‘lsa kerak.

Yuqorida aytilgan fikrga to‘la qo‘shilaman: ularni birlashtiruvchi bir markaz zarurga o‘xshaydi. Agar Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot institutida matnshunoslik va manbashunoslik bo‘limi tashkil etilsa, u ana shunday markaz vazifasini bajargan bo‘lur edi.

Qolaversa, mazkur sohadagi muammolarni hal etishga xizmat qiluvchi ta’sirchan chora-tadbirlarni topish va amalga oshirish zarur. Ana shulardan biri, bizningcha, ilmiy-tanqidiy matnlar yaratganligi uchun ilmiy unvonlar berish amaliyotini keng joriy etishdir. Bunday amaliyot katta ijobiy natijalar bergen bo‘lur edi. Chunki ilmiy unvon olish uchun taqdim etiladigan tadqiqot ustida aspirant yoki doktorant eng kamida uch yil ishlaydi, izlanadi. Bunday ish ko‘p sinovlardan, muhokamalardan o‘tadi. Ilmiy-tanqidiy matn tuzishni nomzodlik yoki doktorlik ishlari qilib berish ko‘plab yuksak saviyali ilmiy-tanqidiy matnlarning yuzaga kelishiga omil bo‘lishi mumkin. Bu masalaning bir tomoni. Ikkinci tomondan esa, bu amaliyot malakali matnshunos olimlarning yetishib chiqishiga ham xizmat qiladi.

Bu yerda ilmiy-tanqidiy matnlarni tuzish, umuman, matnshunoslik printsiplarini ishlab chiqish masalasi ham muhimligi to‘g‘ri ta’kidlandi. Bunda adabiyotimizning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish lozim. Ma’lumki, o‘zbek mumtoz adabiyoti asarlari eski yozuvda (arab yozuvida) yaratilgan. Ilmiy-tanqidiy matn, odatda, asar qaysi yozuvda yaratilgan bo‘lsa, o‘sha yozuvda tuziladi. Hozirgi paytda bizdagi barcha nashrlar, xoh ommaviy, xoh ilmiy bo‘lsin, joriy yozuvda amalga oshiriladi. Bunday sharoitda ilmiy-tanqidiy matn hozirgi nashrlar uchun asos bo‘lib xizmat qilishdan iborat o‘z funktsiyasini bajara olmaydi, zero, u, hozir aytib o‘tganimizdek, eski arab yozuvida tuziladi. Bu yozuvda esa bitta so‘zni turlichha o‘qish mumkin. Oqibatda joriy yozuvdagagi nashrlarda xatolar, xilma-xilliklar kelib chiqadi. Mumtoz adabiyotimiz asarlari nashrlarida uchraydigan xatolarning eng katta qismi aynan shu omil bilan, ya’ni arab yozuvidagi so‘zlarni noto‘g‘ri o‘qish bilan bog‘liqdir. Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, o‘zbek mumtoz adabiyoti asarlarining ilmiy-tanqidiy matnlarini yaratishda asliyat yozuvidagi asosiy matn bilan paralell ravishda joriy yozuvdagagi matnning ham tuzilishi shart qilib qo‘yilishi lozim. Ana shu tarzda tuzilgan tanqidiy matngina hozirgi barcha nashrlar uchun asos bo‘lib xizmat qila oladi.

N.JUMAXO‘JA: — Yaqinda bir tadqiqotchi mumtoz shoirlarimizdan birining ijodi yuzasidan ilmiy ish yozayotib, uning devonini ham “Tanlangan asarlar” nomi bilan

nashr etibdi. Men ilmiy ishni o'rganish munosabati bilan "Tanlangan asarlar"ni ham mutolaa etdim. Yuzaki qaraganda, bir fan nomzodligi ishini uddalash barobarida devonni ham nashrga tayyorlagani uchun tadqiqotchiga tasanno aytging keladi. Biroq mutolaa jarayonida birorta xatosiz asar va sahifa yo'qligini, qo'pol matniy xatolar qalashib yotganini ko'rgach, adabiy merosimizning egasi bormi o'zi, deb o'ylab qolar ekansan, kishi. Axir, devon chop etilsa-yu, u sifat va saviya jihatidan yaroqsiz ahvolda bo'lsa, uning noshirdan boshqa kimga foydasi bor? Xo'sh, duch kelgan odam mumtoz meros namunalarini eski o'zbek yozuvidan hozirgi imloga ko'chirib nashr ettiraverishi mumkinmi? Bu borada huquq va vakolat qanday bo'lmog'i kerak? Yurisprudentsiya nuqtai nazaridan, albatta, har bir fuqaro bunga haqli. Lekin amalda nainki har bir fuqaro, hattoki oliv ma'lumotli adabiyotshunos yoki sharqshunos ham bu ishga vakolatli va ma'naviy huquqqa ega bo'lishi qiyin. Chunki arab imlosidagi mumtoz matnlar shu qadar murakkabki, ular bilan o'n yillab muttasil shug'ullangan, ming betlab hozirgi yozuvga o'girish (transliteratsiya) ishi bilan shug'ullangan mutaxassisgina kasbiy layoqat, malaka hamda vakolat hosil qilishi mumkin.

Bu sohada ba'zan yuksak bilim, aql, ilmiy nazariya ham ish bermasligi, chigal muammoni hal etishda tajribali matnshunosning birgina nazari, savqitabiysi (intuitsiyasi) asqotishi mumkin. Savqitabiyy Olloh tomonidan ato etilgan iste'dod, biroq u ko'pyillik amaliy mehnat bilan yanada takomillashgan bo'ladi. Ming-ming sahifalab qo'lyozma o'qigan matnshunosda nodir ko'z xotirasi shakllanadi. Ilmda: "Intuitsiya — bekor, qo'lyozmaga qarash kerak", deya bepisand gapirishlar ham bo'lgan. Aslida, matnning piriga aylangan matnshunos qo'lyozmani ko'rmasdan ham so'zni aslidagidek isloh etish salohiyatiga ega bo'ladi. Zero, uning ko'z xotirasida so'zlarning turli, farqli shakl va mohiyatlari muhrlanib qolgan. U matnni hozirgi yozuvda ko'rib turgan taqdirda ham, asliyatdagi shakli ko'z o'ngida yaqqol gavdalanyadi. Yosh tadqiqotchilar nashr ishlarini loaqla ana shunday ustozlar bilan birgalikda amalga oshirishlari lozim. Zikr etilgan kitobning mas'ul muharrirlari ham ustoz olimlar. Biroq hozir nashr ishlarida bir xastalik paydo bo'lgan – o'qimaslik kasalligi. Ba'zi kitoblarni, surishtirsangiz, na mas'ulu maxsus muharrir, na taqrizchi, na nashriyot mutasaddilari o'qigan bo'lib chiqadi. O'qimasdan imzo chekib yuboraverishni bag'rikenglik va yaxshilik deb bo'ladimi?

Ko'p sa'y-harakatlarni chippakka chiqaradigan, mumtoz matn nashrlari sifatiga uzluksiz rahna solib kelayotgan eng og'riqli muammo matnshunoslik jarayonlariga yagona andozaviy mexanizm sifatida xizmat qiladigan maxsus imlo qoidalarining mavjud emasligidir. Ushbu dolzarb muammo oldin ham ko'p marta ko'tarilgan. Mumtoz adabiy-tarixiy matnlarni nashrga tayyorlash jarayonida qoidalashtirilishi zarur bo'lgan hodisa-holatlar haddu hisobsiz. Tarixiy shaxslar va so'zlarni turli shakllarda yozish, forsiy-arabiy izofa, izofa zanjirlarini to'g'ri qo'llay olmaslik, o'ndan ortiq

forsiy “yo”larning qo’llanish xususiyatlarini ma’nan farqlamaslik, mumtoz matnlardagi nozik ma’no tovlanishlarini hozirgi yozuvda ifodalash usullarining ishlab chiqilmaganligi — bari-barisi mana shu yagona andozaviy mexanizm muammosi hanuz o’z yechimini topmayotganligining oqibatidir. Bu muammoning yechimini topish bilan, shak-shubhasiz, taklif etilayotgan matnshunoslik hay’ati shug‘ullanishi lozim. Mazkur hay’at Vazirlar Mahkamasi huzurida ta’sis etilmog‘i va u mamlakatdagi yetuk matnshunoslarni jipslashtirmog‘i, jarayonni muvofiqlashtirmog‘i hamda boshqarmog‘i maqsadga muvofiqli.

Rashid ZOHIDOV: — Taxminan, chorak asr ilgari qadimi yozma yodgorliklarga munosabat mavzuida o’tkazilgan anjumanlardan birida marhum ustozimiz, lug‘atshunos olim Botirbek Hasanov fondlarga yig‘ilgan qadimi kitoblar bo‘yicha qilinayotgan dastlabki ilmiy tavsif ishlari nihoyalanmagani, ya’ni kitob sifatida fondga kelib tushgani ro‘yxatga olinganu, ammo asarning nomi, muallifi aniqlanmagan, umuman, qandayligi noma’lum manbalar talaygina ekani haqida xabar bergen edi. Keyinchalik bu ish qaysidir darajada tugallanib, Qo‘lyozmalar institutining ikki jildli katalogi rus tilida nashrdan chiqdi.

Bugun jumhuriyatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan fondlarning deyarli barchasida mavjud qo‘lyozma va toshbosma manbalarning ichki katalogini tuzish ishi nihoyasiga yetgan, har bir manba haqidagi dastlabki ma’lumotlar elektron shaklda yig‘ilgan. Navbatdagi bosqichda mazkur manbalar bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarga e’tiborni yanada kuchaytirish, matnshunosligimizning Porso Shamsiev kabi darg‘alari boshlagan ishlarni to‘xtatmasdan davom ettirishimiz lozim.

Xizmat taqozosi bilan ilmiy jamoamizga taqdim qilingan adabiy manbashunoslik va matnshunoslik yo‘nalishidagi doktorlik, nomzodlik dissertatsiyalarini dastlabki muhokamadan o’tkazamiz. Ba’zan muvaffaqiyat bilan nihoyalangan, deb topilgan ishlarni o‘qib ajablanasan, kishi. Go‘yo dissertant ham, uning ilmiy rahbari ham adabiyotshunoslik bilan matnshunoslikning farqiga bormaydigandek tasavvur uyg‘otadi. Ba’zan mumtoz adabiyot matnlarining eski o‘zbek yozuvidan joriy imloga tabdilida, mazkur matnlarning talqinida savodsizlikni kuzatamiz. Ayniqsa, arabcha so‘z, jumla, matnlarni o‘zbekchalishtirishda o‘ta e’tiborsiz, mas’uliyatsiz yondashuvlar, tarjimada o‘zbek tilini dominant sifatida bilmaslik, oqibatda ona tilimizning talaffuz tabiatini hisobga olmasdan boshqa tillarga sun’iy tarzda moslashtirishlar, maxsus tushuncha va istilohlarni izohsiz, bilib-bilmasdan qo‘llash sababli qo‘pol xatolarga yo‘l qo‘yilayotir. 2006 yili “Zarqalam” nashriyotida adabiyotshunos olim Yoqubjon Ishoqovning “So‘z san’ati so‘zligi” nomli hamma ma’noda chiroyli ilmiy risolasi chop qilindi. Kitobga yozilgan “Mumtoz badiiy san’atlar talqini” so‘zboshisida “Zuxruf” surasining 4-oyati misol sifatida keltirilgan. E’tiborsizlik oqibatida bitta oyatda uchta jiddiy xatoga yo‘l qo‘yilgan va ma’noga futur

yetgan. Avvalo, Qur'ondan keltirilayotgan iqtibos, albatta, mutaxassis nazaridan o'tishi kerak. Qolaversa, oyatlarni kirill harfida yoki originaldan boshqa harfda ifodalash shu paytgacha yaxshi natija bermagan. Shuning uchun tarjimaning o'zini bergen ma'qul va shu bilan maqsad hosil bo'ladi. Eng xunugi, bu o'rinda negadir mazkur oyat tarjimasi ham buzib berilgan. Bir emas, bir necha olimlarimizning ona tilimizdagi, qonuniy tavsiya etilgan tafsirlari turib, oyat tarjimalarini o'sha tafsirlarning birortasidan olmasdan o'zboshimchalik qilishning nima keragi bor edi?!

Matn tabiatidan uzoqlashish bilan bog'liq bunday xatolarni ommaviy nashrlarning aksariyatida uchratish mumkin. Alisher Navoiyning "Nazm ul-javohir" (Alisher Navoiy, 20 jildlik, 15-tom, T., "Fan", 1999, 136-bet) asarida shunday ruboiy bor:

*Iymoni aningki kufrig 'a sotir erur,*

*Chin nukta demakka ul kishi qodir erur,*

*Har kimsaki iymon ishida mohir erur,*

*Iymonini bilki, otidin zohir erur.*

Ruboioyning to'rtinchisi misrasidagi "otidin" so'zi "ontidin" bo'lishi kerak edi. Shunda ma'no hadisga muvofiq bo'lardi. Aslida bunga asos ruboioyning sarlavha qismida berilgan arabiy hikmatda aks etgan. Oddiy e'tiborsizlik yoki jumlanı noto'g'ri o'qish oqibatida hikmat ma'nosi buzilgan.

Adabiy meros tadqiqi va targ'ibi yo'lida bilib-bilmasdan sodir etilayotgan bunday nuqsonlarning sababi ko'p. Asosiy sabab, ajdodlarimiz qoldirgan ilm xazinasiga haqiqiy vorislik salohiyatidagi mutaxassislarning kamligidir. Shuning uchun ham bugun mumtoz adabiyotimiz tadqiqi ilmiy-fundamental va metodologik sistemada sezilarli siljimayapti. To'g'ri, filologiya fanining yetakchi tarmoqlaridan bo'lgan adabiyotshunoslik va tilshunoslik nazariy-amaliy jihatdan boy tajribaga ega. Ammo bu ikki tarmoqni o'zaro bog'lashga xizmat qilishi mumkin bo'lgan matnshunoslik esa ayni jihatdan oqsayapti. Albatta, bu holga ma'lum vaqt davom etgan ijtimoiy-siyosiy sharoit, eski o'zbek tilini, yozuvini biladigan, arab-fors tilidan xabardor mutaxassislarning kamligi bosh sabab. Bu sohada maxsus magistratura mutaxassisligi faoliyat ko'rsatayotgani mazkur muammoni hal etishga xizmat qilsa, ajab emas.

QERGASH: — Adabiyot tarixini matnlarsiz, manbalarsiz o'rganib bo'lmaydi. Binobarin, mumtoz adabiyot asarlarining ilmiy-tanqidiy matnlarini tuzish, adabiyotimiz tarixi uchun muhim bo'lgan manbalarni tadqiq qilish, nashrha tayyorlash va ilmiy iste'molga kiritish o'ta dolzarb vazifa deb e'tirof etilishi lozim. Buni faqat ilmiy jamoatchilik emas, balki fanni boshqaruvchi tashkilotlar, ular huzuridagi ekspert hay'atlari ham e'tirof etishlari va ilmiy loyihalarni baholashda hisobga olishlari zarur. Xususan, uzoq muddatga mo'ljallanmagan amaliy tadqiqotlar uchun e'lon qilingan

grantlarni olish uchun taqdim etilgan loyihalarda yuqoridagi maqsadlar ko‘zda tutilgan bo‘lsa, ularni qo‘llab-quvvatlash maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

O‘zbek matnshunosligining asosiy yo‘nalishlaridan biri ulug‘ shoir va mutafakkir Alisher Navoiy asarlari matnini tayyorlashdir. Bu sohada muayyan ishlar qilingan. Shoirning bir qancha asarlarining ilmiy-tanqidiy matnlari yaratilgan. Lekin hali qilinadigan ishlar ko‘p. Jumladan, Navoiyning nasriy merosi orasida hali ilmiy-tanqidiy matnlari tuzilmagan asarlar bor. Mana shu yo‘nalishda tadqiqotlar olib borish mazkur asarlarning barcha ilmiy talablarga javob beradigan yuqori saviyadagi ilmiy-tanqidiy matnlarini tayyorlash navoiyshunos olimlar oldida turgan muhim vazifalardan sanaladi. Mazkur ishlarni amalga oshirishda bizga ibrat, namuna, ayni paytda, tajriba maktabi bo‘lib xizmat qiladigan tadqiqotlar bor. Bu o‘rinda biz “Mahbub ul-qulub”ning atoqli olim Kononov tomonidan tayyorlangan ilmiy-tanqidiy matni yoki “Majolis un-nafois”ning taniqli adabiyotshunos olima Suyima G‘anieva tomonidan tayyorlangan ilmiy-tanqidiy matni singari ishlarni nazarda tutmoqdamiz. Matnshunoslikning klassik namunalari bo‘lib qolgan bunday ishlar hech qachon o‘z qimmatini yo‘qotmaydi.

Nafas ShODMONOV: — Aslida matnshunoslik juda qadimiy soha. Uzoq tarixiy asoslarga ega bo‘lsa-da, matnshunoslikning butun dunyoda sistemali suratda shakllanganiga hali bir asr ham bo‘lmadi. Lekin shu qisqa vaqt ichida filologik fanlari rivojlangan mamlakatlarda matnshunoslikning nazariy printsiplari ishlab chiqildi.

O‘tgan asrga nazar tashlasak, matnshunoslarning bizzan oldingi avlodni o‘z zimmalaridagi vazifani sharaf bilan bajardilar. Ularning muhim vazifasi ajdodlarimizning eng sara asarlarini joriy yozuvda kitobxonlarga taqdim qilishdan iborat edi. Shuning uchun ham, bu sohada fidoyilik ko‘rsatgan olimlarga har qancha ehtirom ko‘rsatilsa arziyi.

Mustaqillik davrida imkoniyatlar yanada kengaydi. Muhtaram Yurtboshimiz ko‘hna yozma bitiklarni ma’naviy tarbiyada muhim asos sifatida o‘rganishni siyosat darajasida belgilab berdi. Matnshunoslар buni ham sharaf, ham mas’uliyat deb qabul qildilar. «Feodal-klerikal» tamg‘asini olgan, «xalq dushmani» sifatida qoralangan Milliy Uyg‘onish davri adabiyoti vakillari asarlari ilmiy o‘rganila boshlandi, juda katta hajmda nashr qilindi. Bunda ham matnshunosligimizning xizmatini e’tirof etmaslik mumkin emas.

Lekin bugunning ko‘zi bilan qarab, tan oladigan bo‘lsak, o‘zbek matnshunosligi qanchalik katta hajmdagi va ahamiyatli faoliyatni amalga oshirgan bo‘lmasin, faqat amaliy jarayondan iborat bo‘lib qoldi. Uning o‘ziga xos ilmiy-nazariy printsiplari ishlab chiqilmagani bois tom ma’noda professionallasha olmadi. Buning bosh sababi hammaga yaxshi ma’lum: milliy ma’naviy qadriyatlar bilan fan taraqqiyoti o‘rtasiga

katta to'siq qo'yilgan edi. Haqiqiy matnshunoslar juda kam edi. Ular ham, hozir aytiganidek, kechiktirib bo'lmash amaliy faoliyat bilan band bo'ldilar. O'zbek filologiyasi mutaxassislari orasida matnshunoslar yetishtirish ko'zda tutilmagandi. Sharqshunoslarga esa, milliy til va adabiyot sirlari o'rgatilmagandi. Oqibatda chala matnshunoslar ko'proq ish bajargan...

Qo'ldosh PARDADEV: — Bu yerda adabiyot tarixini matnlarsiz, manbalarsiz o'rganib bo'lmaydi, degan fikr aytildi. Darhaqiqat, shu o'rinda muhim adabiy manba — XX asr boshlari matbuoti materiallarini o'rganish muammolarini ham eslab o'tish zarur. "Oyina", "Sadoi Turkiston", "Sadoi Farg'ona", "Hurriyat" singari mashhur matbuot nashrlarida chop etilgan adabiyot materiallari anchagini o'rganildi. Biroq "Al-Izoh", "Al-Isloh", "Izhor ul-Haq" jurnallari haqida bunday deb bo'lmaydi. Bu jurnallardagi adabiyot materiallari adabiy manbashunoslik va matnshunoslik aspektida tadqiq qilinishi, ularning XX asr adabiyotida tutgan o'rni, maqomi belgilanishi dolzarb ilmiy muammolardandir.

Birgina "Al-Isloh" jurnalini olaylik. Undagi adabiy-estetik munozaralar yangi adabiyotning shakllanishida, taraqqiy etishida alohida ahamiyat kasb etgani sir emas. Bu manbaning o'rganilishi adabiy-tanqidiy qarashlar tadrijini tadqiq qilishda ham alohida o'rin tutadi.

Yana bir muammo: Milliy Uyg'onish davri matbuotidagi adabiyot materiallarini nashr etishda ham aksar hollarda professionalikdan yiroqlik illati ko'zga tashlanadi. Bu hol matnlarning noto'g'ri tabdil qilinishida, ba'zan mohiyatga zid talqinlarda, ayniqsa, yaqqol seziladi. Salohiyatlari matnshunos kadrlarni tayyorlash bu singari muammolarni hal etishning asosiy omilidir.

N.ShODMONOV: — Shuni alohida ta'kidlash lozimki, matnshunoslik faqat yozuvni bilish bilangina bajarilishi mumkin bo'lган ish emas. Matnshunos, birinchidan, davrning falsafiy estetik printsiplarini yaxshi o'zlashtirgan; ikkinchidan, milliy taraqqiyot ehtiyojlarini anglagan; uchinchidan, ona tilining tarixi, buguniga tegishli bilimlarni, jumladan, yozuvlar tarixini, boshqa tillar ta'siri va matnlardagi ishtirokini to'la egallagan; to'rtinchidan, adabiyotshunoslik qoidalaridan mukammal xabardor mutaxassis bo'lishi kerak. Aks holda, ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi.

Demak, matnshunosligimiz oldidagi hozirgi eng muhim vazifa ikkita: birinchisi, matnshunoslik bo'yicha malakali kadrlar tayyorlash doirasini yanada kengaytirish lozim. Buning uchun mavjud universitetlar o'zbek filologiyasi fakultetlari talabalariga matnshunoslik fani umumkasbiy fanlar qatorida o'qitilishi, magistrler tayyorlanishi maqsadga muvofiq. Ikkinchisi, o'zbek matnshunosligining nazariy asoslari, jumladan, tadqiqot, tahqiqot va nashr usullari, metodologiyasi ishlab chiqilishi zarur. Boshqa tillarda yaratilgan bunday qo'llanmalar o'zbek matnshunosligining o'ziga xos

xususiyatlarini tadqiq etish, adabiy manbalarni nashrga tayyorlash uchun ilmiy-metodologik mezon bo‘la olmaydi.

Davra suhbatni Mahmud Sa’diy va Ahmad Otoboev tayyorladi.

“O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasining 2010 yil 27-sonidan olindi.

## **МУНДАРИЖА:**

<b>1. 1-Mavzu:</b> Matn tarixi, tadqiq usullari. Matn shakllari, prinsiplari. . . . .	28-46
<b>2. 2-Mavzu:</b> Nashr turlari (ilmiy-tanqidiy matn, yig'ma-qiyosiy matn, faksimile nashr, ilmiy-ommaviy nashr). . . . .	47-53
<b>3. 3-Mavzu:</b> Manba va matnlarni klassifikatsiya qilish. . . . .	54-55
<b>4. 4-Mavzu:</b> Temuriylar davri matnshunosligi. . . . .	56-59
<b>5. 5-Mavzu:</b> Alisher Navoiy. Navoiy va kitobat san'ati. Xattotlik. . . . .	60-61
<b>6. 6-Mavzu:</b> Navoiy asarlariga bag'ishlangan lug'atlar. . . . .	62-65
<b>7. 7- Mavzu:</b> Alisher Navoiy asarlarining tekstologik xususiyatlari. Alisher Navoiy asarlarida variantlilik. . . . .	66-69
<b>8. 8- Mavzu:</b> Alisher Navoiy "Ilk devon" idagi g'azallar va ularning keyingi tarixi. . . . .	70-75
<b>9. 9-Mavzu:</b> Porso Shamsiyev adabiy manbashunos va matnshunos. . . . .	76-81
<b>10.10-Mavzu:</b> Tarixiy asarlar. Tarixiy asarlarning tuzilishi va o'ziga xos xususiyatlari. . . . .	82-94
<b>11. 11- Mavzu:</b> Zamonaviy o'zbek matnshunosligi tendensiyalari. . . . .	95-118
<b>12. MUNDARIJA</b> . . . . .	119

24. Murodov A. O'rta Osiyoxattotliksan'atitarixidan. – T.: Fan, 1971.
25. Navoiyasarlari lug'ati (tuzuvchilar: P. SHamsiyev, S.Ibrohimov). – T.: G'afurG'ulomnomidagiadabiyotvasan'atnashriyoti, 1972.
26. Navoiydastxati. (Navodirun-nihoya). Nashrgatayyorlovchi, so'zboshim uallifi S. Ganiyeva. – T.: Fan, 1991.
27. Sirojiddinov SH. XV–XVI asrlartarixiyvatazkira-  
esdalikasarlarida Alisher Navoiyhayotiva faoliyat talqini. – Samarqand: Zarafshon, 1997.
28. Sultonov I. Navoiyning “Mezonul–avzoni” va uning kritik teksti:  
filol.fan.nom.diss. – T.: Asosiy kutubxona. RD/1, 1947

#### **Internet saytlari:**

1. <http://kutubxona.uz>
2. <http://literature.uz>
3. <http://ziyonet.uz>
4. <http://alisher navoiy.uz>